



OFATVA MATONAT



OFAT VA MATONAT






Xalqimiz o'z tarixida qanday og'ir tabiiy ofatlarni ko'rgan bo'lmasin, Qodir Allohning marhamati bilan, o'zining kuch-qudrati, vazminligi va donishmandligi orqali ularning barchasini yengib o'tgan.

Men ana shunday mard va matonatli, mehr-oqibatli xalqimizning aql-zakovatiga, uning metin irodasi hamda qat'iyatiga to'la ishonaman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



SO‘ZBOSHI O‘RNIDA

2020-yil butun insoniyat tarixida jiddiy sinov davri sifatida muhrlandi. 2019-yilda paydo bo‘lgan “COVID-19” kasalligi tezlik bilan Kurrayi Zamin bo‘ylab tarqalib, barchani tashvish va sarosimaga solib qo‘ydi.

Ushbu yuqumli xastalik mamalakatimizni ham chetlab o‘tmadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan berilgan ko‘rsatmalar asosida yurtimizda koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish, aholini ijtimoiy himoya qilish, hududlarda sanitar-epidemiologik osoyish-talikni ta‘minlash bo‘yicha qisqa muddat ichida kompleks chora-tadbirlar belgilandi.

Ming afsuski, butun dunyo koronavirus pandemiyasi tahlikasida turgan bir paytda, Buxoro viloyatida yuz bergan kuchli shamol, Sirdaryo viloyatida suv toshqini keltirib chiqargan talafot el-yurtimizning matonatini yana bir bor sinovdan o‘tkazdi.

Mehr-oqibat, sabr-toqat va matonat, muhtojlarga yordam qo‘lini cho‘zish, muruvvat, xayr-saxovat va ko‘mak ko‘rsatish, fidoyilik – bularning barchasi samimiy va bag‘rikeng xalqimizning eng muhim va azaliy qadriyatlaridan hisoblanadi. Ana shunday ezgu fazilatlar ushbu sinovli kunlarda yana bir bor yaqqol namoyon bo‘ldi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: **“Vatanimizda yashayotgan hech bir inson, hech bir oila davlatimiz va jamiyatimiz e‘tibori va g‘amxo‘rligidan chetda qolmasligi kerak”**, degan qat‘iy siyosati asosida yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan aholini ijtimoiy himoyalash masalasi bu davrda yanada kuchaytirilgani xalqimizning ko‘nglini ko‘tardi.

Barcha ehtiyojmand kishilar, aholining kam ta‘minlangan qatlami, muhtoj oilalar, keksa va nogironli-

gi bo'lgan shaxslarga zarur yordam va ko'maklar ko'rsatish, iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror ishlashini ta'minlash maqsadida Inqirozga qarshi kurash jamg'armasi tashkil etildi.

O'zbekiston mamlakat ichkarisi-da epidemiyaga qarshi kurashish bilan birga, bir qator xorijiy davlatlarga ham insonparvarlik yordamlarini ko'rsatdi, tibbiy niqoblar, dori-darmonlar, virusdan himoyalovchi kiyimlar va boshqa zarur ko'mak yuklarini yubordi.

Prezidentimiz 2020-yil 20-aprel kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yana bir xayrli tashabbusni ilgari surdi.

“Pandemiya sharoitida ishsizlar, yordam va ko'makka muhtoj aholi sonining o'sib borishi tabiiy jarayon, – deya ta'kidladi davlatimiz rahbari ushbu yig'ilishda. – Biz, avvalo, xalqimizni, shuningdek, iqtisodiyotimizni bu inqirozdan eson-omon olib o'tish uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rmoqdamiz. Shuning uchun biz xalqimizning tarixiy va ma'naviy qadriyatlarini, jumladan, mehr-saxovat, oqibat va himmat, topganini o'zgaralar bilan baham ko'rish kabi yuksak fazilatlarini inobatga olgan holda, “Saxovat va ko'mak” umumxalq harakatini e'lon qilsak, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu tashabbusni qo'llab-quvvatlaydi”.

Har qanday sinovni hamjihatlik va birdamlik bilan yengib o'tadigan xalqimiz, saxovatpesha tadbirkorlarimiz va savobtalab yurtdoshlarimiz jamiyatimizda o'zaro mehr-oqibat rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladigan ushbu ezgu tashabbusni keng qo'llab-quvvatladilar.

Hamjihatlikda baraka bor, degan gap bejiz aytilmagan. Shukrki, bugun yurtimizda bunyodkorlik va el-yurtimiz farovonligi yo'lida olib borilayotgan islohotlar jadal sur'atida davom etmoqda.

Sardobada yuz bergan texnogen falokat to'la bartaraf etilib, Sardoba, Oqoltin, Mirzaobod tumanlarida ko'rgan ko'zni quvontiradigan yangi turarjoy majmualari barpo etildi.

Buxoroda tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish uchun 100 milliard so'm miqdorida mablag' ajratilib, uylar ta'mirlandi, shikast yetgan yo'l, aloqa, elektr, gaz va boshqa kommunikatsiya tarmoqlari yangilandi.

Pandemiyaning salbiy oqibatlarini imkon qadar kamaytirish borasidagi keng ko'lamli ishlar ham o'zining ijobiy samaralarini bermoqda.

Mazkur kitobda murakkab vaziyatda mamlakatimizda kechgan tarixiy jarayonlar, og'ir sinovlarni ulkan mardonalik, sabr-u matonat bilan yengib o'tayotgan xalqimizning ezgu fazilatlarini haqida hikoya qilinadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING XALQIMIZGA MUROJAATI

Hurmatli do'stlar!

Hamangiz ko'rib turibsiz, mana, to'rt oy bo'ldiki, dunyoning 160 dan ortiq mamlakatida xavfli kasallik – koronavirus infeksiyasi tarqaldi.

Dunyo miqyosida kasallanganlar soni 190 ming nafarga yetdi, ularning 81 ming nafardan ortig'i tuzaldi, 7,5 ming o'lim holati qayd etildi. Kasallik keng yoyilib ketgani sababli, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti uni "pandemiya" deb e'lon qildi.

Ming afsuski, bu yuqumli kasallik mamlakatimizni ham chetlab o'tmadi va bizga ham chetdan kirib keldi. Biz bu ofatning tarqab ketmasligi uchun hamma choralarini ko'ryapmiz.

Topshirig'imga ko'ra, Bosh vazir rahbarligida Respublika maxsus komissiyasi tuzilgan. Har bir hududda hokimlar rahbarligida

maxsus shtablar tashkil etilgan. Epidemiologik vaziyat bo'yicha har soatlik va kunlik ma'lumot tahlil qilinib, tezkor choralar ko'rilmoqda.

Tibbiyot muassasalari favqulodda ish rejimiga o'tkazilib, ular dori-darmon, himoya va diagnostika vositalari bilan yetarli darajada ta'minlandi. Sihatgoh va oromgohlar karantin muassasalari sifatida moslashtirildi. Bularning barchasi uchun budjetdan zarur mablag'lar ajratildi.

Yurtimizda koronavirusga qarshi kurash ishlariga jalb etilgan qariyb 5,5 ming nafar tibbiyot xodimini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash maqsadida, ularning oylik maoshiga qo'shimcha 120 foiz ustama to'lanmoqda.

Odamlar gavjum joylarda, jumladan, ta'lim maskanlari, ko'n-

gilochar maskanlar, konsert zalari, masjidlarda ommaviy tadbirlarni cheklash choralari ko'rilmoqda. 16 martdan boshlab, barcha ta'lim dargohlaridagi 8 million 300 ming nafar farzandlarimizga ta'til e'lon qildik. 80 ming talaba markazlashgan holda yashash joylariga jo'natildi.

Ta'lim muassasalari faoliyati to'xtab turgan davrda tarbiyalanuvchilar va boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-onalariga yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga zarur sharoitlar yaratib berilmoqda.

Aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida karantinga yopilgan muassasalar xodimlari, karantindagi fuqarolar va ularga qarovchilarning huquqlarini ta'minlash, ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonini kamida 10 foizga yoki 60 mingtaga oshirish choralari ko'rilmoqda.

Xorijga xizmat safariga va boshqa yumush bilan ketgan yurtdoshlarimizni charter aviareyslari orqali Vatanimizga qaytarmoqdami.

Chegaralarda harakatlar cheklandi, ammo transportda yuk tashish to'xtatilgani yo'q. Mamlakatimizga kuniga ko'plab xorijiy va mahalliy yuk tashuvchilar kirmoqda va, o'z navbatida, yurtimizdan chiqmoqda.

Biz epidemiya tarqalishining dastlabki bosqichida yurtimizga kasallikning ommaviy kirib keli-

shi va keng tarqalishining oldini olishga muvaffaq bo'ldik.

Afsuski, bu xatarli virus hech qanday chegara bilmas ekan. Ammo vaziyat to'liq nazoratimiz ostida ekanini yurtdoshlarimizga alohida ta'kidlab o'tmoqchiman.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va yetakchi davlatlar bilan yaqin hamkorlikda ishlayapmiz.

Fursatdan foydalanib, fidoyilik va jonbozlik ko'rsatayotgan barcha tibbiyot xodimlariga va boshqa mutasaddilarga ham chuqur minnatdorlik izhor etmoqchiman.

Bugun xalqimizga murojaat qilib aytmoqchiman.

Bu hayotning ko'p og'ir sinovlarini va yaxshi-yomon kunlarini boshidan kechirgan xalqimiz hammasini to'g'ri tushunib, masalaga ongli yondashmoqda.

Muftiyat rahbarligida diniy ulamolar yurtimizga tinchlik-xotirjamlik, bemorlarga shifo tilab, duoyi fotihalar qilishmoqda.

Millati, tili va dinidan qat'i nazar, hammamiz yakdilmiz va ishonamizki, bu qiyinchiliklar, albatta, o'tib ketadi.

Buning uchun, **birinchi navbatda**, shifokorlar tavsiyalariga amal qilib, shaxsiy gigiyena va sanitariya qoidalariga har birimiz o'z oilamiz, bola-chaqalarimiz bilan uyimizda, ishxonamizda hamda boradigan joylarimizda qat'iy amal qilishimiz zarur.

Kasallikni yashirmasdan, o'z vaqtida murojaat qilish uning

oldini olishda eng samarali choradir.

Ikkinchidan, oziq-ovqat va boshqa kundalik iste'mol mahsulotlarining narxi oshib ketmasligi uchun barcha choralar ko'rilmoqda. Davlat soliq qo'mitasi, Bosh prokuratura huzuridagi departament bu borada nazoratni kuchaytirmoqda.

Mamlakatimizda etarli darajada zaxira mavjud, xavotir yoki vahimaga tushishga hech qanday asos yo'q. Ammo ko'pga kelgan bu baloga qarshi hammamiz birgalikda, bir yoqadan bosh chiqarib, harakat qilishimiz lozim.

Barcha davlat va nodavlat tashkilotlari, muhtaram nuroniy-larimiz, mahalla va xotin-qizlar, yoshlar tashkilotlari faollari ommaviy axborot vositalari orqali xolis va haqqoniy, keng tushuntirish ishlarini kuchaytirishiga ishonaman.

Uchinchidan, majburiy ta'til paytida farzandlarimiz o'quv mashg'ulotlarini davom ettirishlari uchun O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda videodarslar turkumi yo'lga qo'yildi.

Teleradio kanallarimiz yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun tariximiz, boy madaniyatimizga oid ko'rsatuv va eshittirishlar, yoshlarimiz uchun foydali va qiziqarli badiiy dasturlar, kinofilmlarni ko'paytirishi lozim.

Ota-onalar o'z farzandlarini jahon va milliy adabiyotimizning eng yaxshi namunalari bilan tanishtirishga harakat qilsalar, ayni muddao bo'lardi.

Yana bir muhim masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Hozirgi vaziyatda ayrim mas'uliyatsiz, haqiqiy holatdan bexabar va o'zini "piar" qilishni yaxshi ko'radigan odamlar turli mish-mish va uydirmalarni tarqatishga urinadi.

Shu munosabat bilan jamoatchiligimizdan iltimos qilaman: sarosima yoki vahima kayfiyatiga berilmaslik kerak. Matbuot va ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri, asoslanmagan ma'lumotlar tarqalishiga yo'l qo'ymasligimiz zarur. Bu masalani huquq-tartibot idoralari ham alohida nazoratga olishi lozim.

Aziz vatandoshlar!

Koronavirus pandemiyasining butun dunyo mamlakatlari qatori iqtisodiyotimizga salbiy ta'siri bo'lishi tabiiy.

So'nggi ikki haftada jahon bozorida neftning narxi (bir barreli 60 dollardan qariyb 30 dollarga) keskin pasayib ketgani oqibatida gaz eksportimiz tushumlari qisqarishi mumkin.

Xorijdagi asosiy savdo hamkorlarimizning milliy valutalari qadrsizlanishi mamlakatimizda ham valuta tushumini kamaytiradi. Xorijiy turistlar soni va tushum miqdori kamayishi mumkin.

Bular, tabiiyki, yalpi ichki mahsulot va eksport hajmiga ta'sir qilmasdan qolmaydi.

Bugungi sharoitda sanoat korxonalari, tadbirkorlar hamda eksportyorlar bizdan aniq va samarali choralar kutmoqda. Shu bois iqtisodiyotda hisob-kitob qilinayotgan yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun zaxira yaratish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hukumatning asosiy vazifasi bo'lishi zarur.

Bu boradagi ishlarni samarali tashkil etish maqsadida koronavirus pandemiyasi va global inqirozli hodisalarning iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida farmon qabul qildik. Hujjatga asosan, Inqirozga qarshi jamg'arma tuzilib, unda 10 trillion so'm shakllantiriladi.

Mening topshirig'imga ko'ra, Maxsus ishchi guruhi turizm, transport, farmatsevtika va yangi sanoat kabi sohalarga soliq ta'tillari berish, kreditlarni qaytarish muddatini kechiktirish, kechiktirilgan tashqi qarzdorlik uchun jarima qo'llamaslik tartibini joriy qilish choralarini ko'rmoqda.

Bu jarayonda, **avvalo**, moliya va xomashyo bozorida beqarorlik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Ikkinchidan, moliyaviy barqarorlikni saqlash hamda bozorlar-

da narx-navo o'sishining oldini olish zarur.

Uchinchidan, iqtisodiyotimizning bazaviy va hal qiluvchi tarmoqlari uzluksiz ishlashini saqlab qolish kerak. Buning uchun har bir tarmoq, korxonalar va hudud kesimida manzilli va aniq tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

To'rtinchidan, markazdan hududiy budjetlarni va aholimizni qo'llab-quvvatlash asosiy vazifalarimiz bo'lishi shart.

Butun xalqimiz aniq bilishi kerak: biz koronavirusga qarshi kurash faoliyatini oshkoralik tamoyillari asosida olib boryapmiz. Jahon jamoatchiligini ham, xalqimizni ham vaqtida xabardor etib boryapmiz. Bu borada kerakli choralarini yanada kuchaytiramiz.

Bugun men ikki qo'shni davlat – Qozog'iston va Turkmaniston rahbarlari Qosim-Jo'mart To'qayev va Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qilib, bu borada o'zaro hamkorlik va bir-birimizni qo'llab-quvvatlash bo'yicha barcha masalalarni kelishib oldik.

Ko'pni ko'rgan xalqimiz yanada jipslashib, ahil va hamjihat bo'lib, bu murakkab sinovlarni ham yengib o'tadi, deb ishonaman.

Yana bir muhim masalaga barcha mutasaddilarning e'tiborini qaratmoqchiman.

Xabaringiz bor, so'nggi yillarda mamlakatimizda sanitariya-

epidemiologiya masalasiga jiddiy ahamiyat bermoqdamiz. Hozirda yurtimizda respublika darajasidagi 2 ta shifoxona, 14 ta viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi, 216 ta hududiy sanitariya-epidemiologiya muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Biroq keyingi 25 yil davomida umuman e'tibor bermaganimiz uchun ularning aksariyatining moddiy-texnika bazasi, ayniqsa, laboratoriyasi, tibbiy anjom va jihozlari achinarli holatga kelib qolgani ham ayni haqiqatdir.

Shu sababli bugungi kunda respublika sanitariya-epidemiologiya xizmatini tubdan isloh qilish va samaradorligini oshirish bo'yicha ishchi guruhi tomonidan alohida qaror loyihasi tayyorlanmoqda.

Mazkur xizmatning asosiy faoliyati tibbiy va sanitar barqarorlik, jamoat salomatligini ta'minlash, kasalliklar profilaktikasi va sog'lom turmush tarzini tashkil etishga qaratiladi.

Buning uchun viloyat hokimlari joylardagi sanitariya-epidemiologiya muassasalarini birma-bir aylanib, laboratoriya-dagnostika, tibbiy vosita va jihozlar bilan ta'minlanganlik darajasi, kadrlar salohiyati, oylik maoshi kabi muammolarni chuqur o'rganishi zarur. Ichki moliyaviy imkoniyatlar asosida ularni yil oxiriga qadar bartaraf etish, zaxiralar shakllantirish bo'yicha alohida dasturlar ishlab chiqib, bajarishi lozim.

Bosh vazir respublika darajasidagi va Toshkent shahridagi muassasalarni birma-bir joyiga chiqib o'rganish va zarur chora-tadbirlar qabul qilinishi hamda ijrosi uchun shaxsan mas'ul bo'ladi.

Asosiy masala – moddiy-texnik bazani mustahkamlash, kadrlarni o'qitish, ilm-fanni rivojlantirish, aholi salomatligi uchun mablag'ni ayamassligimiz zarur.

Mahalla va oila muammolarini o'z vaqtida aniqlash hamda hal etish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqdan.

2020-yil 18-mart

TADBIRKOR YOKI FERMER QANCHA KO‘P OILAGA KO‘MAK BERSA, DAVLATDAN SHUNCHA KO‘P IMTIYOZ VA YORDAM OLADI

Hurmatli yig‘ilish qatnashchilari!

Hozirgi pandemiya paytida, albatta, ishsizlar, yordam va ko‘makka muhtoj aholimiz soni o‘sib borishi tabiiy jarayon. Butun dunyoda bo‘lgani kabi bu murakkab tashvishlar bizni ham chetlab o‘tayotgani yo‘q.

Biz, avvalo, xalqimizni, shuningdek, iqtisodiyotimizni bu inqirozdan eson-omon olib o‘tish uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rmoqdamiz. Lekin bu xalqaro muammo qancha davom etishini hech kim aniq bashorat qila olmayapti. Butun dunyo kasallikka qarshi kurash barobarida aholini boqish, ish joylarini saqlab qolish va iqtisodiyot keskin tanazzulga uchramasligi uchun bor sa‘y-harakatlarni amalga oshirmoqda.

Biz ham bu borada har kuni, har soatda izlanishdamiz.

Albatta, xalqimizni boqish uchun ham, iqtisodiyotimizni qo‘llab-quvvatlash uchun ham bizning zaxiralarimiz va imkoniyatlarimiz yetarli. Hech qanday xavotirga o‘rin yo‘q.

Shubhasiz, aholini rag‘batlantirish uchun pul tarqatishdan oson yo‘l yo‘q. Lekin ertaga buning oqibati nimalarga olib kelishini hali biror-bir iqtisodchi bashorat qila olmayapti. Bu borada korrupsiya illati avj olish ehtimoli ham yuqori.

Shuning uchun biz xalqimizning tarixiy va ma‘naviy qadriyatlarini, jumladan, mehr-saxovat, oqibat va himmat, o‘zgalarga hamisha yordam qo‘lini cho‘zish, topganini boshqalar bilan baham ko‘rish kabi yuksak fazilatlarini inobatga olgan holda, **“Saxovat va ko‘mak”** umumxalq harakatini e‘lon

qilsak, o'ylanmanki, butun xalqimiz bu tashabbusni qo'llab-quvvatlaydi.

Xabaringiz bor, sanoqli kunlarda barchamiz uchun muqaddas bo'lgan Ramazon oyi ham kirib keladi. Ushbu oyda fuqarolarimiz ehtiyojmand va muhtoj oilalarga yordam ko'rsatishlari ham qarz, ham farzdir. Shuning uchun ushbu muqaddas oyda har bir tadbirkor o'ziga xolis majburiyat olgan holda, o'zi faoliyat yuritayotgan hududda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini faol qo'llab-quvvatlashi bo'yicha taklif kiritmoqchiman.

Ya'ni Ramazon oyida va keyingi uch oyda amalga oshiriladigan ehsonlarimiz va xayriyalarni manzilli qilaylik, iftorliklarga sarflanadigan mablag'lar va oziq-ovqatlarni muhtojlarga yo'naltiraylik.

Imkoniyatidan kelib chiqib, qaysidir tadbirkor bir oyda 10 ta, boshqa biri esa 20 ta oilaning ro'z-g'origa ko'maklashishi mumkin. Shuningdek, tadbirkorlar muhtoj oilalar a'zolarini ishga jalb qilishi ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'z navbatida, davlat tomonidan shunday tadbirkorlarga bergan yordamlari uchun turli kompensatsiyalar qo'llash yo'llari ishlab chiqiladi.

Misol uchun, 10 ta oilaga ko'maklashgan tadbirkorga tegishli bank tomonidan kredit bo'yicha to'lovlar qo'shimcha ma'

lum muddatga cho'zib beriladi. To'lanadigan soliq miqdorining ma'lum bir foizi bo'yicha qo'shimcha "ta'til" berilishi mumkin.

Agar yordam beruvchi inson fermer bo'lsa, qishloq xo'jaligi texnikasini lizing yoki kreditga sotib olsa, uning ham to'lov muddatlarini yana uzaytiramiz. O'g'itlar va yoqilg'i sotib olishda ham imtiyozlar taqdim etiladi.

Xuddi shunday, agar tadbirkor 20 ta oilaga yordam ko'rsatsa, beriladigan imtiyozlar hajmi va muddatlari ham kattaroq bo'ladi. Ushbu jarayonda yirik korxonalar ham chetda qolmasligi kerak. Ularning joylardagi tarkibiy bo'linmalari ham faol qatnashishi lozim. Bu jarayon byurokratiya va hech qanday to'sqinliksiz joylarda sifatli tashkil etilishi shart. Ya'ni barcha ishlar tuman hokimi va sektor rahbarlari tomonidan to'liq tashkil etilishi zarur.

Barcha darajadagi hokimlar, sektor rahbarlari joylardagi Savdo-sanoat palatasi bo'limlari, banklar, ijtimoiy muhofaza qilish idoralari bilan birgalikda bir hafta muddatda ushbu tashabbusni amalga oshirish uchun tadbirkorlar bilan yaqindan ishlashni boshlasin.

Birorta tadbirkor yoki fermerni majburlamaymiz. Ularga og'irlik tushmasin. Ularga kredit ta'tili beriladi. Kerak bo'lsa, foizsiz. Yoqilg'ini, o'g'itni 15 foiz arzon qilib beramiz. Bankdan olgan

kreditining muddatini cho'zib beramiz. U muruvvat ham qiladi, shu bilan birga, ulug' ayyom kunlarida Xudoning oldida ham bag'rikeng bo'lib, yuzi yorug' bo'ladi. Lekin hamma xarajatni, hamma mas'uliyatni davlat o'z zimmasiga oladi. Tadbirkor qiynalgan oilalarga yordam berib, davlatimizga yordam beradi. Ular kam ta'minlangan, muhtoj oilalarga yordam bersa, davlat ularga boshqa taraflama ko'maklashadi.

Qiynalgan va muhtoj oilalarning bittama-bitta ro'yxatini qilib, ularga moddiy yordam beribgina qolmasdan, kelajakda ularni ish bilan ham ta'minlaydi. Asosiysi shu. Ularni oylik bilan ta'minlaydi.

Har bir odam davlatimiz ko'magini sezishi kerak. Tadbirkor yoki fermer qancha ko'proq oilaga ko'mak bersa, davlatdan shuncha ko'proq imtiyoz va yordam oladi. Bu ishlarni korrupsiyasiz, har bir inson "bu mening eng mehribon vatandoshim, qo'shnim, qarindoshim", deb qilishi kerak. Mehr bilan qilishi kerak. Hamma narsani davlat bo'yniga oladi.

"Saxovat va ko'mak" umumxalq harakatiga hissa qo'shganlarga hali alohida qarorlar bo'ladi, ularga minnatdorchilik, katta-katta mukofotlar bo'ladi.

Bizning xalqimiz juda bag'rikeng. Mana shu jarayonda xalqimiz jipsligini namoyon etib, ularning qaddini yanada ko'ta-

rib olishimiz kerak. Bu harakatga yordam bergan odamlar aslida el-u yurtida ham barakali bo'lib, xalqimiz orasida obro' topadi.

"Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati a'zolari haqida, ularning qilgan yaxshiliklari haqida har kuni gazeta, televideniye, radioda, internetda xalqimiz nomidan minnatdorchiliklar, materiallar e'lon qilib boriladi. Shoirilar she'rlar yozadi. Kitoblar yoziladi. Mana shunday og'ir kunlarda "Saxovat va ko'mak" harakatiga hissa qo'shgan barchani – shifokorlarni ham, saxovat ko'rsatgan bag'rikeng tadbirkorlarimizni ham, klasterlar, fermerlarimizni ham, katta-katta korxonalarini ham batafsil yozamiz. Xalqimiz o'z qahramonlari haqida bilishi kerak. Bu tarixda qoladi.

Bugun biz ko'rinmas dushman bilan kurashayapmiz. Bu virus – bu dushman bizdan o'n karra aqlli va vajohatli. Bu inson umri bilan bog'liq bo'lgan hayot-mamot jangi, desak, bu ham haqiqat bo'ladi. Bu xuddi Ikkinchi jahon urushidagidek urush, jang. Bunday hodisa qachon bo'lgan? Hech qachon bo'lmagan.

Koronavirus pandemiyasi ta'sirini yumshatish, aholi bandligini ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish borasida katta imkoniyatlarga ega bo'lgan "drayver" sohalardan biri – bu qurilish tarmog'i hisoblanadi.

Qurilish sohasi ko'plab sanoat tarmoqlari uchun ham talab yaratadi. Shuningdek, bu soha 1 million 375 ming nafar aholini ish bilan band qilishni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, koronavirus pandemiyasi sababli qaytib kelib, uyida o'tirgan 500 ming nafardan ziyod mehnat migrantlarini ham ish bilan ta'minlash zarurati mavjud. Shu sababli karantin davrida qurilish hajmi kamayishiga mutlaqo yo'l qo'ymaslik maqsadida, qurilish sohasiga qo'shimcha 3,3 trillion so'm mablag' ajratdik.

Karantin qoidalariga to'liq rioya qilgan holda, barcha qurilishlarni davom ettirishga ruxsat beriladi, qurilish korxonalari va

qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilarning obyektlarga borishi uchun to'siqsiz harakatlanishiga sharoit yaratiladi.

Umuman olganda, uy-joy qurilishi bo'ladimi yoki infratuzilma obyektlari bo'ladimi, qurilish sohasi – bu yangi ish o'rinlarini yaratish, bozorda talab va taklifni shakllantirish, pirovardida iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun katta imkoniyat va zaxira hisoblanadi.

Tarmoq rahbarlari o'zlariga yuklatilgan mas'uliyatni chuqur his etib, ishlarni to'g'ri tashkil etsalar, albatta, iqtisodiy inqirozdan imkon qadar kam yo'qotishlar bilan chiqib ketamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sanoat, qurilish va infratuzilma tarmoqlari korxonalarining to'liq ishlashini ta'minlash masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishidagi nutqidani.

2020-yil 20-aprel

YURTDOSHLARIMIZ YUKSAK MAS'ULIYAT VA MEHR-OQIBAT FAZILATLARINI NAMOYON ETMOQDA

Xabaringiz bor, 27-aprel kechasi Buxoro, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida tabiiy ofat yuz berib, kuchli shamol kuza-tildi. Men kecha Buxoro viloyatida bo'lib, yuzaga kelgan vaziyat bilan yaqindan tanishdim. Bu masala bo'yicha tuzilgan Respublika komissiyasi va joylardagi mas'ul mutasaddilar bilan birgalikda ushbu hududlarda amalga oshiriladigan barcha ishlarni batafsil muhokama qilib, tegishli choratadbirlarni belgilab oldik.

Mazkur viloyatlarda bir qator ijtimoiy soha obyektlari, tabiiy gaz va elektr tarmoqlariga, turar joy binolari va madaniy meros inshootlariga, shuningdek, qishloq xo'jaligi maydonlariga jiddiy talafot yetgan.

Shuni ta'kidlab aytmoqchiman-ki, davlatimiz, hukumatimiz tomonidan tabiiy ofatdan zarar ko'rgan tashkilot va xo'jaliklarga, fuqarolarga yordam va ko'mak

berish bo'yicha barcha choratadbirlar o'z vaqtida amalga oshiriladi.

Takror aytaman, bironta ham yurtdoshimizni, bironta ham oilani ushbu kutilmagan falokat qarshisida yolg'iz qoldirmaymiz.

Endi epidemiologik vaziyat va pandemiyaga qarshi kurash bo'yicha ishlarga to'xtalsak.

Bugungi kunda mamlakatimiz bo'yicha ushbu kasallikka chalingan bemorlarning 55 foizdan ortig'i to'liq sog'ayganini alohida qayd etmoqchiman. Qolgan bemorlarni ham davolash yuzasidan, o'zimizda amaliy yordam berayotgan xitoylik, germaniyalik, koreyalik vrachlar hamda telemeditsina orqali boshqa yetakchi xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlik qilgan holda, barcha zarur choralar ko'rilmogda.

Mamlakatimiz tibbiyot xodimlarining bugungi kunda kasallikka

qarshi olib borayotgan mashaqqatli va o'ta mas'uliyatli mehnatini munosib qadrlash va rag'batlantirish uchun kuni kecha yana bir muhim qarorni imzoladim. Unga ko'ra, sanitariya-epidemiologiya xizmatining qariyb 11 mingga yaqin barcha toifadagi tibbiyot xodimlarining ish haqi 2,5 baravarga oshirildi.

Umuman, karantin qoidalarini o'z vaqtida joriy etganimiz va xalqimiz unga sabr-toqat bilan amal qilayotgani tufayli ko'plab tuman va shaharlarda infeksiya tarqalishiga yo'l qo'ymadik.

Qadrli yurtdoshlar!

Shu o'rinda ko'nglimdagi bir fikrni jamoatchiligimiz, xalqimizga ochiq aytmoqchiman.

Mana, bir yarim oydan oshdiki, el-yurtimiz "Uyda qoling" degan da'vatga amal qilib, yuksak jasorat ko'rsatib, yalpi karantin sharoitida yashamoqda. Oilam, bola-chaqam, deb tinib-tinchimaydigan, erta-yu kech g'ayrat bilan mehnat qiladigan xalqimiz uchun bunday majburiy holat, albatta, oson kechayotgani yo'q.

Yurtdoshlarimiz og'ir sinov kunlarida chinakam sabr-toqat va mas'uliyat, mehr-oqibat fazi-

latlarini namoyon etyapti. Buni jahon hamjamiyati ham tan olib, har tomonlama e'tirof etmoqda.

Fursatdan foydalanib, pandemiyaga qarshi kurashning oldingi saflarida chinakam qahramonlik ko'rsatayotgan barcha shifokorlarimizga, shu jumladan, tez yordam xizmati xodimlari va haydovchilariga alohida minnatdorchilik bildiraman.

Shu jarayonda o'zini ayamadan xizmat qilayotgan huquq-tartibot idoralari xodimlariga, mard va jasur harbiylarimizga, vazirlik va idoralar, hokimliklarning rahbarlari va xizmatchilariga, muhtaram nuroniylarimiz va mahalla faollariga, saxovatpesha tadbirkorlarimizga, olimlarimiz, o'qituvchi va domlalar, ijodkor ziyolilarimiz, imom-xatiblarimizga chin dildan rahmat aytaman.

Hozirgi murakkab sharoitda o'z professional burchini vijdonan bajarayotgan ommaviy axborot vositalari vakillariga, insonparvarlik namunasini ko'rsatib, ko'ngilli bo'lib volontorlik harakatida qatnashayotgan fidoyi yoshlarimizga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan katta minnatdorchilik bildiraman.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning pandemiya davrida aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlash va narx-navo barqarorligini saqlash masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishidagi nutqidan.

2020-yil 29-aprel

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OLIV MAJLISGA MUROJAATNOMASIDAN

Barchamiz yaxshi bilamizki, bugungi kunda butun insoniyat koronavirus pandemiyasi degan global ofatni boshidan o'tkazmoqda. Bunday ulkan falokat jahon miqyosida so'nggi yuz yilda ro'y bermagan, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Oxirgi ma'lumotlarga ko'ra, dunyoning 191 mamlakatida 81 million kishi koronavirus bilan kasallangan. Ulardan 1 million 765 ming nafari vafot etgan.

Pandemiya jahon iqtisodiyoti uchun – shunga e'tibor bering – har oyda qariyb 400 milliard dollar miqdorida zarar keltirmoqda. Bugungi kunga qadar dunyo bo'yicha 500 millionta ish o'rni yo'qotilgan.


Afsuski, bu ofat butun insoniyat qatori xalqimiz uchun ham kutilmagan tashvish va murakkab muammolarni keltirib chiqardi. Buxoro va Sardobada yuz bergan

tabiiy va texnogen ofatlar ham el-yurtimizning irodasini yana bir bor sinovdan o'tkazdi.

Xalqimizning bukilmaz irodasi, fidokorona mehnati va matonati, aholi va davlat organlarining birgalikdagi sa'y-harakatlari tufayli mavjud qiyinchiliklarni mardona yengib o'tmoqdamiz.

Xabaringiz bor, pandemiyaning birinchi kunlaridan boshlab butun boshqaruv tizimi va barcha tibbiyot muassasalari favqulodda ish rejimiga o'tkazildi.

Qisqa muddatda Toshkent shahri va hududlarda barcha sharoitlarga ega bo'lgan qariyb 30 ming o'rinli davolash maskanlari tashkil etildi. Ular zarur dori-darmon, himoya va eng zamonaviy diagnostika vositalari bilan ta'minlandi. Pandemiya qarshi kurashish uchun 200 mingdan ziyod tibbiyot



xodimi, jumladan, chet ellik 150 nafar yuqori malakali shifokor va mutaxassislar jalb etildi.

Xorijdan 600 mingdan ortiq vatandoshlarimiz yurtimizga olib kelindi. Chet elda qiyin ahvolga tushib qolgan 100 mingga yaqin fuqarolarimizga zarur yordamlar ko'rsatildi.

Pandemiya oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish uchun davlat tomonidan jami 82 trillion so'mlik kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, Inqirozga qarshi jamg'arma tashkil etilib, koronavirusga qarshi kurashish, aholi va korxonalarni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq tadbirlarga budjetdan 16 trillion so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi. Shuningdek, davlat

korxonalariga va 500 mingdan ziyod tadbirkorlik subyekti hamda qariyb 8 million fuqaroga jami 66 trillion so'mlik soliq imtiyozlari, kredit muddatlarini uzaytirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy yordamlar berildi.

"Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati doirasida fidoyi va oliyjanob vatandoshlarimizning faol ishtirokida 800 mingdan ziyod ehtiyojmand oilalarga 1 trillion so'mdan ortiq moddiy yordam ko'rsatildi.

O'z paytida ko'rilgan tezkor va tizimli choralarimiz natijasida ushbu xatarli kasallikning keng tarqalishiga yo'l qo'yilmadi. Yurtimizda osoyishta hayot, barqaror iqtisodiy rivojlanish davom etmoqda.

2020-yil 29-dekabr

**“O‘ZBEKISTON XALQINING
TURLI XAVF VA TAHDIDLARGA
QARSHI KURASHDAGI
BIRDAMLIGI TAHSINGA LOYIQ”**



2020-yilda dunyoni qamrab olgan koronavirus pandemiyasi jahon xalqlari doimo bir-biri bilan yelkadosh bo'lib yashashi lozimligi, bir ona zamin va bir osmon ostida umrguzaronlik qilayotgan bani bashariyat, davlati, millati, tili, dini va irqidan qat'i nazar, o'zaro hamjihatlik bilangina turli sinov va ofatlarga qarshi kurasha olishi va taraqqiy etishi mumkinligini isbotladi.

Sinovli kunlarda O'zbekistonda pandemiyaga qarshi kurashish bilan bir qatorda Buxoro va Sirdaryoda yuz bergan tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha ham keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirildi. O'z vaqtida olib borilgan oqilona sa'y-harakatlar natijasida koronavirus kasalligining salbiy oqibatlarini kamaytirishga erishildi hamda Sirdaryo va Buxoroda tez fursatlarda hayot oqimi o'z maromiga tushdi.

Yurtimizda amalga oshirilgan bunday insonparvarlik va xalqparvarlik siyosati dunyo afkor ommasi tomonidan alohida e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga dunyoning ko'plab xorijiy davlatlari rahbarlari va taniqli siyosatchilar tomonidan yo'llangan maktublarda va ular bilan bo'lgan telefon orqali muloqotlarda bu boradagi fikr-mulohazalar va munosabatlar, samimiy dil izhorlari bildirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin, Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an, Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo'mart To'qayev, Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Muhammad Ashraf G'ani hamda boshqa taniqli davlat va jamoat arboblari bilan o'tkazgan muloqotlarda koronavirus infeksiyasining tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, ushbu global xatarga qarshi hamkorlikda samarali kurashish, ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash borasida fikr almashdi.

Suhbatlarda hamda maktublarda koronavirus infeksiyasiga qarshi davom etayotgan kurashning eng murakkab davrida davlatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik, ko'rsatilayotgan o'zaro ko'mak va gumanitar yordamlar xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi qayd etildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida, Turkiy tilli davlatlar Hamkorlik kengashining koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashishga bag'ishlangan navbatdan tashqari videokonferensiya shaklidagi sammitida hamda O'zbekiston Respublikasi raisligida bo'lib o'tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Iqtisodiy kengashining 86-yig'ilishida ishtirok etib, ko'plab tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan BMTning 75-sessiyasida bildirilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Pandemiya davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari to'g'risidagi xalqaro kodeksni ishlab chiqish taklifi ko'plab siyosatchilar tomonidan iliq kutib olindi va qo'llab-quvvatlandi. Prezidentimizning pandemiya sharoitida o'zaro sa'y-harakatlarni birlashtirish, koronavirusning salbiy ta'sirini kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash borasidagi samarali ishlari dunyo jamoatchiligi tomonidan alohida e'tirof etildi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANOBI OLIYLARIGA

Janobi Oliylari!

Global miqyosda o‘t ochishni to‘xtatish bo‘yicha men e‘lon qilgan da‘vatni qo‘llab-quvvatlab maktub yo‘llaganingiz uchun Sizga samimiy minnatdorlik bildiraman. Ushbu da‘vat butun dunyo bo‘ylab davlat va hukumat rahbarlari, shuningdek, mintaqaviy sheriklar, fuqarolik jamiyati va diniy tashkilotlar rahbarlari tomonidan ijobiy qabul qilingani meni ruhlantirdi. Eng muhimi, ushbu da‘vatga bir qator o‘zaro nizolashayotgan tomonlar boshlang‘ich ijobiy munosabat bildirdi.

Mojarolardan turli darajada jabr ko‘rgan va pandemiya oldida yanada zaif bo‘lib qolganlar uchun men hali ham xavotirdaman, tinch aholi, ayniqsa, xotin-qizlar, bolalar va marginal guruhlarni himoya qilish uchun barchamiz mas‘ul ekanimizni hamisha ta‘kidlayman. Shu munosabat bilan Siz rahbarlik qilayotgan mamlakatning mintaqada jabr ko‘rgan davlatlarga, jumladan, Afg‘oniston Islom Respublikasiga insonparvarlik yordami ko‘rsatish borasidagi sa‘y-harakatlari uchun g‘oyat minnatdorman.

Sizning Hukumatingiz tomonidan O‘zbekiston Respublikasida virusning tarqalishini jilovlash, shuningdek, pandemiyaning ijtimoiy-iqtisodiy, jumladan, aholining eng ehtiyojmand qatlamlari uchun oqibatlarini yumshatish bo‘yicha ko‘rilgan qat‘iy choralarni yuksak baholayman. Hukumatingiz va rezident-koordinatör boshchiligida BMTning Mamlakat guruhi o‘rtasidagi hamkorlik yuqori darajada ekani meni ruhlantiradi.

BMT qarama-qarshi tomonlar ezgu niyatlari yoki o't ochishni vaqtincha to'xtatish to'g'risidagi bayonotlardan urushni yakunlashga, uzoq muddatli siyosiy yechimlar va barqaror tinchlikka erishishga o'tishiga ko'maklashish uchun barcha hukumat muassasalari va manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikni davom ettiradi. Siz sa'y-harakatlarimizni qo'llab-quvvatlashda davom etasiz, deb umid qilaman.

Shuningdek, Sirdaryo viloyatida to'g'on yorilgani to'g'risidagi xabarni chuqur qayg'u bilan qabul qilganimni ta'kidlashni istardim. Uning oqibatidagi suv toshqinidan jabrlangan O'zbekiston xalqi va qo'shni Qozog'iston xalqiga hamdardlik bildiraman. Muhtoj odamlarga yordam ko'rsatishda O'zbekiston va Qozog'iston hukumatlari yaqindan hamkorlik qilayotganini yuksak baholayman.

Janobi Oliylari, Sizga bo'lgan yuksak ehtiromimni qabul qilgaysiz.
Eng ezgu tilaklar bilan,

Antoniú GUTERRISH,
BMT Bosh kotibi.
2020-yil 12-may

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANOBI OLIYLARIGA

Janobi Oliylari!

2020-yil sentabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilgari surilgan Pandemiya davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari to‘g‘risidagi xalqaro kodeks loyihasini Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotiga (JSST) taqdim etganingiz uchun Sizga minnatdorlik bildirish sharafiga muyassarman.

“COVID-19” pandemiyasi butun dunyo bo‘ylab hamjamiyatlar va mamlakatlarga talafot yetkazishda davom etmoqda. O‘tkir xalqaro inqirozga duch kelib, men favqulodda global yetakchilik va birdamlikka, imkon qadar keng doiradagi sheriklarni birlashtirishga, ko‘p tomonlama sa‘y-harakatlarni ishga solish va hech kimning orqada qolib ketmasligini ta‘minlashga chaqirdim. Salkam bir yilda biz ilm-fan, vaktsinalarni ishlab chiqish, sog‘liqni saqlash amaliyotidagi misli ko‘rilmagan yutuqlar, jamoatchilikni safarbar qilish va siyosiy sobitqadamlik tufayli kuchli yetakchilikka erishishning imkoni borligini ko‘rdik.

Pandemiya sog‘liqni saqlash tizimlarimiz zaif ekanini ko‘rsatdi, tibbiy va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirdi hamda sog‘liqni saqlash iqtisodiy taraqqiyot va xavfsizlikda markaziy o‘rin egallashini namoyish etdi. Pandemiyaning nazoratga olib, tiklanishga investitsiya yo‘naltirayotgan ekanimiz, kelajakka ham tayyorgarlik ko‘rishimiz lozim. Bunday vaziyat yana takrorlanishiga yo‘l qo‘ya olmaymiz.

Janobi Oliylari, Xalqaro kodeks loyihasini ishlab chiqish masalasida uzoqni ko‘zlaganingiz va bu jarayonda yetakchilik qilganingiz uchun Sizdan minnatdorman. Biz hujjatni diqqat bilan o‘rganib chiqdik. Unda

qo'yilgan vazifalarning ko'lamini va taklif etilgan amaliy yechimlar mendan katta taassurot qoldirdi. Kodeks loyihasi taqdim etilgani o'z vaqtida qabul qilingan qaror bo'ldi.

O'tgan yili biz pandemiyadan ko'p saboq chiqardik va endilikda kelajakka nazar tashlashimiz kerak. Jahon sog'liqni saqlash assambleyasining "COVID-19"ga qarshi choralari bo'yicha WHA73.1 rezolutsiyasiga muvofiq men 2020-yil sentabr oyida ish boshlagan Xalqaro tibbiy-sanitariya qoidalarining (2005-yil) amal qilishini o'rganish Qo'mitasini chaqirdim hamda Pandemiya shaylikni ta'minlash va javob choralarini bo'yicha Mustaqil guruhni ta'asis etdim.

Bundan tashqari, a'zo davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan jarayon doirasida Xalqaro tibbiy-sanitariya qoidalariga qo'shimchalar kiritish maqsadida pandemiya shaylik va javob choralarini to'g'risida global hadli konvensiyani ishlab chiqish imkoniyati yuzasidan munozaralar davom etmoqda. Mazkur masala 2021-yil 18-mart kuni o'tgan JSSTning tashkilotga a'zo davlatlar uchun mo'ljallangan axborot sessiyasida muhokama qilindi, bu ko'plab mamlakatlarda qiziqish uyg'otdi va keyingi muhokamalar uchun qadam bo'lib xizmat qildi.

Barchaning xavfsiz kelajagiga sarmoya kiritish, barqaror va ishonchli sog'liqni saqlash tizimlarini barpo etish hamda sog'liqni saqlash sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday inqirozlarga shay turishga tayyorgarlik ko'rish vaqti keldi. Janobi Oliylari, siyosiy yetakchiligingiz tufayli Sizning bu boradagi ishtirokingiz hal qiluvchi ahamiyatga ega. Siz taqdim etgan Xalqaro kodeks loyihasi pandemiya o'rganish bo'yicha amaldagi jarayonlarga va pandemiya qarshi kurashish bo'yicha har qanday bo'lajak xalqaro hujjatni rejalashtirishga bevosita bog'liq. Siz ushbu sa'y-harakatlarda shaxsan ishtirok etishda davom etishingizga umid qilaman.

Janobi Oliylari, "COVID-19" pandemiyasining oldini olish va barchaning sog'lom va xavfsiz kelajagini ta'minlash ishiga sodiqligingiz uchun Sizga yana bir bor tashakkur bildiraman. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti jamoat salomatligi sohasidagi ushbu global favqulodda vaziyatda Siz bilan hamjihatdir.

Janobi Oliylari, Sizga bo'lgan yuksak hurmat-ehtiromimni qabul qilgaysiz.

Eng ezgu tilaklar va minnatdorlik bilan,

Doktor Tedros Adanom GEBREYESUS,
Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bosh direktori.
2021-yil 27-mart

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANOBI OLIYLARIGA

Muhtaram Prezident Janoblari!

Sizga va 2020-yil 1-may kuni Sardoba suv omborining to‘g‘oni qisman qulashi oqibatida jabrlanganlarga hamdardlik bildiraman. Suv ostida qolgan uylar, ko‘chirilgan aholi, vayron bo‘lgan yo‘llar va fermer xo‘jaliklari tasvirlarini ko‘rish qalbni larzaga soladi.

Shaxsiy e‘tibor va tezkor choralar ko‘rish orqali Siz liderlik xususiyatlarini namoyish etdingiz. Davlat departamenti va AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi ham ushbu fojiga javoban darhol chora ko‘rdilar va ko‘mak ko‘rsatishga qaratilgan sa‘y-harakatlarimiz uchun mablag‘ ajratdilar.

Amerika Qo‘shma Shtatlari ushbu mushkul paytda O‘zbekiston va uning xalqiga yelkadoshdir.

Shu bilan birga, koronavirusga qarshi kurashda birgalikda ish olib borar ekanmiz, ushbu mudhish pandemiyaga qarshi chora-tadbirlar uchun yordam bo‘yicha so‘rovingiz tez fursatlarda ko‘rib chiqilishini ta‘minlash uchun ma‘muriyatimga ko‘rsatma berdim.

Hurmat bilan,

Donald TRAMP,

Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti.

2020-yil 10-iyun

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANOBI OLIYLARIGA

Muhtaram Prezident Janoblari!

“COVID-19” pandemiyasining salbiy oqibatlarini butun dunyo hamjamiyatiga ta'sir qilayotgan bugungi favqulodda sharoitda men mamlakatingizdagi qiyinchilik va xatarlarni yengib o'tishda O'zbekiston xalqi bilan birdam ekanimni bildirmoqchiman. Virus tarqalishiga qarshi kurashish, sog'liqni saqlash sohasiga yo'naltirilgan xarajatlarni oshirish, aholi va biznesni qo'llab-quvvatlash borasida Siz tomondan ko'rilgan tezkor chora-tadbirlar inqiroz ta'sirini yumshatishga xizmat qiladi.

Xalqaro valuta jamg'armasining Ijroiya kengashi joriy haftada ushbu g'oyat mushkul vaziyatda O'zbekistonga moliyaviy ko'mak taqdim etishni ma'qullaganidan mamnunman. Ushbu yordam Jahon banki guruhi va Osiyo taraqqiyot bankining ko'magi bilan birgalikda hozirgi sharoitda yuzaga kelgan moliyaviy ehtiyojlarni qondirish imkonini beradi.

Bugungi kunda Sizning butun sa'y-harakatingiz, tabiiyki, koronavirus oqibatlarini yengib o'tishga qaratilgan. Shunga qaramay, ayni paytda O'zbekistonda faol va ochiq bozor iqtisodiyotini shakllantirish bo'yicha o'rta muddatli maqsadlarga erishish yo'lidagi islohotlaringizni davom ettirayotganingiz meni ruhlantiradi.

Keyingi uch yil davomida Sizning rahbarligingizda O'zbekistonda keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, savdoni, narx shakllanishi va valuta ayirboshlash kursini liberallashtirish, davlat moliyasi hamda uni boshqarishdagi salohiyatni mustahkamlash,

moliya sektori va ishbilarmonlik muhitini isloh qilish bo'yicha misli ko'rilgan yangilanishlar boshlandi.

Ushbu islohotlar O'zbekistonning mintaqaviy va global iqtisodiyotga yanada integratsiyalashuviga, bundan ham yuksak, barqaror va inklyuziv taraqqiyotga erishishiga xizmat qiladi.

Bugungi sharoitda islohotlarni amalga oshirish yo'lida mavjud barcha xatarlarga qaramay, siz iqtisodiyotni transformatsiya qilish bo'yicha siyosatingizni qat'iy davom ettirishingizga ishonaman.

Shu munosabat bilan ishontirib aytamanki, keyingi yillarda O'zbekiston va XVJ o'rtasida erishilgan yuqori darajadagi hamkorlikka tayangan holda zarur maslahat va texnik ko'makni taqdim etish, mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ta'lim dasturlarini amalga oshirish hamda moliyaviy yordam orqali O'zbekistonni qo'llab-quvvatlashni davom ettirishga tayyormiz.

Men Jahon bankining ijrochi direktori bo'lgan davrdagi hamkorligimizni va shu asnoda Toshkentga tashrifimni iliqlik bilan eslayman. Mening bugungi kundagi vazifamda ham yaqindan hamkorlik qilishimizga umid qilaman.

Eng ezgu tilaklar bilan,

Kristalina GEORGIYEVA,
Xalqaro valuta jamg'armasi
boshqaruvchi direktori.
2020-yil 20-may

O‘ZBEKISTON OG‘IR DAMLARDA BIRDAMLIKNI NAMOYISH ETMOQDA

Hurmatli O‘zbekiston ahli, insoniyat 100 kundan buyon koronavirus infeksiyasi bilan kurashmoqda. Bugungi kunda Yevropa mintaqasi, AQSH pandemiya o‘chog‘iga aylanib ulgurdi va bizda tashvishlanish uchun jiddiy asoslar saqlanib qolmoqda.

JSSTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi barcha milliy tashkilotlar va muassasalar bilan yaqin hamkorlikda ishlamoqda. Xususan, mamlakingiz Sog‘liqni saqlash vazirligi bizning asosiy hamkorimizdir.

Dunyoning deyarli barcha mamlakatlari kabi O‘zbekiston uchun ham laboratoriya reaktivlari, dori-darmon vositalari, tibbiy buyumlar va shaxsiy himoya vositalari, bemorlarga g‘amxo‘rlik qiladigan tibbiyot xodimlariga talab bor. Ushbu ehtiyojlarni qondirish maqsadida JSST O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimiga yordam berishni davom ettiradi.

Biz Prezident Shavkat Mirziyoyevning xalqaro yordamni jalb qilish va bu borada JSST vakolatini kengaytirish bo‘yicha takliflarini qo‘llab-quvvatlaymiz. “COVID-19” pandemiyasi chegara bilmaydi, u dunyoning barcha mamlakatlarini qamrab oldi.

Og‘ir vaziyatga qaramay, O‘zbekiston birdamlikni namoyish etmoqda. Xitoy, Afg‘oniston, Eron, Qirg‘iziston, Tojikiston, Vengriya, Belarus, Rossiya, Ozarbayjonga insonparvarlik yordamini ko‘rsatib, ularni qo‘llab-quvvatladi. Ishonchim komilki, ular buni minnatdorlik bilan eslashadi.

Ushbu og‘ir davrda Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining onlayn tarzda tashkil qilingan navbatdan tashqari sammitida faol ishtirok etdi. Uning faoliyati natijalari bilan

faxrlanish mumkin – O‘zbekistonning barcha takliflari ushbu forumning yakuniy hujjatida o‘z aksini topdi.

JSST, o‘z navbatida, O‘zbekistonning ushbu mintaqaviy tashkilot bilan hamkorlikni o‘rnatish taklifini yuqori baholaydi.

O‘zbekiston tomonidan ko‘rilayotgan choralar infeksiyani to‘xtatishga imkon berishiga umid qilamiz. Ammo bir zum bo‘lsa-da, xotirjamlikka berilishga haqqimiz yo‘q. Biz chekinmasligimiz kerak.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti vaziyatni diqqat bilan kuzatib bormoqda va dunyoda pandemiya rivojlanishiga qarshi kurashmoqda.

Asosiy vazifalardan yana biri tibbiyot xodimlarini himoya qilishdir. Zero, tibbiyot xodimlari sog‘liqni saqlash tizimining asosi bo‘lib, ularning kuchi har doim ahamiyatli.

Global pandemiya hamma uchun umumiy xavfga aylandi. Shuning uchun uni faqat birgalikdagi harakatlar bilan bartaraf etish mumkin.

Men bu kurashda o‘zbek xalqiga va barchamizga zafarlar tilab qolaman. Ishonchim komilki, biz muammoni birgalikda yenga olamiz.

Xans KLUGYE,
Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining
Yevropa mintaqaviy byurosi direktori.
2020-yil 30-aprel

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANOBI OLIYLARIGA

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Bolaligim va yoshlik yillarim o‘tgan ona yurtimdagi aka-ukalarim va opa-singillarim bilan hozirgi epidemiologik qiyinchiliklarga sherik bo‘lar ekanman, Sardoba suv omborida sodir bo‘lgan fojia haqidagi xabarni, shuningdek, uni odamlarimiz munosib va mardona qabul qilganligini qalbimda og‘riq bilan his qildim.

Muqaddas Ramazon oyida Allohning o‘zi meni Vatanimga chorladi, zero, bu kunlarda biz yordamga muhtoj odamlarga alohida g‘amxo‘rlik qilishimiz va ko‘mak berishimiz kerak. Biz quvonchli damlarda ham, boshga g‘am-tashvish tushganda ham bir-birimizni yelkama-yelka turib qo‘llab-quvvatlaymiz. Men xalqimizning taqdiriga befarq qarab tura olmayman va shu sababli suv toshqinidan jabrlanganlar turmushini tiklash va yaxshilash, talafot oqibatlarini tezkorlik bilan bartaraf etishga yordam ko‘rsatish uchun 10 million dollar ajratishga qaror qildim.

Men xalqimizning duolariga qo‘shilib, ularning boshiga tushgan kutilmagan sinovlardan tezroq xalos qilishini Allohdan so‘rab qolaman.

Hurmat bilan,

Alisher USMONOV
2020-yil 8-may

O‘ZBEKISTON XALQINING TURLI XAVF VA TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDAGI BIRDAMLIGI

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va o‘zgarishlar xorijiy ekspertlar diqqat markazida bo‘lib turibdi. Xususan, Isroil ijtimoiy-siyosiy doira vakillari mamlakatimizning zamona-viy rivojlanishini yuksak baholamoqda.

Quddusdagi Yahudiylar universitetining Osiyo va Afrika tadqiqotlari instituti o‘qituvchisi Vladimir Mesamed O‘zbekiston rivojlanishining 2020-yildagi asosiy ustuvor jihatlari haqida, jumladan, bunday dedi:

– O‘zbekistonda ko‘plab sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Prezidenti 2020-yilda ilm-fan, ta‘lim va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e‘tibor berishini ta’kidladi. Buni mantiqiy jihat-

dan juda to‘g‘ri deb hisoblayman. Mamlakat bosqichma-bosqich yangi darajaga ko‘tarilmoqda. 2019-yilda amalga oshirilgan islohotlar G‘arb iqtisodchilariga O‘zbekistonni “Yil mamlakati” sifatida e‘tirof etishi uchun asos bo‘ldi.

Ishonchli moliyalashtirilgan dastlabki ikkita yo‘nalish xalqaro standartlarga javob beradigan ko‘p bosqichli ta‘lim tizimini yaratadi. Isroil tomoni O‘zbekiston bilan o‘z tajribasini bo‘lishishga, shu jumladan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha hamkorlikka tayyor. Ushbu sohada bizda katta tajriba va ishlanmalar mavjud.

Isroil yuqori texnologiyali mamlakat sifatida O‘zbekiston Respublikasi uchun haqiqiy tajri-

ba va salohiyatli hamkorga aylinishi mumkin.

Albatta, bugungi kunda barcha davlatlar qiyin davrni boshdan kechirmoqda. Koronavirus pandemiyasi yana bir bor dunyomizning qanchalik nozikligi, unda hamma narsa bir-biri bilan bog'liqligi, biz shunchaki bir-birimizni ushlab turishimiz, bir-birimizga yordam berishimiz va bir-birimizdan o'rganishimiz kerakligini ko'rsatdi.

O'zbekiston rahbariyati ushbu inqirozning mamlakat iqtisodiyoti va aholi ijtimoiy hayotiga yetkazadigan ta'sirini kamaytirish borasida yangi tashabbuslar bilan chiqayotgani hamda samarali kurash olib borayotganidan mamnunmiz.

Mamlakatda xalqaro ilg'or tajribalar faol ravishda qo'llanilmoqda. Bu tushunarli, chunki pandemiya global hodisadir, demak, biz unga qarshi birgalikda kurashishimiz kerak. Bu odatiy hayotga qaytishning yagona yo'lidir.

"Ibn Sino-Isroil" jamg'armasi prezidenti, professor Maykl Sox, o'z navbatida, O'zbekistonda "COVID-19"ga qarshi kurashda ishtirok etadigan tibbiyot xodimlariga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordamni alohida ta'kidladi.

– Ko'rilgan choralar va O'zbekistonda malakali shifokorlar sa'y-harakatlari tufayli koronavirusdan davolanganlar soni kasallikka chalinganlarga nisbatan ko'paydi, – dedi u. – Shunisi quvonarliki, O'zbekiston bu davrdan tez va jiddiy yo'qotishlarsiz o'tmoqda. Bemorlarga tezroq sog'ayib, o'z oilalariga qaytishlarini tilayman.

Isroildagi Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlari instituti direktori Aleksandr Zinker koronavirus pandemiyasi davrida O'zbekiston rahbariyatining faoliyatini alohida qayd etdi.

– O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev chet elda islohotchi sifatida tanilgan. U Prezident etib saylanganidan beri iqtisodiyotni, davlatni va fuqarolik jamiyatini erkinlashtirishga harakat qilmoqda.

Biz respublikaning pragmatizmga va zamonaviy voqealar hamda milliy manfaatlaridan kelib chiqib, yangi tashqi iqtisodiy aloqalarni qanday qurayotganiga guvoh bo'lyapmiz.

O'zbekiston rahbariyati o'zining milliy ustuvorliklarini hisobga olgan holda, tashqi iqtisodiy aloqalarni faol diversifikatsiya qilish orqali iqtisodiy xavfsizlikni

ta'minlash bo'yicha aniq strategiyani ishlab chiqdi.

Masalan, infeksiya keng tarqalishining oldini olish, uning iqtisodiyotga salbiy ta'sirini kamaytirish va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan qarorlar ishlab chiqilib, qabul qilindi.

O'zbek xalqining o'z yetakchisiga bo'lgan samimiy ishonchi, mamlakatni yanada rivojlantirish va ravnaq toptirish yo'lida xavfli tahdidga qarshi kurashda bir-damligi tahsinga loyiqdir.

“Dunyo” Axborot agentligi

Tel-Aviv.

2020-yil 19-may

HAQIQIY DO‘ST OG‘IR KUNDA BILINADI

Mamlakatlarimiz madaniyatida shunday umumiy tushuncha bor: haqiqiy do‘st boshga og‘ir kun tushganda, g‘am-u shodliklarda birga bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining mamlakatimizga ana shunday og‘ir damlarda birinchilardan bo‘lib insonparvarlik yordamini jo‘natgani tahsinga loyiq. Bu saxovat insoniyatning eng qadimiy bayramlaridan biri bo‘lmish Navro‘z ayyomi arafasida amalga oshganida ham chuqur ma‘no mujassam.

Eron Islom Respublikasi hukumati va xalqimiz nomidan O‘zbekiston hukumati va do‘st, birodar xalqiga, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga yurtimizga ko‘rsatilgan insonparvarlik yordami uchun minnatdorlik bildiramiz.

Umid qilamizki, dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan global muammoni bartaraf etish yo‘lidagi sa‘y-harakatlarimiz, albatta, o‘z natijasini beradi.

Hamid NAYYIROBODIY,
*Eron Islom Respublikasining
O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor
elchisi.*
2020-yil 17-mart

JANUBIY KOREYALIK EKSPERT: “O‘ZBEKISTON “COVID-19”GA QARSHI KURASHDA IJOBIY NATIJALARGA ERISHMOQDA”



Seuldagi Koryo universiteti-ning professori, ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligida “COVID-19”ga qarshi kurashish bo‘yicha ekspert-maslahatchi lavozimida faoliyat yuritayotgan Soy Chje Uk O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga murojaat yo‘lladi.

Soy Chje Uk o‘z maktubida O‘zbekiston Respublikasi va

Koreya Respublikasi o‘rtasidagi hamkorlikni yuksak qadrlashini bildirib, Prezidentimizga Birlashgan Millatlar Tashkilotining sobiq Bosh kotibi Pan Gi Munning samimiy tabriklarini yetkazgan.

O‘z navbatida, Janubiy koreyalik professor O‘zbekistonning “COVID-19”ga qarshi kurashda ulkan natijalarga erishayotganini alohida qayd etdi. Uning so‘zlariga ko‘ra, chetdan yuqumli kasallikning kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun chegaralar yopilgani, bemorlarni tashxislashda samarali usul qo‘llanilayotgani, ijtimoiy karantin dasturlari amalga oshirilayotgani, “o‘zini yakka-lash” bo‘yicha maxsus joylar tashkil etilgani hamda bemorlarni davolash uchun to‘rtta yangi shifoxonaning bunyod etilayotgani koronavirusga qarshi kurashishda ijobiy natijalarga erishishning muhim omili bo‘lyapti.

Soy Chje Ukning fikricha, hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham ushbu yuqumli kasallikning oldini olish hamda unga qarshi kurashishda O'zbekistondagi kabi samarali choralarni topish qiyin.

Soy Chje Uk ta'kidlaganidek, O'zbekistondagi raqamlarni boshqa mamlakatlarniki bilan solishtirganda, infeksiyani yuqtirganlar soni va o'lim darajasi ancha past.

Bunday yaxshi ko'rsatkichga samarali epidemiologik tekshirishlar, "o'zini yakkalash" va ijtimoiy karantin bo'yicha o'z vaqtida ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli erishildi. Bularning barchasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahnamoligida qabul qilingan tezkor va samarali qarorlar, shuningdek, infeksiya tarqalishining oldini olish hamda nazorat qilish bo'yicha olib borilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar natijasidir.

"Xalq so'zi".
2020-yil 1-may

KORONAVIRUSGA QARSHI KURASH GLOBAL HAMKORLIKNI TALAB QILADI

Amerika – O‘zbekiston savdo palatasi (AQSH) raisi Kerolin Lemm O‘zbekiston rahbariyati tomonidan mamlakatda koronavirus tarqalishining oldini olish bo‘yicha ko‘rilayotgan inqirozga qarshi choralarni yuqori baholadi.

– Savdo palatasi a‘zolari “COVID-19” pandemiyasiga qarshi kurashda O‘zbekiston xalqini qo‘llab-quvvatlaydi, – deydi u. – Yangi virusli infeksiya tufayli joriy qilingan cheklovlarga qaramay, biz gumanitar va tijorat yordamini ko‘rsatish orqali O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga ko‘maklashish ishlarini davom ettirmoqdamiz. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida aholi, xususiy kompaniyalar, xorijiy korxonalar va investorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha izchil chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

O‘zbekiston rahbariyatining iqtisodiyot va biznesni rag‘batlan-

tirish, ularga ko‘mak ko‘rsatishga qaratilgan harakatlari alohida e‘tiborga loyiqdir. Xususan, 1 milliard dollarlik Inqirozga qarshi kurashish jamg‘armasining tashkil qilinishi mamlakatning barcha sanoat, xizmat ko‘rsatish, savdo, transport va logistika turlarining barqaror ishlashini ta‘minlamogda. Shuningdek, mamlakatda “COVID-19” tarqalishiga qarshi kurashish uchun moliyalashtirish mexanizmi joriy etilib, turli dasturlar vositasida tadbirkorlik faoliyatiga ko‘mak berilmoqda hamda bandlik ta‘minlanmoqda. Bundan tashqari, jamg‘arma tijorat kreditlarini qaytarish uchun foizsiz budjet ssudalarini kiritish, tashqi savdo bilan shug‘ullanuvchi subyektlar tomonidan qilingan logistika xarajatlarini qisman qoplash orqali mahalliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Boshqa sohalarda bo'lgani kabi "COVID-19"ga qarshi kurashda O'zbekiston bilan muntazam muloqotni davom ettirish niyatidamiz.

Amerika – O'zbekiston savdo palatasi xalqaro pandemiyaga qarshi kurashishda O'zbekistonning mintaqaviy mavqeyi to'g'risida xalqaro moliya institutlarining xabardorligini oshirishni o'z zimmasiga olgan va shu maqsadda sheriklarimiz bilan turli tadbirlarni o'tkazish tashabbusini ilgari suryapmiz.

"COVID-19" ustidan g'alaba qozonish global hamkorlikni talab qiladi. O'zbekistonda pandemiyaga qarshi faol va qat'iyatli ravishda kurashayotgan, o'z xalqi, mahalliy kompaniyalar, xorijiy korxonalar hamda investorlarni himoya qiladigan do'stlarimiz bor.

O'zbekiston Respublikasining bunday izchil va dadil qadamlari bizning kompaniyalarimizga inqiroz davrida O'zbekistonda ishlashni davom ettirish, biznesning ishonchli va halol sherigi bo'lib qolishga katta ishonch uyg'otmoqda. Ishonch biznesdagi eng qimmatli "mahsulot"dir. Amerika – O'zbekiston savdo palatasi O'zbekistonga va uning pandemiyaga qarshi kurashish qobiliyatiga ishonadi.

Biz O'zbekistonning "COVID-19" bilan bog'liq vaziyatga tezkor javobini va biznesning yangi standartlarini o'z vaqtida qabul qilganini olqishlaymiz. Bu, shubhasiz, Amerika Qo'shma Shtatlari bilan O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

"Dunyo" AA.
Washington.
2020-yil 27-aprel

JAHON BANKI E'TIROFI: “O‘ZBEKISTON TA’LIMNI PANDEMIYA SHAROITIGA TEZDA MOSLASHTIRA OLDI”

O‘zbekistonning AQSHdagi elchixonasi ma’lumotlariga ko‘ra, 24-aprel kuni Jahon banki veb-saytida “O‘zbekiston: maktabni yopishda ta’limga o‘z vaqtida javob berish” sarlavhali maqola chop etildi. Material mualliflari – Jahon bankining Ta’lim sektori menejeri Garri Patrinos, katta o‘qituvchi Yanssen Teyxeyra va Jahon bankining Toshkentdagi vakolatxonasi ta’lim bo‘yicha mutaxassisi Nodira Meliboyeva.

Maqolada ta’kidlanishicha, O‘zbekiston hukumati kasallikning birinchi holati ro‘yxatga olingan kuni “COVID-19” tarqalishining oldini olish uchun barcha maktablarni yopishga qaror qilgan. Ikki kun o‘tgach, Ta’lim vazirligi karantin davrida 6,1 million o‘quvchi uchun masofaviy o‘qitishni joriy etish bo‘yicha misli ko‘rilmagan rejani e’lon qildi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, masofaviy ta’limga o‘tish holatida butun dunyo bo‘ylab talabalar, resurslar va elektron ta’lim imkoniyatlaridan teng foydalana olmaydi. Aslida, pandemik inqirozning bunday turi nomutanosib ravishda eng zaiflarga ta’sir qiladi, ularning aksariyati uzoq tumanlarda istiqomat qiladi va elektron qurilmalar yoki internetga ega emas, deyishadi Jahon bankining rasmiylari.

Mualliflarning fikriga ko‘ra, respublikada cheklangan internet qamrovi sharoitida televizion darslarning boshlanishi, bu – O‘zbekiston rasmiylarining an’anaviy o‘qitish usullarini vaqtincha to‘xtatib qo‘yilishiga eng to‘g‘ri javobidir, chunki raqamli eshittirish butun mamlakatni qamrab oladi va iste’molchilardan qo‘shimcha xarajatlar va yangi in-

fratuzilma yechimlarini talab qilmaydi.

Ta'kidlanishicha, bir necha kun ichida 350 dan ortiq videodarslar o'zbek, rus va imo-ishora tilida milliy telekanallarda namoyish etilib, materiallar vazirlikning ijtimoiy platformalarida, shu jumladan, You tube va Mover.uz videoxostlarida ham joylashtirildi.

Ta'lim vazirligining elektron manbalaridan bepul foydalanish imkoniyati yuqori baholanmoqda, bu esa, o'z navbatida, texnik bilimga ega bo'lgan barcha talabalar uchun onlayn ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada oshirdi.

Bugunga kelib, kuniga o'rtacha 100 ta videodars joylanmoqda, bu ta'lim dasturlarining pandemiya da uzluksiz o'tishini ta'minlaydi.

Xalqaro tashkilot vakillarining fikriga ko'ra, inqiroz davrida yaxshi ishlab chiqilgan onlayn dastur va favqulodda masofadan o'qitish o'rtasida farq bor. Ularning fikriga ko'ra, ko'plab mamlakatlarning noan'anaviy o'qitish turlarini joriy qilishdagi harakatlari koronavirus pandemiyasi ularga beradigan qimmatli tajribani saqlay olishi kerak.

Umuman olganda, Jahon banki mutaxassislari ta'kidlaganidek, O'zbekistonning favqulodda vaziyatga tezkor va ijodiy munosabati respublika hukumatining pandemiya vaqtida o'qishga yordam berishga qodir bo'lgan guruhlariga qo'shimcha yuklarsiz o'z vaqtida choralar ko'rish qobiliyatidan dalolat beradi.

YANGI O'ZBEKISTON



MOMOKO CHIBA

Tokiodagi Juntendo tibbiyot universiteti faxriy professori



KORONAVIRUSGA QARSHI KURASHISHDA O'ZBEKISTON TAJRIBASINI O'RGANISH VA QO'LLASHNI MASLAHAT BERAMAN

DUNYO NIGOHIDA

– Men koronavirusning dunyoga tarqalishi va O'zbekistonning unga qarshi ko'rayotgan qat'iy choralarini katta qiziqish bilan kuzatmoqdaman. Shunisi e'tiborga loyiqki, mamlakat rahbariyati vaziyatni boshidanoq nazoratga oldi. Buning samarasida O'zbekistonda koronavirus bilan kasallanganlar soni tez o'sishining oldi olindi.

O'zbekiston koronavirus talafotlarini o'z boshidan o'tkazgan Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarning tajribasini o'z vaqtida va samarali o'rganishga muvaffaq bo'ldi. Bu, o'z navbatida mazkur infeksiya bilan kurashishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

YANGI O'ZBEKISTON



Emmanuel ALEN KABANIS

Pariz tibbiyot akademiyasi faxriy prezidenti va akademigi



O'ZBEKISTON PANDEMIYA TA'SIRINI KAMAYTIRISH BO'YICHA QAT'IY CHORALARNI KO'RMOQDA

DUNYO NIGOHIDA

– O'zbekistonning 300 mingta tezkor test tizimi va 500 ta mexanik shamollatish moslamasini xarid qilishi, aholi punktlarida ko'chma laboratoriyalar tashkil etilishi, shuningdek, kunlik ishlab chiqarayotgan tibbiy niqoblar hajmining 5 million donaga yetkazilishi muammolarni hal qilishda aniq va tezkor yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Bularning barchasi O'zbekiston rahbarining fuqarolar xavfsizligi va sog'lig'ini ta'minlash masalalariga yuqori darajada e'tibor bilan va mas'uliyatli yondashayotganini yana bir bor tasdiqlaydi. Sog'liqni saqlash tizimini yangilashda davom etish va isloh qilish O'zbekistonni Markaziy Osiyoda o'ziga xos "tibbiy markaz"ga aylantirishga imkon berdi.

YANGI O'ZBEKISTON



Robert BLUM

Jeneva Diplomatik
doirasi prezidenti




O'ZBEKISTON PREZIDENTI ILGARI
SURGAN TASHABBUSLAR TARAQQIYOT VA
MUVAFFAQIYATLAR SARI YO'L OCHADI

DUNYO MUHOJIRI

– O'zbekiston hukumati qabul qilayotgan qaror va ko'rilayotgan choralar tufayli mamlakatda koronavirus bilan bog'liq vaziyat to'liq nazorat ostiga olingan. Ushbu sa'y-harakatlar aniq va o'z vaqtida amalga oshirilgan bo'lib, aholini tabiiy ofatlardan ishonchli himoya qilishga imkon beradi.

Mamlakat rahbari pandemiyaning salbiy ta'sirini yumshatish uchun infratuzilmani rivojlantirish dasturlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus inqirozga qarshi jamg'arma tashkil etishni e'lon qildi. Shuningdek, epidemiologik vaziyatni barqarorlashtirish uchun muhim dasturlar qabul qilindi. Bularning barchasiga katta kuch va mablag' yo'naltirilgan.

YANGI O'ZBEKISTON



Merit FOSS

Shveysariyadagi
"Diva International"
jurnali bosh muharriri



O'ZBEKISTON "COVID-19" TARQALGAN
MAMLAKATLARGA KO'MAK BERISH ORQALI
HAMJIHATLIK RUHINI QO'LLAB-QUVVATLAMOQDA

DUNYO MUHOJIRI

– O'zbekiston koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq muammolarni hal qilishda ilg'or harakat qilmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar hozirgi murakkab vaziyatni hal etishda kompleks yondashuvni namoyish etadi. Jumladan, aholining himoyaga muhtoj qatlamlariga tezkor ravishda bepul beriladigan manzilli yordam tizimi alohida e'tibor hamda yuqori bahoga loyiqdir. Shuningdek, O'zbekiston "COVID-19" ta'siriga tushgan mamlakatlarga insonparvarlik yordamini yuborish orqali hamkorlik va hamjihatlik ruhini qo'llab-quvvatlayotgani quvonarlidir.

SINOVLI KUNLAR NAFASI

1990 YIL
10 OY
10 KUN

KARANTINGA OLINGANLAR UCHUN SHIFOXONALAR QURILMOQDA

O'zbekistonga koronavirus ommaviy kirib kelishi va keng tarqalishining oldini olish maqsadida Respublika maxsus komissiyasi tuzilgan edi. 2020-yil 19-mart kuni Prezidentimizning "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni ham qabul qilindi.

Unga muvofiq, Moliya vazirligi huzurida 10 trillion so'm miqdoridagi Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasi tashkil etildi. Jamg'arma mablag'lari yuqumli kasalliklarni aniqlash, profilaktika qilish, davolash va boshqa muassasalarni qurish, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish, jihozlar bilan ta'minlashga sarflanadi.

Koronavirusga qarshi kurashish uchun ko'plab davlatlar tez

fursatlarda kasalxonalar qurmoqda va bu o'zini oqladi.

Ma'lumki, Prezidentimiz topshirig'i bilan hamyurtlarimiz koronavirus tarqalgan davlatlardan olib kelinmoqda. Ular belgilangan muddatda karantinda saqlanadi. Bu hamyurtlarimiz karantin davrida maxsus obyektlarda yashashi, agarda xavfli virus aniqlangan taqdirda davolanishi uchun qulay va barcha sharoitlarga ega shifoxonada davolanishi kerak.

Shu maqsadda Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanida karantin muassasasini bunyod etishga kirishildi. Bu maskanga xorijdan charter reyslari orqali olib kelinayotgan vatandoshlarimiz joylashtiriladi.

Ayni paytda kommunikatsiya tarmoqlari – gaz, suv, elektr liniyalari tortilmoqda. Tez ora-



da muassasaga xoriydan kelgan vatandoshlarimiz joylashtiriladi.

Bu yerda bemorlar uchun barcha sharoitlarni yaratishga hozirlik ko'rilmoqda. Muassasa konteynerlardan qurilmoqda. Konteynerlarning tom qismida maxsus izolyatsiya materiali o'rnatilgan bo'lib, u konteyner ichida zarur

mikroiqlimni yaratishga ko'mak beradi. Xonalarning har biri hojatxona, dush, issiq va sovuq suv, isitish, sovutish moslamalari hamda televizor bilan jihozlanadi. Har bir fuqaro 27 turdagi shaxsiy gigiyenik vosita bilan ta'minlanadi.

O'ZA.
2020-yil 26-mart



ZAMONAVIY SHIFOXONA ISH BOSHLADI

Koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish va uning og'ir salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun yurtimizda barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda. Ayniqsa, kasallikka chalinish xavfi bo'lgan kishilar uchun maxsus karantin hududlari qisqa muddatda ishga tushirildi. Kasallikni davolashga mo'ljallangan qator shifoxonalar qurilyapti. Xususan, Toshkent viloyati Zangiota tumanida barpo etilayotgan ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli yuqumli kasalliklar shifoxonasi ham bu borada olib borilayotgan ishlarning mevasidir.

Mazkur loyihaning umumiy qiymati 504 milliard so'm bo'lib, 33 gektar maydonda ikki ming o'ringa mo'ljallangan, bir qavatli to'rt blokdan iborat shifoxonadir. Har bir blokda 5 ta davolash korpusi, shu jumladan, 3 ta statsionar boks (bo'lim), 1 ta jonlantirish

bo'limi va 1 ta jarrohlik bo'limi mavjud.

Ayni kunlarda qurilish ishlari-ning birinchi bosqichi, ya'ni 16,5 gektar maydonda 1 000 o'ringa mo'ljallangan bir qavatli 18 ta blok qismi foydalanishga topshirildi.

Shifoxona kompleksi yengil konstruksiyali, izolyatsiya qilingan sendvich panellarni qo'llagan holda, energiya tejamkor texnologiyalar asosida qisqa muddatda qurildi.

Eng so'nggi zamonaviy tibbiy uskuna va jihozlar bilan ta'minlandi. Shifoxona yuqumli kasalliklar xususiyati va zamonaviy tibbiyot talablari asosida loyihalashtirildi.

Binolarning joylashuvi shundayki, tez yordam mashinasida kelgan bemor to'g'ridan-to'g'ri o'z palatasiga joylashtiriladi. Mashinalar chiqib ketayotgan-



... ..



da, albatta, dezinfeksiya qilinadi. Shuningdek, statsionar joylarning hammasi bokslangan, har bir xona avtonom. Biridagi havo boshqasiga o'tmaydi. Ularga kirib-chiqish ham, xizmat ko'rsatish ham alohida. Kasallar kelgach, qabul bo'limidan tambur orqali to'g'ridan-to'g'ri o'z palatasiga joylashtiriladi. Shifokor tamburga kirganidan so'ng toki tashqi eshik qulflanmaguncha bemor yotgan xonaning eshigi ochilmaydi. Qaytib chiqib ketish ham ayni shu tartib asosida.

Bundan tashqari, har bir eshik maxsus kod orqali ochilib-yopiladi. Bu esa nafaqat bemorlarning, balki tibbiyot xodimlarining ham o'rinsiz va bemavrid harakatlarning oldini oladi.

Shuningdek, barcha korpuslar, bo'linmalar toza va notoza yo'laklar bilan ajratilgan. Toza yo'lakdan faqat tibbiyot xodimlari o'z vazifasini bajarish uchun foydalanadi. Shifokorlar harakatlanish chog'ida sanitar o'tkazgichlar orqali o'tadi. Bu barchaning — tashxisi noaniq bo'lganlar, vrachlar va boshqa xizmatchilarning xavfsizligini ta'minlash imkonini beradi. Ahamiyatlisi, shifoxonada qog'oz shaklidagi tibbiy ish hujjatlaridan to'liq voz kechilib, ular raqamlashtirildi. Barcha ishlar "Elektron sog'liqni saqlash" tizimi orqali amalga oshiriladi.

Koronavirus xastaligi og'ir kechadigan bemorlarga xizmat

ko'rsatadigan 72 o'rinli reanimatsiya bo'limidagi har bir koyka o'pkaning sun'iy ventilyatsiyasi va davolash apparatlari bilan jihozlangan. Shu bilan birga, bu bo'limni bir vaqtning o'zida kardiologiya, nevrologiya, pediatriya kabi turli yo'nalishlar bo'yicha ham jihozlash mumkin. Qisqasi, bemor, xonadan-xonaga olib yurilmaydi.

Aksariyat mamlakatlarda toj-dor virus shifoxona ichidan tarqalishi hollari ham uchrab turibdi. Chunki infeksiya havo tomchilari, maishiy muloqot orqali yuqishi inobatga olinsa, fuqarolar karantin davrida yoki shifokorlarning ham ushbu kasallikka chalinishida binodagi havo almashtirish tizimi noto'g'ri o'rnatilgani, bemorlarning umumiy ovqatlanish, yuvinish joyi bitta bo'lgani sabab qilib ko'rsatilmoqda. Shu bois, mazkur shifoxonada har bir xonaning ventilyatsiya — havo aylanishi tizimi puxta o'ylandi. Havo har bir koykaning bosh tomonidan berilib, oyoq tomonidan so'rib olinadi. Buning natijasida doimiy sterillik ta'minlanadi.

Tizim orqali chiqarilgan havo ham shunchaki tarqab ketmaydi, balki barcha bakteriya va viruslardan tozalanadi. Hatto xonalarning pol qismi antibakterial qoplama bilan qoplangan. Xonalarga viruslarga qiron keltiradigan kvarts shishali lampalar o'rnatilgan. Har bir boksdan

bemorlarga ovqatlanish, yuvinish uchun sharoit yaratilgan. Ko'rpato'shak va matolar yuvilib, boshqa buyumlar bug' yordamida dezinfeksiya qilinadi. Umuman olganda, biror virus bu yerda yashab qololmaydi.

Maxsus shifoxona magnit rezonansli tomograf, raqamli rentgen apparati va zamonaviy UTT diagnostika qurilmasi hamda gemodializ bilan jihozlangan. Bundan tashqari, shifoxona murakkab epidemiologik vaziyat va favqulodda holatlarda zaruratga ko'ra, to'liq karantin muassasasi sifatida moslashtirilib, faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'ladi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, shifoxonada zamonaviy texnologiyalar orqali masofaviy tib-

biy ko'rik va konsiliumlar tashkil etish hamda davolashning ta'sirchan usullarini muhokama qilish uchun barcha imkoniyat yaratildi. Bu orqali zamonaviy teletibbiyot texnologiyalari asosida respublikamiz hududlarida ham yuqori sifatli tibbiy xizmatlar tashkil etiladi. Kelgusida tibbiyot oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'quvchilariga malaka oshirish uchun maxsus klinik baza platformasi sifatida xizmat qiladi.

Aytgancha, mazkur shifoxona hududida vertolyot qo'nishi uchun ham sharoit bor. Bu esa yaqin yillar ichida tibbiyot vertolyotlari ham yo'lga qo'yilishi rejalashtirilayotganidan darak beradi.

Abror UMARQULOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri.
2020-yil 7-iyul



Zangiota tumanida barpo etilgan ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli yuqumli kasalliklar shifoxonasi

NAJOT FARISHTALARI



Virusologiya ilmiy tekshirish instituti jonlantirish bo'limi davolovchi shifokori Zafar Meilyev bir necha yillardan buyon oilamizning qadrdon do'sti. O'z kasbining jonkuyari bo'lishi bilan birga, ko'p kitob o'qishi, Yer yuzi virusologlarining ilmiy tajribalari, bilimlarini tinimsiz o'rganayotgani bilan diqqatimni tortgan bu yosh shifokorni karantin boshlanishi bilan yo'qotib qo'ydim. Ammo doim xayolimda:

“Zafarjon ham o'sha “jang maydoni”da, boshqa qayerda ham bo'lar edi. Nima bo'lsa ham, sog'omon bo'lsin. Qashqadaryoda uning duoyi jonini qilib turgan keksa ota-onasi, uyda bolalariga: “Dadajoningiz navbatchilikda, kasallarni davolayapti. Bemorlarni tashlab kelolmaydi. Hade may barchasini davolaydi, keyin uyimizga qaytadi. Ungacha biz qo'llarimizni sovunlab yuvib, ko'chaga chiqmay dars qilishimiz kerak”, deya bolalarini ovutib turgan jufti haloli bor, deb o'yladim.

Karantin e'lon qilingandan uch kun o'tib Zafarjonga SMS yubordim:

“Bilaman, siz ham kecha-kunduz jonlantirish bo'limidasiz. Men siz va hamkasblaringizning fidoyiligingizga ishonaman. Qachon qo'lingiz biroz bo'sh bo'lganda “Hammasi yaxshi, xavotir olmanlar”, deb yozib qo'ysangiz bo'ldi”.

Roppa-rosa o'n bir kun deganda, ya'ni 2-aprel kuni SMSimga Zafarjondan javob keldi:

“Opajon, xavotir olmanglar. Mana, yuzimiz yorug' bo'lib ikkinchi guruh bemorlarni sog'-salomat kuzatyapmiz. Barchamiz bardammiz. Men oddiy shifokor bo'lib, xalqimning og'ir kunida joniga malham bo'layotganimdan roziman. Bu yerda har bir kun, har bir daqiqa g'animat. Chunki bir insonning aziz umrini saqlab qolish uchun ba'zan daqiqalar kifoya qilyapti.

Televizor orqali ko'rayotgan bo'lsangizlar kerak, Prezidentimiz biz shifokorlarni qanchalar ko'klarga ko'tarib: “Koronavirusga qarshi kurashda zarbani birinchi bo'lib shifokorlar qabul qilyapti”, dedi. Aslida biz tibbiyot ahli davlatimiz rahbarining g'amxo'rligidan kuch-quvvat olib turibmiz. Kecha-yu kunduz u kishining mehrini his qilib ishlayapmiz. Eng yangi tibbiy jihozlar, dori-darmonlar, tashxis apparatlari, testlar bilan ta'minlandik. Chet elning eng ilg'or tibbiyot xodimlari bilan videokonferensiyalar o'tkazmoqdamiz. Ular ham o'zbek shifokorlarining amaliyotlariga yuqori baho bermoqda. Qisqa vaqt ichida qurilayotgan yirik shifoxonalar ham, mamlakatda safarbar etilgan homiyliklar, bolalarimizning onlayn tizimda o'qiyotgani – hammasi tahsinga loyiq. Men shunday qudratli yurtning shifokori ekanimdan faxrlanaman.

Opa, endi biz haqimizda she'r yozsangiz bo'ladi. Har qalay, ko'zimizga tiqilib kelayotgan qumdek og'ir uyquni sidirib, tik oyoqda turaverib navbatchilikdan so'ng oyoqlar sirqirayotganini sezgan chog'larda shunday o'yladim. Biz bir oz mizg'ib, yana palatalarga chopamiz, ha, haqiqiy “jang maydoni”da hayot uchun, tirik qolish uchun kurash ketmoqda. Biz yengamiz. Yaxshi kunlarda ko'rishguncha!”

Oradan bir kun o'tib Zafarjondan yangi SMS oldim.

Unda: “Opa, biror nima yozadigan bo'lsangiz, quyidagi hamkasblarimning ismi-sharifini, albatta, qayd etsangiz, minnatdor bo'larдим. Ko'z o'ngimda ularning yuzlarida ajinlar ko'paydi, sochlarida oq paydo bo'ldi. Ularning barchasi qisqa vaqt ichida qanchadan-qancha bemorlarni Allohning yordami bilan “tojli ajdar” og'zidan qaytarib olmoqda. Bir lahza ham o'limga taslim bo'lishgani yo'q, to'xtovsiz jasorat ko'rsatishmoqda. Mana ular: Virusologiya ilmiy tekshirish instituti bosh shifokori Muhayyo Asilova, shu institut klinikasi jonlantirish bo'limi mudiri Xayrulla Fayzullayev, Toshkent shahar tez tibbiy yordam klinik shifoxonasi anesteziolog-reanimatologi Sanjarbek Otajonov, Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi shifokori, pulmonolog Xayrullo Rajabov, shahar tez tibbiy

yordam klinik shifoxonasi anesteziolog-reanimatologi Alisher Po'latovlar va boshqalar", deb yozibdi.

Zafar Meyliyevning hamkasblarining soni bugungi kunda 100 mingdan ziyod. Ular karantin

muddatini o'tayotganlarga xizmat qilayotganlar, ular dori-darmon ta'minotchilari, ular shoshilinch tez tibbiy yordam mashinalarida yeldek yugurib yurganlar.

Ular – najot farishtalari.

*Isitmalab yotgan bemor yonida,
"Ko'rinmas ajdar"ni yenging, mahv eting.
Biz uyda, siz esa "jang maydonida",
Bizlarni kechiring, bizni afv eting.*

*"Bir yutum havo", deb mo'ltirar ko'zlar,
Jonidan azobni bartaraf eting.
Ninaning uchida yurgan, azizlar,
Bizlarni kechiring, bizni afv eting.*

*Biz qachon yetibmiz izzatingizga,
Siz mulki ma'zurni dur, sadaf eting.
Qandayin qaraymiz ko'zlaringizga?!
Bizlarni kechiring, bizni afv eting.*

*Siz bardosh, siz najot farishtalari,
Yurtning bayramlarga musharraf eting.
Gul ko'tarib borsak huzuringizga,
Bizlarni kechiring, bizni afv eting.*

Zulfiya MO'MINOVA,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

2020-yil 24-aprel

“BEMORNING KO‘ZLARIDAGI ILTIJONI KO‘RIB, O‘ZIMNI QO‘LGA OLDIM...”

Yurtimizda koronavirus infeksiyasi taʼsirida yuzaga kelgan kasalliklardan shifo topib, yaqinlari bagʻriga qaytayotgan yurtdoshlarimiz soni kundan-kunga koʻpaymoqda. Bunda malakali va jonkuyar shifokorlar qatorida istarali, shirinsoʻz hamshira va kichik tibbiyot xodimlarining ham oʻz oʻrni bor.

Respublika Virusologiya ilmiy-tekshirish instituti klinikasida bemorlarni davolayotgan tibbiyot xodimlari navbatma-navbat oʻrin almashmoqda. Ular yuksak minnatdorlik va ehtirom bilan oʻn toʻrt kunlik izolyatsiyaga kuzatilmoqda. Bunday tibbiyot xodimlari orasida shahar 5-yuqumli kasalliklar klinik shifoxonasidan joʻnatilgan sakkiz nafar hamshira ham bor. Ular bor kuch va mahoratini ishga solib, bir-birini qoʻllab, bemorlarning sogʻayishiga oʻz hissalarini qoʻshdilar...

2020-yil 25-martning sokin kechasi. Hamshira Sharofat Dadaboyevaning qoʻl telefoni jiringladi. Unga shifoxona bosh hamshirasi ertalab soat sakkizda hamma zarur anjomlarini olib, tayyor boʻlib kelishini tayinlab, Virusologiya ilmiy-tekshirish instituti klinikasiga joʻnatilishini maʼlum qildi. Garchi yigirma bir yillik ish tajribasiga ega Sharofat oʻz xohishi bilan koʻngillilar guruhiga yozilgan, bir kuni ular ham safarbar etilishini bilgan boʻlsa-da, qalbini allanechuk gʻulgʻula egalladi. Toʻrt farzandi koʻz oldidan oʻtdi. Toʻngʻichi oʻn toʻqqizga kirgan, ukalarini bemalol eplashiga koʻzi yetadi. Ammo kenjasi... “U hali endigina ikki yoshdan oshgan. Menga ichikib qolmasmikan”, deya oʻyladi u. Lekin yuragida xavotir bilan birga, Vatanga daxldorlik, fidoyilik hissi ham joʻsh ura boshlagandi. Shuncha

ko'ngillilar ichidan tanlab olingani, jamiyatga kerakli inson ekanini anglab, o'zini qo'lga oldi va ishga otlandi.

26 mart. Sharofat singari o'z kasbining mohiri, bir necha yillik tajribaga ega bo'lgan, bemorlarga sifatli tibbiy xizmat ko'rsata oladigan yana yetti nafar hamshira tanlanib, Virusologiya ilmiy-tekshirish instituti klinikasining markazi – reanimatsiya bo'limiga jo'natildi. Bu sakkiz hamshirani og'ir bemorlar bilan ishlay olish ko'nikmasi hamda xastalikka murossasizlik hissi birlashtirib turar edi. Tom ma'noda, sakkiz hamshira jangchi misoli urush o'chog'iga yo'l olgandi.

– Respublika Virusologiya ilmiy-tekshirish instituti klinikasiga borgach, bir kun davomida epidemiologlar bizga himoya vositalaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatdi, – deydi Sharofat Dadaboyeva. – Hamkasblarim bilan qayta-qayta mashq qildik. Sababi, himoya kiyimi, hattoki niqob va qo'lqoplarni ham kiyib-yechish qoidalari bor. Bu o'rinda yo'l qo'yilgan kichik xato yoki e'tiborsizlik ham kasallikni yuqtirishga zamin yaratadi. Ishxonamizda olgan bilimlarimiz qo'l kelib, bu ko'nikmani darrov o'zlashtirdik. Endi ertangi ish kuni boshlanishini hadik bilan kuta boshladik. Menimcha, men bilan kelgan hamshiralarning barchasi tunni bedor o'tkazgan bo'lsa kerak. Tong otdi. Soat

to'qqizda navbatchilikni qabul qildik. Bizni og'ir kasallar bo'limiga qo'yishdi. Ular tomon ketib borar ekanman, qalbimni qo'rquv aralash turli o'y-xayollar egallay boshladi. “Infeksiyani yuqtirib olsam, to'rtta bolam bo'zlab qolmaydimi?” kabi fikrlar miyamda aylanar edi. Menga birlashtirilgan bemorning ko'zlaridagi iltijo va mungni, bizga mo'ltirab turgan ilinjli nigohlarni ko'rib, darhol o'zimni qo'lga oldim. Ular menga qarab turganida, o'zimni ojiz his etib tursam, qanday yordam bera olaman, degan o'y menga jur'at bag'ishladi. Dadil ishga kirishdik. Keyin bilsam, hamrohlarimning qalbidan ham shunday o'ylar o'tgan, bemorlar ko'zidagi ilinj ularga kuch bag'ishlagan ekan...

Oradan bir kun o'tib, kutilmagan voqea sodir bo'ldi. Hamshiralar kelgan paytda ahvoli o'ta og'ir deb baholangan bemor vafot etdi.

Ana endi yangi ishga kirishgan sakkiz hamshiraning ahvolini tasavvur qilavering. Biroq shunday murakkab vaziyatda ham ular irodasini namoyon eta oldi. Masofa saqlagan holda imo-ishoralar bilan bo'lsa-da, bir-biriga suyanch bo'ldi. Kattalar kichigini qo'lladi, kichiklar kattalarga hurmat ko'rsatdi.

– O'lim holati barchamizni esankiratib qo'ydi, – deydi muolaja hamshirasi Dilfuza Sodiqova. – Lekin uchinchi kundan boshlab

o'zimizni batamom qo'lga oldik. U yerdagi malakali shifokorlar dalda berdi. Biz qat'iy nazorat ostida ishimizni dadil davom ettirdik. Qolaversa, bir martalik himoya kiyimlari, niqob va qo'lqoplar borasida taqchillik yo'qligi, shifokor-u hamshiralar uchun yaratilgan sharoitlar ko'nglimizdagi g'uborlarni aritdi. Tibbiyot xodimlarining himoyalaniish darajasi juda yuqori edi. Qolaversa, jahon standartlariga javob beradigan uskunalari va davolash choralari hech bir davlatnikidan kam emasligini ko'rdik. OAV orqali xabardor bo'layotganingizdek, kuniga o'nlab bemorlar shifo topmoqda. Biz borgan paytda nisbatan og'ir holatda yotgan ikki bemor tuzalib, hozir maxsus xonalarga olindi. Telefon orqali ahvolini so'rab turibmiz.

Eng rivojlangan davlatlarda ham nazorat qo'ldan ketib, kuni-ga yuzlab, minglab bemorlar vafot etayotganini ko'ryapmiz. Shukrki, bizda shifokorlar 12 soatdan, hamshiralar esa 6 soatdan navbat almashib, bir daqiqa bo'lsa-da, bemorlarni e'tibordan chetda qoldirmayapti. O'zbekiston tibbiyoti bugun o'z kuch-qudrati hech qaysi mamlakatdagidan kam emasligini yana bir bor namoyon etmoqda.

– Reanimatsiya bo'limiga kirishdan oldin tartib bo'yicha kiyinamiz, – deydi Sharofat Dada-boyeva. – Keyin bir-birimizning

to'g'ri kiyinganimizni tekshiramiz. Shu bo'yi soat 9:00 dan 15:00 gacha na yegulik yeymiz, na bir qultum suv ichamiz. Himoya kiyimimizda o'zgarish bo'lmasligi uchun bundan tiyilamiz. 6 soatlik ishdan so'ng hamrohimizga navbatchilikni topshiramiz. Shifokorlar esa u yerdagi bemorlar ichgan suvning har tomchisigacha nazorat qilib turadi. Hamshiralar har bir qilgan muolajasini yozib boradi. Bemor bir joyda uzoq yotsa, yotoq yarasi toshishi mumkinligini yaxshi bilamiz. Kasallik bilan kurashib yotgan bemor uchun u ortiqchalik qiladi. Toshmaning oldini olish uchun bemorlarni dam o'ng tomonga, dam chap tomonga yonboshlatib, yengil uqalab turdik. Bundan ham qiyini – o'pkaning sun'iy ventilyatsiyasi apparatini o'chirib turish va qayta ulash jarayoni. Ba'zi bemorlarni ovqatlantirish yoki dori ichirish paytida bu apparatni to'xtatib turardik. Bilasizmi, zimmasidagi ulkan mas'uliyat insonni yanada dadil qilib qo'yar ekan. Biz, hamshiralar barchasini uddaladik. Sanitariya-epidemiologiya qoidalariga qat'iy amal qilish esa diqqat markazimizda turdi. Reanimatsiyadan chiqib, bir sidra himoya kiyimini yechsak, yotoqxona binosiga kiraverishda ikkinchi himoyalagichdan xalos bo'lardik. Shundan so'ng to'g'ri maxsus gigiyenik dush qabul qilib, ust-boshimizni yangisiga





almashtirardik. Undan keyin an-tiseptik vositalar bilan qo'limizni artib, xonamizga kirardik. Ba'zilar olti soat, ba'zilar o'n ikki soat dam olib, yana ishga qaytar edi. Ayni paytda o'zimiz izolyatsiyadamiz. Endi bizga g'amxo'rlik qilinyapti. Bu yerdagi imkoniyatlar ham a'lo darajada. Shu o'rinda biz uchun bekam-u ko'st sharoit yaratib bergan Prezidentimizga va bizni duo qilayotgan xalqimizga rahmat aytamiz...

Hamshiralar bilan suhbatlashar ekanman, beixtiyor ko'zlarimga yosh keldi. Ularning suratlariga qarab, har biridan ulkan bir qahramon yasadim. Aytayotgan har bir gapi yurakdan chiqayotganini his qildim. Ayniqsa, hamshiralar ichida yoshi ulug'i Nargiza Alimshayxovaning so'zlari kishini to'liqlantirmasdan qo'y-maydi.

– Men jimjimador so'zlashni bilmayman, – deydi u. – Lekin shuni ayta olamanki, u yerda o'tgan o'n yetti kunlik hayot menga yashashning asl mazmunini

anglashga, kasbimizdan faxr tu-yishga turtki berdi. Odamlar-ga, ayniqsa, bemorlarga yordam qo'lini cho'zish asl baxt ekanini angladik. Ishonasizmi, xizma-timiz tugab, ular bilan xayrla-shayotganda xuddi farzandimiz, uka-singlimiz, qadrdomimizdan uzoqlashgandek his qildik o'zi-mizni. Axir, ulardagi har bir o'z-garishni bolamizning atak-che-chak qilishi, qadam tashlashi, yurishi, ilk so'z aytishidan xur-sand bo'lgandek suyunib qabul qilardik-da.

Sakkiz nafar tibbiyot xodimi bilan suhbatimiz uzoq davom etdi. Ular qatorida yana Zamira Abdurahmonova, Dilfuza Sodiqo-va, Gulbahor Sunnatova, Lyut-siya Mamleyevaning fikrlarida ham umumiylikni ko'rdim – bu shukronalik va faxr.

So'zlaganlarimiz jonkuyar xodimlardan bir guruhining faoli-yatidan bir shingil, xolos. Aslida ularning soni ko'p. Ular jimgina, fidoyilarcha o'z ishlarini davom ettirmoqdalar.

Sohiba MULLAYEVA,
jurnalist.
2020-yil 27-aprel

TAHDIDLARNI DAF QILISH O'Z QO'LIMIZDA

2020-yilning bahori o'zbekistonlik dehqonlar uchun nihoyatda qulay keldi. Bog'lar, bo'stonlar betalafot gullab-yashnab oldi. Oldi g'o'ra mevalar qinidan chiqa boshladi. Yerimiz oftobda ko'pirib, uvoq-uvoq bo'lib, uvalanib, urug'larni qabul qilishga shay bo'lib turibdi. Undan: "Ekiningni ek! Vaqtingni boy berma, kelajak orzu-a'mollaringning tamal toshini qo'y! Bugungi sochgan urug'ing ertangi yig'ishtirib oladigan oltinlaringdir", degan tarzda o'zbek dehqoniga bugun tongdan tonggacha nidolar kelib turibdi. Dehqon bu nidolarni tushunadi, uni o'z hayotiga chorlov deb qabul qiladi. Yerning bu hayot chaqirig'i hammamiz uchun asos chaqiriq.

Ofatlar esa o'tkinchi!

Odamzod boshida azaldan ofat, talafot bor. Insoniyat azaldan ularga qarshi kurashib, kuchli, oqil, matonatli bo'ldi.



Bolalik chog'larimda, 1940-yillarning o'rtalarida ko'chalarda bezgak tutib qolgan, sillasi qurib, shaqillab titrab-qaltiragan, devorlar tagida, ariqlar ichida dumalagan odamlarni ko'rardim. Traxomalar odamlarning ko'zlarini o'yib yerd. Sil tayoqchalari necha-necha shirin jonlarni qora tuproqlarga tiqardi. "Xinin", "Streptotsid", "Penitsillin" degan g'alati ovozarlar, shov-shuvlar xalq ichida yurardi. Bezgaklar quridi, traxomalarga davo topildi. Bola bo'lsak ham, o'shanda shunday dorilarni top-

gan ilm-fan qudrati murg'ak aql-idrokimizni lol qilar edi va ilm umr bo'yi ohanrabo kabi bizni o'ziga tortardi. Bugun "diabet", "virus" deb vujudimizga qo'rquv, vahima soladilar. Nima, insoniyatni qutqargan "penitsillin"larni yaratgan buyuk olimlar endi yo'qmi? Biz endi yosh qizcha – Gretalar-ning ekologik va'zlarini og'zimizni ochib tinglab o'tirishga o'rganib qolmadikmi? Endi kim insoniyatni ommaviy kasalliklar, ommaviy g'ulg'ulalardan himoya qiladi? Himoya bormi endi? Ma'rifatli Yevropada endi fantaziyasi ko'klarga parvoz qilgan Myunxauzenlar yo'qolib ketdimi?

Hammamiz ko'rib, bilib turibmiz. Prezident va hukumatimiz jahon miqyosidagi bunday og'ir vaziyatda eng ilg'or mamlakatlarga uyg'un va hamohang tarzda g'ayrat, shijoatkorlik, bilimdonlik, zudlik bilan epidemiyaga qarshi zarur choralar ko'rmoqda. Epidemiyaning tarqalish yo'llariga mustahkam to'siq qo'ymoqda. Uzoq ertani ko'zlab, hisobli ilmiy, oqil reja asosida amaliy ishlarni katta miqyosda olib bormoqda. Xalqimiz esa ko'rsatilayotgan ana shu g'amxo'rlik, mehr-oqibatga yarasha bag'irdoshlik an'analari, udumlariga rioya etyapti. Har bir

xonadon, har bir oilada, har bir qishloq, har bir shahar, har bir tuman- manda tom ma'noda hozirjavoblik qilmoqda.

Barchamiz sidqidildan ahvolni tushungan holda uyda o'tirgan bo'lsak ham, butun sezgilarimiz, jonimiz, aql-u uquvlarimiz barobarida bu ulug'vor va zarur sa'y-harakatlarga bardam qo'shilmoqdamiz. El-u yurt omonligi yo'lida hammamiz doim jon-u dildan birgamiz. Albatta, turli-tuman sharoitlardagi oilalar, xonadonlar atrofimizni qurshagan: a'zolari ko'p, a'zolari kam. Yorug' dunyoga chaqaloqlari kelayotgan, kasal boqayotgan, keksalarni avaylayotgan, yordamga muhtoj oilalar ham oz emas. Bunday oilalar, xonadonlarda kattalar kichiklarga madadkor, kichiklar esa kattalarga ilhomkor, hamma bir-birini qo'llagan. Sening yoningda seni tushunadigan, mehr ko'rsatadigan jonkuyarlaring borligini his qilib tursang, qanday yaxshi!

Hukumat hech kimni unutgani yo'q. Hech kimni nazardan qochirgani yo'q. Buni butun xalq sezib turibdi. Xalq o'z rahbarlariga ishonadi, ularga ergashadi, izlaridan borishni istaydi. Bu esa xalq uchun ham, hukumat uchun ham cheksiz kuch-quvvat manbaidir.

Ibrohim G'AFUROV,
O'zbekiston Respublikasi
san'at arbobi.
2020-yil 21-aprel

ENG KATTA BOYLIK – XALQ SALOMATLIGI



Tarixdan ma'lumki, ko'pmillatli O'zbekiston xalqi har qanday qiyin vaziyatdan chinakam qahramonlik va matonat bilan chiqa olgan. Ikkinchi jahon urushi davrida o'zbek xalqi urush hududlaridan ko'chirib keltirilgan 1 millionga yaqin insonga boshpana berib, o'z nonini ular bilan baham ko'rgani buning isbotidir. Ayniqsa, ota-onasi, oilasidan judo bo'lgan 200 ming nafar begunoh bolani "Sen yetim emassan!" deb bag'riga bosib, mehr-muruvvat ko'rsatdi.

Bugungi jiddiy va tahlikali vaziyatda zudlik bilan pandemiyaning keng tarqalishining oldini olish, odamlarning sog'lig'i va hayotini himoya qilish bo'yicha ishlab chiqilgan ta'sirchan chora-tadbirlar uchun men Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga O'zbekistondagi rus millati vakillari nomidan minnatdorlik bildiraman.

Koronavirus pandemiyasi davrida mamlakatimiz aholisi oziq-ovqat, dori-darmon va zarur tibbiyot vositalari, boshqa hayotiy muhim ashyolar bilan muntazam ta'minlanmoqda.

Tibbiyot xodimlarini moddiy rag'batlantirish, sog'liqni saqlash tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalari va boshqa infratuzilma obyektlarini qisqa muddatlarda qurish ishlari o'zining amaliy natijalarini bermoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Saxovat va ko‘mak” umummilliy harakati o‘zbek xalqiga xos insonparvarlik, milliy qadriyat va an‘analaramizga yanada uyg‘unlik, hamohanglik kasb etmoqda. Tarixiy va ma‘naviy qadriyatlarimiz, jumladan, mehr-saxovat, oqibat va himmat, o‘zgalarga hamisha yordam qo‘lini cho‘zish, topganini o‘zgalar bilan baham ko‘rish kabi yuksak insoniy fazilatlarimizni namoyon etuvchi ushbu xayri tashabbusda yurtimizning turli hududlarida ish olib borayotgan O‘zbekiston Rus madaniy marka-

zi vakillari ham faol ishtirok etmoqdalar.

Millati, tili va dinidan qat‘i nazar, hammamiz yakdilmiz va ishonamizki, bu qiyinchiliklar, albatta, o‘tib ketadi. O‘shanda sinovli damlarda qilgan xayri ishlarimizdan, yurtdoshlarimizga qilgan ehson, saxovat-u ko‘makdan ko‘nglimizda yorug‘lik bo‘lib, o‘zimizdan minnatdor bo‘lishimiz aniq. Chunki o‘sha kezlarda yurtdosh, mahalladoshlar ko‘ziga tik qarab, bir-birimizga oqibat ko‘rsatganimiz uchun yurtimizga yana tinch va osuda hayot qaytganini sezamiz.

Sergey MIRONOV,
*O‘zbekiston Rus milliy
madaniy markazi raisi.*
2020-yil 1-may

HAYOTNING QADRIGA YETMAGAN ODAM UNDA BAHRAMAND BO'LISHGA QODIR EMAS



Mana, qariyb uch haftadan buyon uydamiz. Avvalo, shuni aytishim kerakki, ijod ahli azaldan ham o'zi bilan o'zi olishib, o'z ustida tinimsiz ishlagan, uyda o'tirishdan zerikmagan. Ammo hozirgi vaziyat hech qachon bo'lmagan shunday bir imkon berdiki, qalbimiz eshigi ilm-u irfonga keng ochildi. Bugun o'qiyman, ertaga o'qiyman, deb yig'ilib qolgan kitoblarni birma-bir ochib o'qiy boshladik.

O'zimni aytadigan bo'lsam, "Mirzo Ulug'bek" asaridan yod olganim 44 betli she'riy matnini har kuni bir marta takrorlashimning o'ziga uch soat vaqtim ket-yapti. Mening yoshimda har kuni takrorlamaslikning iloji ham yo'q aslida. "Uzilmagan gul" nomli asarda ham rol ijro etyapman, undagi so'zlarimni yodlayapman. Ko'zimni yumgancha, sahna olamiga uzoq sho'ng'iyman. Teatrda badiiy kengash a'zosi emasmanmi, kengash a'zolari bilan gaplashib turaman.

Mutolaa, o'z ustimda ishlash mashqlaridan so'ng olamga bir nazar solay deb derazadan tashqariga boqaman. Dahshatga tushaman. Shovqin yo'q, mashinalar yo'q, hammayoq jim-jit. E, Xudoyim, qayerda xato qildik, gunohlarimizni kechirgin, deya oyatlar o'qib, butun xalqimizga omonlik so'rab, duo qilaman.

Koronavirus menga shunday bir turtki berdiki, bugungi vaziyatidan keyin oq xalatli shifokorlarga hurmatim nihoyatda ortdi. Ochig'ini aytaman, ssenariyda vrachlar haqida 1-2 ta salbiy fikrlar bor edi. O'shalarni olib tashladim. Asar ancha o'zgarib ketdi. O'zimning rolim haqidagi salbiy fikrlar o'zimga yoqmay qoldi. Negaki, bugun jonini xatarga qo'yib, bemorlarni o'z opasi, akasi, yaqiniday ko'rib, dardiga malham bo'layotgan insonlarga tosh otib bo'lmaydi. Ular Alloh tomonidan in'om etilgan oq kiyimli farishtalar. Bugun ularning qahramonliklari haqida gapirish kerak.

Shu o'rinda bir gapni aytmasam bo'lmaydi. Nurullo Abbosxonning "Odamlar orasida" pyesasida vrach rolini o'ynayapman. Koronavirus menga shunday bir turtki berdiki, bugungi vaziyatdan keyin oq xalatli shifokorlarga hurmatim nihoyatda ortdi. Ochig'ini aytaman, ssenariyda vrachlar haqida 1-2 ta salbiy fikrlar bor edi. O'shalarni olib tashladim. Asar ancha o'zgarib ketdi. O'zimning rolim haqidagi salbiy fikrlar o'zimga yoqmay qoldi. Negaki, bugun jonini xatarga qo'yib, bemorlarni o'z opasi, akasi, yaqiniday ko'rib, dardiga malham bo'layotgan insonlarga tosh otib bo'lmaydi. Ular Alloh tomonidan in'om etilgan oq kiyimli farishtalar. Bugun ularning qahramon-

liklari haqida gapirish kerak. Ba'zi sahifalarni o'zgartirish kerak. Xullas, bu asar ustida ham bosh qotiryapman. Shu tariqa vaqtning qanday o'tib ketayotganini sezmay qolyapman.

Barcha viloyatlarda hamkasb do'stlarim bor. Shuncha ishdan ortib ora-sira ular bilan ham-suhbat bo'lishga ulguryapman. Institutda to'rt yil dars berganman. Talabalarim hol so'rab qo'ng'iroq qilib turishadi, ular bilan gaplashaman. Xullas, bir zum bekor qololmayman.

Xulosa qilib aytmoqchiman-ki, hayotning qadriga yetmagan odam undan bahramand bo'lishga qodir emas. Men barcha yurtdoshlarim, tengdoshlarim, kasbdoshlarimga mana shu qimmatli

damlarda faqat o'z ustingizda ishlang, o'qing va yana o'qing, deymen. Fikran, aqlan o'zimizni tahlil qilishimiz kerak. Karantin davrida o'ziga tashqaridan bir nazar solib, xato-kamchiliklarini ko'ra bilgan va ularni tuzatishga harakat qilgan inson hech qachon kam bo'lmaydi, deb bemalol ayta olaman.

Ming shukr, butun xalqimiz, betakror yurtimizning har qanday vaziyatda eson-omon bo'lishi va gullab-yashnashi uchun jonfido davlat rahbarimiz bor. Yurt otasiga qanot bo'lib, barcha chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlab turgan insonlar haqiqiy iymoni but, xalqparvar insonlar, desak, xato bo'lmaydi.

Erkin KOMILOV,
O'zbekiston xalq artisti.
2020-yil 10-aprel

BIZNING KUCHIMIZ BIRLIKDA

Bundan 80 yil oldin Uzoq Sharqdan ko'chirib keltirilgan koreyslar va ularning avlodlari bag'rikeng o'zbek zaminini o'zlariga muqaddas Vatan deb biladilar. Shu bois hozirgi og'ir va murakkab vaziyatda koreys millati vakillari ham o'z fuqarolik burchlarini bajarib, aholimizning yordam va ko'makka muhtoj qatlamlarini aniq, manzilli asosda qo'llab-quvvatlashga o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqdalar.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yurtimizga koronavirus pandemiyasi kirib kelmasidan oldin xalqimizni undan himoya qilishga qaratilgan tizimli profilaktika choralari ko'rib qo'yildi va mana shu oqilona siyosat tufayli ushbu infeksiya keng tarqalishining oldi olindi.

Xalqaro ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, koronavirus pandemiyasi jahon iqtisodiyotiga tax-



minan 6–7 trillion dollardan ziyod zarar yetkazishi mumkin.

O'zbekistonda koronavirus infeksiyasiga qarshi kurash va pandemiyaning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha ko'rilayotgan qat'iy chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz iqtisodiyoti ushbu inqirozdan kam talafot bilan chiqishi kutilmoqda.

Ayniqsa, pandemiya sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarining barqa-

Sinovli vaziyatlarda iqtisodiyotni barqarorlashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali ish o'rinlarini saqlab qolish – bular xalq uchun g'amxo'rlikning oliy ko'rinishidir.

Bu murakkab jarayonda biz birdamlik va o'zaro g'amxo'rlik tamoyillari asosida ish tutishimiz lozim.

Biz birgalikda ko'p narsaga qodirmiz.

ror faoliyat yuritishini ta'minlash, tadbirkorlik va aholi bandligini qo'llab-quvvatlash maqsadida foizsiz budjet ssudalari ajratish, soliq va bojxona to'lovlarida imtiyozlar, yengilliklar berilgani tadbirkorlarga katta imkoniyat yaratdi.

Sinovli vaziyatlarda iqtisodiyotni barqarorlashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali

ish o'rinlarini saqlab qolish – bular xalq uchun g'amxo'rlikning oliy ko'rinishidir.

Bu murakkab jarayonda biz birdamlik va o'zaro g'amxo'rlik tamoyillari asosida ish tutishimiz lozim.

Biz birgalikda ko'p narsaga qodirmiz.

Viktor PAK,
*O'zbekiston koreys madaniy markazlari uyushmasi raisi,
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati.
2020-yil 1-may*

XALQIMIZ BILAN BIR SAFDA

Mamlakatimizga koronavirus infeksiyasining kirib kelishi va tarqalishining oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan harakatlar doirasida Madaniyat vazirligi va tizim tashkilotlari tomonidan ham bir qator amaliy choralar ko'rilmoqda.

Xususan, O'zbekiston davlat filarmoniyasi va uning hududiy bo'limlari tomonidan onlayn konsert va videolavhalar tayyorlanib, ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirildi.

Karantin davrida aholining uyda bo'lishi va o'z iqtidorini namoyish etishini tashkil etish maqsadida "Uydagi yulduzlar" onlayn tanlovi e'lon qilindi. Ushbu qiziqarli tanlov uyda qolib ijod qiladigan ishtirokchilarni "Eng yaxshi cholg'u ijrochisi", "Eng yaxshi xonanda", "Eng yaxshi raqs ijrochisi", "Eng yaxshi rassom", "Eng yaxshi hunarmand"

kabi yo'nalishlar bo'yicha saramoqda.

Madaniyat vazirligi hamda uning hududiy boshqarmalari tomonidan "Go'zal hayot", "Masofadan o'qiyamiz", "Uyda qolib o'qiyamiz", "Shifokorlarga rahmat", "O'zingni asra", "Uyda qoling" kabi ijtimoiy chellenjlar e'lon qilinib, mazkur chaqiriqlarda hozirgi kunga qadar jami 2 million 450 mingga yaqin fuqarolar ishtirok etdi.

Turli telekanallarda taniqli xonandalar tomonidan jonli ijroda taqdim etilayotgan onlayn konsert dasturlari muxlislarga manzur bo'lmoqda.

Ayni paytda hamkor tashkilotlar ishtirokida "Virtual muzey" loyihasi ustida ish olib borilib, 14 ta davlat muzeyining virtual shakli tayyorlandi. Yana bir qator muzeylarda tasvirga olish ishlari davom etmoqda.

Teatrlarimizda faoliyat yuritayotgan ustoz san'atkorlar hamda yosh aktyorlar tomonidan ijtimoiy tarmoqlar va davlat teatrlarining rasmiy veb-saytlarida koronavirusdan himoyalinish, shaxsiy gigiyena va karantin qoidalariga rioya qilish bo'yicha 270 dan ortiq ijtimoiy roliklar va targ'ibot chiqishlari tashkil etildi.

O'zbekiston Milliy teleradio-kompaniyasi va Madaniyat vazirligi hamkorligida tayyorlangan "COVID-19" qisqa metrajli filmi va boshqa targ'ibot roliklari markaziy telekanallar orqali namoyish etilmoqda. "O'zbekiston-24" telekanali orqali tashkil etilayotgan mavzuga oid ko'rsatuvlarda yetmishga yaqin taniqli aktyorlar, madaniyat va san'at xodimlari bilan suhbatlar tashkil etildi.

Madaniyat vazirligi va uning tasarrufidagi hududiy boshqarmalar, respublika tashkilotlarida mehnat qilayotgan xodimlar tomonidan jami 7 milliard 112 million so'mga yaqin pul mablag'lari

"O'zbekiston mehr-shafqat va salomatlik jamoat fondi"ga yo'naltirildi.

Jumladan, san'atkorlarimiz tomonidan "O'zbekiston mehr-shafqat va salomatlik jamoat fondi"ga 293 million hamda kam ta'minlangan oilalar va aholining boshqa yordamga muhtoj qatlami uchun 230 million so'm xayriya mablag'lari yo'naltirildi.

Bundan tashqari, bir san'atkor tomonidan muhtoj oilaga uy olib berilgan bo'lsa, yana bir xonandamiz tomonidan Sardoba toshqinidan zarar ko'rganlarga yordam ko'rsatish bo'yicha aksiya o'tkazildi.

Bir so'z bilan aytganda, madaniyat xodimlari va san'atkorlarimiz koronavirus pandemiya-siga qarshi kurashish borasida yurtimizda amalga oshirilayotgan muhim chora-tadbirlarda xalqimiz bilan bir safda faol ishtirok etib kelmoqda.

Sanjar BOBOJONOV,
*Madaniyat vazirligi
tashkiliy nazorat va tahlil
boshqarmasi boshlig'i.*
2020-yil 30-aprel

“SIZ DUNYODAGI ENG MEHRIBON ONASIZ...”

2020-yil 15-mart. O‘zbekistonda koronavirusga chalingan ilk bemor aniqlandi. 16-martdan oliy o‘quv yurtlari, ta‘lim muassasalari faoliyati vaqtincha to‘xtatildi. Xorazm viloyati yuqumli kasalliklar shifoxonasida koronavirusga gumon qilingan shaxslar uchun maxsus palatalar tashkil qilingan, gumondorlar tibbiy tekshiruvlardan o‘tkazilar, hali hech kimda xastalik aniqlanmagan edi.

22-mart. Urganchga Rossiya-dan charter reys bilan olib kelingan fuqarolar karantinga olindi. Yuqumli kasalliklar bilan davolanayotgan kasallar shoshilinch ravishda boshqa shifoxonaga o‘tkazildi.

25-mart. Shifoxonada karantinga olingan surxondaryolik 32 yoshli yigitda koronavirus aniqlandi. Hammani sovuq ter bosdi...

26-mart. Xorazm viloyati yuqumli kasalliklar shifoxonasida ham zudlik bilan to‘rtta guruh tashkil qilindi. Har bir guruh 14 kun shifoxonadan chiqmay ishlashi, muddat tugagach, yana 14 kun karantinda bo‘lishi kerak. Bir-ikki oydan beri tibbiyot xodimlari uchun koronavirusga qarshi kurashish, tashxislash, bemorlarni davolash bo‘yicha seminarlar, mashg‘ulotlar uyushtirilar, dunyodagi pandemik vaziyatdan barcha boxabar edi. Biroq nazariya boshqa, amaliyot boshqa...

7 nafar shifokor, 16 nafar hamshira, 12 nafar kichik tibbiyot xodimididan iborat birinchi navbatchi guruh uchun o‘zlari tasavvur qilganlaridan-da og‘ir, halovatsiz kunlar boshlandi.

– Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi koronavirus infeksiyasiga

tashxis qo'yish, davolash bo'yicha taqdim qilgan tavsiyalar asosida ishga kirishdik, – deydi shifoxona bosh hamshirasi Mehrison Yusupova.

Shifoxonada yotganlarning aksariyati asabiy, vahimada. Kimdir ovqatlanishdan bosh tortsa, kimdir dori-darmon qabul qilishni rad qiladi. Boshqasi "Mening issig'im chiqmadi, chiqarib yuboringlar" deya baqiradi. Shifokorlar qat'iyat bilan harakat qilishadi. Laboratoriya tahlillari tez-tez o'tkazilib, natijalar tahlil etiladi. Zarur holda Toshkentdagi malakali mutaxassislar bilan maslahatlashiladi. Hamshiralarga tana haroratlarini tez-tez o'lchab turishadi. Testlar o'tkazishadi. Kichik tibbiyot xodimlari ham bir lahza tin olishmaydi. Dezinfeksiya tadbirlari, xonalarni tozalash, karantindagilarning kiyim-boshlari va o'zlarining ozodaligini ta'minlash... Jarayon kecha-kunduz uzluksiz davom etadi.

Xastalikka chalinganlar soni kundan kunga oshib bordi. Boshqa muassasalarda karantinga olinganlar orasida kasallik aniqlanganlar ham mazkur shifoxonaga keltirilardi. 24 soatni bedor o'tkazish, o'z joningni xatarga qo'yib, o'zganing jonini asrashga urinish... Buning uchun kasbga sadoqat kamlik qiladi, katta matonat, jasorat va ulkan qalb zarur...

Bosh hamshira hamkasblaridan va bemorlardan hayajonlan-

maslikni, vahimaga berilmaslikni so'rar, hamkasblarining o'z vazifalarini sanitariya qoidalari asosida bajarishlarini nazorat qilar, ular bilan muolaja jarayonlarida ishtirok etar, shirin so'zi bilan bemorlarga dalda bo'lardi.

12-aprel. Shu kuni shifoxonada davolanayotgan ilk bemor xastalikdan forig' bo'lib, reabilitatsiyaga yuborildi.

Bu paytda shifoxonada ikkinchi navbat davom etar, 6 nafar vrach, 9 nafar hamshira, 8 nafar kichik tibbiyot xodimidan iborat guruh faoliyat ko'rsatardi.

– Ularning har biri haqida, shifoxonada o'tgan 14 kuni haqida asar yozish, kino qilish mumkin, – deydi bosh hamshira. – Shunday hamkasblarim borligidan g'ururlanaman.

23-apreldan 6-mayga qadar uchinchi guruhda 6 shifokor, 9 hamshira, 6 kichik tibbiy xodim pandemiyaga qarshi qahramonlarcha kurashdi. Mehrison yana jamoa bilan birga bo'ldi, hamkasblaridan ko'magini, bemorlardan mehrini ayamadi. Shu davrda sog'ayib, reabilitatsiyaga ketayotgan jizzaxlik Qahramon Elmirezayev bosh hamshiraning qo'liga bir parcha qog'oz tutqazdi.

Ochib qarasa, shoirtabiat yigit jamoadagi barcha shifokorlarga, hamshira-yu kichik tibbiyot xodimlariga bag'ishlab alohida satrlar bitibdi.







– Faoliyatimning 27 yili alohida, keyingi bir yarim oy alohida tarix, – deydi Mehribon Yusupova. – Meni quvontiradigani – bemorlarning ko‘pchiligi shifo topgani, jamoadoshlarim orasida ushbu xastalikni yuqtirib olganlar yo‘qligidir.

Mehribon Yusupova 7 maydan buyon uchinchi navbatda faoliyat ko‘rsatgan hamkasblari bilan Xorazm viloyati Kasaba uyushma tashkilotlari birlashmasi tasarrufidagi oromgohda karantin mud-

datini o‘tamoqda. U to‘rtinchi navbatda ham ishlamoqchi edi. Hamkasblari “Ancha toliqingiz” – deb qo‘yishmadi. Shunday bo‘lsa-da, hamkasblari bilan tez-tez qo‘ng‘iroqlashib, zarur tavsiyalarini beryapti. U ham qadrdon uyini juda sog‘ingan.

Kecha o‘g‘li Jasurbek xabar yo‘llabdi: “Siz dunyodagi eng mehribon onasiz. Siz bilan faxrlanaman”.

Mehribonning ko‘zlari namlandi...

Muhabbat TO‘RABOYEVA

MINNATDORCHILIK MAKTUBI

“Muhtaram Prezident!

Avvalo, Sizga o‘zimning samimiy minnatdorchiligimni bildirmoqchiman. Men koronavirus kasalligi muolajasini o‘tagan birinchi bemorlardan bo‘ldim va uzoq muddat davolandim. Bu holat menga mamlakatimizda ushbu xavfli virusga qarshi kurashish doirasida amalga oshirilayotgan barcha tashkiliy-tibbiy jarayonlarni kuzatish imkonini berdi.

2020-yilning 28-mart kuni o‘ta og‘ir ahvolga tushib, zudlik bilan o‘pkani sun‘iy nafas oldirishga o‘tkazildim va 18-aprelga qadar shu holatda bo‘ldim. Keyinroq bildimki, “COVID-19” kasalligidan bemorlarni davolash uchun O‘zbekiston tarafidan xarid qilingan 500 ta sun‘iy nafas oldirish apparatlaridan biriga ulangan ekanman.

Men o‘z misolimda shunga qat‘iy ishonch hosil qildimki, Siz tomoningizdan qabul qilingan tezkor choralar hamda shifokorlarimizning fidokorona mehnati minglab hamyurtlarimizning hayoti va sog‘ligini asrab qolishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi.

Davlatimizning g‘amxo‘rligi va ishtirokini muolaja davrining har bir daqiqasida doimo his qilib turdim. Shifo olayotgan har bir vatandoshimiz shaxsan Siz uchun qadrli ekanligiga iymonim komil bo‘ldi.

So‘zim yakunida Sizga chin qalbidan mustahkam sog‘lik, tuganmas shijoat tilayman va Siz tomoningizdan Vatanimiz ravnaqi yo‘lida amalga oshirilayotgan barcha islohot va o‘zgarishlarga sodiqligimni izhor etaman.

Hurmat bilan

Aziz BOBORAZZOQOV

Toshkent shahri.

2020-yil 22-iyun

YURAGIMDAN O'TGANI YOLG'IZ ALLOHGA AYON

*To'rt farzandi koronavirusdan
tuzalgan ona hikoyasi*

Chiroqchi tumani Zum qishlog'ida bir oiladan besh kishi bugungi kunda eng ko'p tilga olinayotgan kasallikka chalindi. Ayni paytda oila boshlig'i muolaja olayotgan bo'lsa, to'rt farzand butkul sog'ayib, reabilitatsiyaga olindi. Yaqinda oilaning kenja farzandi Dilshodbekka uyiga javob berildi.

To'rt farzandi koronavirusdan sog'aygan ona... U bu kunlarga yetgunicha necha bor o'lib, necha bor tirildi ekan? Biz onaizor Oyo-soat To'rayevaning dil so'zlarini yozib oldik.

– O'zim uy bekasiman, – deydi u. – Turmush o'rtog'im u yoq-bu yoqqa ishlagani borib, ustachilik qilib, ro'zg'or tebratardi. Bu yil juda og'ir sinovlarga duch keldik. O'sha dard bizga ilashgandan to bugungi kungacha yuragimdan nimalar o'tgani yolg'iz Allohga ayon. Turmush o'rtog'im va to'rt

nafar dilbandimni o'ylab, qay holga tushganimni so'z bilan tasvir-lab berolmayman. Hayotda ba'zi bir mayda yetishmovchiliklar, ar-zimagan kamchiliklar uchun nolir ekanmiz. Aslida, tinchlik-xotir-jamlik va salomatlik eng katta boyluk ekan. Iqror bo'lganim, in-son salomatligiga, yegan bir og'iz luqmasiga shukr qilishi kerak ekan.

Shifokorlarning kecha-yu kun-duz qilgan mehnatlari natijasi-da bolalarim butkul sog'aydi. Shu o'rinda xalqimiz salomatligi uchun fidoyilik bilan xizmat qila-yotgan dono Yurtboshimiz va hu-kumatimizga, mehribon shifokor-lar, Ichki ishlar va Milliy gvardiya xodimlari, barcha-barchaga chek-siz minnatdorlik bildiraman.

Kecha o'g'lim bilan uyga kel-dim. Mahalla-ko'y, hamma, hat-to uyimizga ancha vaqtdan beri kelmay qo'ygan qarindoshlarimiz

ham qo'ng'iroq qilib, og'ir sinovlar ortda qolgani bilan tabriklashdi. "Xudoga bir yoqqan tarafing bor ekan, shu sinovlardan omon o'tdinglar. Iloyo, ortda qolgani rost bo'lsin", – deb duolar qilishdi. Rost, butun O'zbekiston bizga Yaratgandan shifo so'radi. Yaxshilarning duosi tufayli bolalarim tuzaldi.

Uyga kelib ham ko'nglim tinchimadi. Turmush o'rtog'imning sog'lig'i haqida o'ylayman. Yaqinda shifokor Arslon aka qo'ng'iroq qilib, u kishining tuzala boshlaganini, ahvoli yaxshiligini aytdi. Qo'rquvlarim chekindi. Yuragim

taskin topdi. Halovatim o'zimga qaytib, hovlimizning u yoq-bu yog'ini yig'ishtirishga kirishdim. Nasib bo'lsa, ishonaman, bolalarimning otasi ham tuzalib, oilamizga xursandchilik qaytadi.

Bugungi qutlug' kunlarda esa tun-u kun duodaman: Ilohim, onalarning bag'ri bolalari bilan butun bo'lsin! Bu balo Yer yuzidan daf bo'lib, dunyo onalarining ko'ngli xotirjam bo'lsin!

PS: Gazeta sahifalanayotgan paytda Qashqadaryodan xushxabar keldi: oila boshlig'i Sharofiddinjon ham sog'ayibdi. Yaxshi kunlar kelgani rost bo'lsin!

Akmal ABDIYEV,
jurnalist.
"Ishonch" gazetasi.
2020-yil 1-may

HAMSHIRA KUNDALIGI: KORONAVIRUSGA QARSHI KURASHGAN HAMSHIRA HAR BIR O'TGAN KUNINI KUNDALIGIGA YOZIB BORDI

Yaqinda internet tarmoqlarida Italiyada koronavirusga chalingan og'ir bemorlar hayoti uchun kurashgan italyan hamshirasining kundaliklari e'lon qilindi. Uning asl kelib chiqishi rus bo'lib, volontor sifatida Apennindagi pandemiyaning qoq o'chog'i Breshiya shahriga yo'l olgan ko'ngilli inson edi. Bu oq libos egasi tojdor yovga qarshi kechgan shafqatsiz urushda o'tkazgan har bir kunini qog'ozga tushirib borar ekan.

Yakunda esa ham hujjatli, ham hayotiy, ham ta'sirli sujetlar hosil bo'lgan. Hamshira nihoyatda sodda tilda insoniyat boshiga tushgan bugungi og'ir sinov, ko'rinmas yovga qarshi murosasiz kurash onlari haqida hikoya qiladi. Kundalik sahifalarida aks etgan voqealarni sizlarga ham havola etmoqchimiz.

Birinchi kun

Fanodan soat 8:45 da chiqib, Kyariga 12:30 da yetib keldim. Yo'lda biror marta hech kim to'xtatmadi. Qatnovda yengil mashinalar ancha siyraklashib qolgan, yuk mashinalari esa ko'p. Lekin ular mening yo'limga o'tishmadi, manzilga xotirjam yetib oldim.

Cherkov yaqinidagi kvartiraga joylashtirishdi. Bu yerdan shifoxonagacha deyarli bir chiqirimlik yo'l ekan. Faqat "Tez yordam" mashinalarining tinimsiz "uvillashi" tinchlikni buzadi. Bugun hujjat bilan bog'liq barcha ishlarni bitirib oldim: shartnoma, tibbiy ko'rik, qon topshirish, maxsus liboslar va oyoq kiyimlari olish.

Ertaga jangga! Hozircha bitta qo'shnim bor: 35 yoshli hamkasbim. U jonlantirish bo'limida uch



kundan beri ishlayotgan ekan. Aytishicha, u yerda har ikkita bemorga bittadan tibbiyot xodimi biriktirilgan. Qanday qilib, deb soʻrayman? Javob beradi: reanimatsiya 6 kishiga moʻljallangan. Ammo 13 kishi yotibdi. Hammasi sunʼiy nafas apparatida...

Ikkinchi kun

Ishda kiyiladigan niqob – biz oʻrganib qolganimizdan farq qiladi. U yuzga mahkam yopishadi, nafas olish juda qiyin. Niqob ustidan maxsus shaffof himoya vosita kiyiladi. U qulay ishlash imkonini beradi va yon tomonlarni koʻrishga xalaqit qilmaydi, yana

bir ijobiy tomoni unda koʻzoynak taqib ham ishlash mumkin.

Mening boʻlinmam... Uning nomini aytish ham shart emas. Chunki boshqacha bemorlar baribir u yerda yoʻq. Pediatriya, ortopediya, lor, okulist, xirurgiya (faqat shoshilinch qolgan) boʻlimlari yopilgan. Hammasini reanimatsiya, intensiv terapiya va kovid boʻlinmasiga aylantirishgan. Butun boshli shifoxona faqat bitta kasallik uchun ishlayapti!

...Yangi qiyofalar: palataga 2 kishini sigʻdirish va ularning har biri uchun alohida “prayvasi” (shaxsiy oraliq maydoni va daxlsizlik)ni kafolatlash maqsadida pardalarni olib tashlash uchun

ishchilar kelishdi. Ertadan yangi bemorlarni olib kelishni boshlashadi, ish yanada ko'payadi. Lekin bu ertaga bo'ladi, hozir esa dam olish kerak.

Uchinchi kun

Menga shkafcha berishdi, biroq unga osma qulf kerak. Uni qayerdan sotib olish mumkinligini kim aytar ekan? Albatta, hech qayerdan, chunki bu birinchi ehtiyoj mahsuloti emas.

Smenam soat 14:00 da boshlandi. O'rganish va tushunishni boshlayapman, ammo hammasini eslab qolish hamon juda qiyin.

Kecha aytganimdek, barcha palatalarda 2 tadan odam bor edi, bugun ertalabdan bemorlar olib kelinibdi. Bo'limlar endi "xatarli" va "toza"ga ajratilmaydi. Sog'ayganlarga ruxsat berishdi va butun bo'linma "xatarli"ga aylandi. Bu tibbiyot jargonida biz qo'lqopdan boshqa kiyimlarni almashtirmasligimizni anglatadi.

Yarim tungacha bemorlarning kelishi tinmadi. Birgina bizning bo'linmamizga 12 kishi olib kelindi. Bu faqatgina bizga kelgani! Butun shifoxonani tasavvur qilayapman. Boz ustiga yana reanimatsiyani operatsiya xonasi va boshqa ko'plab bo'linmalar hisobiga ham kengaytirishdi.

Endi nega uydan chiqmaslik kerakligi tushunarli. Gips qo'yishmaydi, operatsiya qilishmay-

di. Sababi bunday xizmat ko'rsatadigan bo'linmalarning o'zi yo'q. Kompyuterda shunday dastur bor ki, u orqali kasalxonada yotganlar haqida ma'lumotlarni ko'rish va qaysi bo'linmaga olib chiqilishi haqida bilib olish mumkin.

Yoshlariga qaraymiz: 25(!), 32(!), 36, 42, 47, 52! Bu faqat bugungisi! Qolganlarning yoshi yanada katta, ular juda ko'p!!! Ular shoshilinch yordam bo'limida yotishibdi, demak, ularga juda og'ir!

"Smen"im soat 22:00 da tugaydi, ammo bo'linmani 23:00 da tark etdim. Yuzlarimizga qarab smena tugaganini bilish mumkin edi.

To'rtinchi kun

Ishdaman. Besh daqiqalik tanaffusda yozib qo'ymoqdaman. "Smen"ni soat 22:00 da qabul qilib oldim. Kompyuterdagi dasturlar bilan tanishyapman. Hozir sherigim bor, biroq keyin boshqalar kabi men ham bir o'zim ishlayman. Mening o'z bemorlar guruhim bo'ladi va ularga qarashni yolg'iz uddalashim shart bo'ladi.

Hozir soat 2:00. Smenim tugashiga 5 soat qoldi.

Beshinchi kun

Tungi smena kunduzgilariga nisbatan ancha osuda o'tdi. Yan-

gi bemorlar kelmadi. Ular yo'qligi uchun emas, balki bo'limimiz to'lib ketgani sababli. Biz navbati bilan oz-ozdan dam olamiz deb o'ylagandim. Soddaligim qursin. Afsus bunday bo'lib chiqmadi.

Faqatgina tungi soat 2:00 da 5 daqiqagina tin olish imkonini bo'ldi. Fursatdan foydalanib, egnimdagilarni yechib, dezinfeksiya qilib oldim, bir stulga o'tirib, ikkinchisiga oyog'imni uzatib, biroz dam oldim! Shunda butun tanam bo'ylab shunday yengil tortdimki! Bir ko'tarishda bir yarim litr suv ichdim, bu ikkinchi bor yengil tortishim bo'ldi.

Bungacha tashnalikdan o'lib qolsam kerak degan xayolga ham borib kelgandim. Nega? Chunki bo'limda sizga hech kim suv ichishni taklif qilmaydi. Suv esa boshqa, toza xonada. Uni faqat toza qo'llar bilan ushlab mumkin, oyoqlarda baxila, xalat, qo'lqopni virtual to'siqdan olib o'tish qat'iy man etiladi.

Suvni u zararlanmasligi uchun "xatarli" zonaga olib kirish mumkin emas. Ikkinchi tomoni: "xatarli" zonada niqobni yechib bo'lmaydi! Qo'lni ham tekkizib bo'lmaydi, yuzdagi ekran ham ko'tarilmaydi! Xullas, barcha tomon yopiq.

Bemorlarga rahmim keladi... Ular umuman dam olishmaydi!!! O'zi shundoq ham darddan qiynalayotgan bemorlar doim uyg'oq yotishadi.

1. Biz har 15–20–30 daqiqada palataga kiramiz, chiroqni yoqamiz, bir u bemor, bir bu bemor bilan zarur muolaja ishlarini amalga oshiramiz.

2. Har ikkinchi bemor baqirishni boshlab, maxsus tugma orqali yordamga chaqirishi mumkin.

3. Ko'rsatkichlar me'yoridan pastga tushib ketsa yoki bemor o'zi bilmagan holda va yoki ataylab niqobini (u oddiy emas, germetik) yechib yuborsa, maxsus qurilma "chinqirish"ni boshlaydi.

4. Ularga o'rinlaridan turishga ruxsat berilmagan va har bir zarurat uchun shifokorni chaqirishlari kerak.

5. Barcha eshiklar ochiq, koridor esa shovqinga to'la.

Yana bir kuzatuv: bo'linmamizda faqat 3 ayol (yana biriga ruxsat berildi) bor, qolganlarining barchasi erkaklar! Virus ayollardan ko'ra erkaklarga ko'proq yuqmoqda! Yoki u erkaklarni juda og'ir zararlaydi, ayollar esa uyularda tuzalib ketishyaptimikan?

...Shifoxonadagi ish tartibim quyidagicha: ertalab (dushanba) – ertalab (seshanba) – kechqurun (chorshanba) – kechqurun (payshanba) – o'zimizga kelamiz (juma) – dam olamiz (shanba).

Bugun tungi smenamdan qaytdim, shunda ertaga dam olamanmi? Ha-ha-ha. Ertaga ertalabdan yana ish. Keyin yana menga ertaga ishga chiq deyishadi. Mo'tadil jadval faqat normal vaziyatlar uchun, bizda esa haybarakallachilik.


Ertaga Italiyada karantin boshlanganiga rosmana ikki hafta bo'ladi. Dam olish kunlari birinchi natijalar chiqishiga umid qilyapman.

P/S: Bu paytda kundalik muallifi ertasi kuni nimadir o'zgarsa ham, yomon tarafga o'zgarishini bilmas edi...

Risolat MAXSIMOVA

tayyorladi.

2020-yil 5-may







“SAXOVAT VA KO‘MAK”
umumxalq harakati

**“SAXOVAT VA KO‘MAK” UMUMXALQ
HARAKATI – DAVLATIMIZ VA
XALQIMIZ QUDRATINING
AMALIY NAMOYONIDIR**



Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy bobomizning: "Saxovatli insonning boshiga jannat daraxtlari soya soladi", degan so'zlarida chuqur hikmat bor, albatta.

Men mana shu tashabbusni chin dildan qo'llab-quvvatlab, bu savobli ishga munosib hissa qo'shayotgan barcha vatandoshlarimizga, saxovatli tadbirkorlarimizga muqaddas kitoblarimizda aytilgan: "Yaxshilikning mukofoti – faqat yaxshilikdir", degan gapni yana bir bor eslatmoqchiman.

Ehtiyojmand, kam ta'minlangan insonlar va oilalarga mehr va hurmat bilan yordam qo'lini cho'zadigan barcha tadbirkor va fermerlarga, xo'jalik birlashmalari vakillariga, vazirlik, idora va tashkilotlarning ishchi-xodimlariga bu qilgan yaxshiliklari bir necha bor ziyoda bo'lib qaytadi.

Ta'kidlab aytaman, o'z navbatida, davlatimiz, jamiyatimiz saxovatpesha tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Ularga hech qanday og'irlik tushmaydi.

Shu ma'noda, "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati davlatimiz va xalqimiz birligini, uning beqiyos qudratini yorqin namoyon etib, yangi tariximiz sahifalaridan mustahkam o'rin oladi, deb ishonaman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

SAXOVAT – XALQIMIZGA XOS FAZILAT

Butun dunyoda tarqalgan koronavirus pandemiyasiga qarshi yurtimizda o'z vaqtida keskin choralar ko'rildi. Buning natijasida respublikamizdagi ko'plab hududlar va yuz minglab aholi virus xavfidan saqlab qolindi.

Davlatimiz rahbari ijtimoiy himoyaga muhtoj, ehtiyojmand oilalar, nogironligi bor, yolg'iz yashovchi fuqarolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor berib, hozirgi kunda vaqtincha ishlaymayotgan va yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni manzilli asosda oziq-ovqat, dori-darmon bilan ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar ko'lamini yanada kengaytirish kerakligini ta'kidladi.

Bunda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda uning hududiy boshqarmalari qoshida tashkil etilgan Homiylik



xayriyalarini muvofiqlashtirish markazlari orqali aholining ehtiyojmand qatlamlarini zarur mahsulotlar bilan ta'minlash yo'lida olib borilayotgan ezgu sa'y-harakatlarni alohida keltirish o'rinlidir.

Ushbu markazlar orqali homiy tashkilotlar hamda saxovatpesha fuqarolarimiz tomonidan aprel oyi oxiriga qadar taqdim etilgan, taxminiy narxi 22 milliard 986 million so'mlik 17 turdagi,

jumladan, 13 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari va 4 turdagi tibbiy vositalar respublikamizdagi 199 222 ta oilaga yetkazib berildi. Bunday xayriya tadbirlari izchil davom etmoqda.

Prezidentimiz shu kabi ijtimoiy himoya choralarini yanada kengaytirish, xalqimizga xos bo'lgan mehr-saxovat, o'zgalar holidan xabar olish, ularga beg'araz yordam ko'rsatish kabi yuksak insoniy tashabbuslarni yuzaga chiqarish maqsadida "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakatini hayotga tatbiq etish taklifini ilgari surdi.

Sinovli damlarni to'g'ri idrok etib, saxovat ishlariga hissa qo'shishga intilayotgan yurtdoshlarimiz safi tobora kengayib borayotgani diqqatga sazovor.

Bunga misol sifatida Namanagan tumani, "Bo'ston" mahalla

fuqarolar yig'inida yashovchi, ismini oshkor etishni istamagan ayol tomonidan qilingan katta xayriyani aytib o'tishimiz mumkin. Bu ayol Hajga borish uchun jamg'argan mablag'ini o'z mahallasidagi 40 ta ehtiyojmand oilaga tarqatib bergan. Muborak safar umidida necha yillab yig'gan pulini mahalladoshlarining ehtiyoji uchun sarflagan bu insonning himmati va saxovatidan o'rnak olsa arziydi.

Yurtboshimiz "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati davlatimiz va xalqimiz qudratining amaliy namoyoniga aylanishiga ishonaman", deya barchani mazkur harakatni ommalashtirishga, buning uchun yanada faol bo'lishga chaqirdi.

Albatta, saxovatpesha xalqimiz bunday ezgu tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi.

Rahmat MAMATOV,
*O'zbekiston Respublikasi
Mahalla va oilani qo'llab-
quvvatlash vaziri.
2020-yil 3-may*

XAYR-U SAXOVAT INSONLAR O'RTASIDA MEHR-MUHABBAT RISHTALARINI BOG'LASHGA, O'ZARO TOTUVLIKNI MUSTAHKAMLASHGA XIZMAT QILADI

Bismillahir Rohmanir Rohim.

Xayr-u saxovat insonlar o'rtasida mehr-muhabbat rishtalarini bog'lashga, o'zaro totuvlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Saxovat ko'rsatgan bandalarni Alloh taoloning o'zi mukofotlaydi. Qur'oni Karimda: "Mol (boylik) larini kecha-yu kunduz, pinhona-yu oshkora ehson qiladigan kishilar uchun Parvardigorlari huzurida (maxsus) mukofotlari muhayyodir. Ularga (oxiratda) xavf ham bo'lmas va ular tashvish ham chekmaslar" ("Baqara" surasi, 274-oyat), deb marhamat qilingan.



Yana bir jihat: ko'ngli siniq, iqtisodiy jihati oqsagan insonga mehr-oqibat ko'rsatilsa, u Haq taologa chin ko'ngildan duo qila-

Savob shunday amalki, uni bajarganingda qalbingda huzur-halovat, orom va taskin paydo bo'ladi.

Imom MOTURIDIY



di va natijada uning duosi sababli o'ylagan maqsadlarimizga yetamiz, mushkullarimiz ariydi. Zero, muqaddas kitoblarimizda aytilganidek, yaxshilikning mukofoti – faqat yaxshilik.

Mana shunday og'ir kunlarda "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati tashabbusiga "labbay" deb javob berishimiz kerak. Shu ma'noda, O'zbekiston musulmonlari idorasi tizimidagi tashkilotlar ham mana shunday xayri tashabbuslarda faol ishtirok etmoqda. Jumladan, "Vaqf" xayriya jamoat fondi karantin vaqtida ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni

qo'llab-quvvatlash maqsadida zakot mablag'lari hisobidan oziq-ovqat mahsulotlari, bemorlarga dori-darmonlar, tibbiy niqoblarni bepul tarqatmoqda.

Hozir murojaatlar onlayn qabul qilinmoqda. Murojaat qilgan insonlarning plastik kartalari-ga masofadan pul o'tkazilyapti. Fondning zakot hisob raqami-ga shu kunga qadar 80 million so'mdan ziyod zakot pullari tushgan. 500 ta xonadonga zakot mablag'larini tarqatish mo'ljal-landi. Bunday xayriya ishlari Ramazon oyi davomida yanada jadal olib borildi.

Usmonxon ALIMOV,

*O'zbekiston musulmonlari idorasi
raisi, muftiy.*

2020-yil 21-aprel

SAXOVAT VA KO'MAK QALB AMRIMIZ, EZGU MAQSADIMIZGA AYLANDI

Eng qiyin, og'ir vaziyatda ham yordamga muhtoj insonlar holidan xabar olish, mehr-muruvvat va ko'mak ko'rsatish xalqimizga xos azaliy qadriyatlardan. Ming yillar davomida qon-qonimizga singib kelgan bu qadriyatlar koronavirus pandemiyasi dunyoni o'z iskanjasiga olgan ayni damlarda yana hayotimizning bosh mezoniga aylandi.

Davlatimiz rahbarining "Koronavirus pandemiyasi davrida ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimizdagi ko'makka muhtoj insonlarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo'llab-quvvatlash ishlarining izchilligini ta'minlashga katta turtki berdi. Muborak Qurbon hayiti kunlarida boshlangan bunday saxovat tad-

birlari xalqimizni benihoya ruhlantirdi.

Chunonchi, koronavirus pandemiyasi oqibatlarini yumshatish maqsadida hamda Qurbon hayiti munosabati bilan respublika budjetidan "Saxovat va ko'mak" jamg'armasining Surxondaryo viloyati bo'limiga kelib tushgan 10 milliard so'm miqdoridagi bir martalik moddiy yordam pullari viloyatimizdagi 13 ming 193 ta ehtiyojmand oilaga sektor rahbarlari va keng jamoatchilik vakillari tomonidan yetkazib berildi.

Shuningdek, mazkur tashabbus doirasida nogironligi bo'lgan, chin yetim insonlar umrguzaronlik qilayotgan, kam ta'minlangan oilalarga birlamchi oziq-ovqat mahsulotlari hayitlik tuhfası sifati taqdim etildi.

O'z navbatida, ularning yashash sharoiti, muammolari o'rganilib, bartaraf qilish choralari ko'ril-



di. Murakkab vaziyat — koronavirus pandemiyasi davrida bu kabi ezgu ishlarning amalga oshirilishi jamiyatda inson omilini ulugʻlash, mehr-oqibat, hamjihatlik, bagʻrikenglik kabi insoniy fazilatlarini targʻib etish, odamlar oʻrtasida oʻzaro doʻstlik, birodarlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilayotir.

“Ezgulikning mukofoti faqat ezgulikdir”, deyiladi hadisda.

Bu insonlarni oʻzaro yaxshilik ulashib yashashga undaydi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan “Saxovat va koʻmak” umumxalq harakati ana shu hayotbaxsh daʼvatga aks sado sifatida namoyon boʻlmoqda. Inchunin, bugun yonimizdagi yordamga muhtojlarni moddiy va maʼnaviy qoʻllab-quvvatlash har birimizning qalb amrimiz, ezgu maqsadimizga aylangan.

Nargiza RAHMATULLAYEVA,
*Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi
Surxondaryo viloyati boʻlimi rahbari.*
2020-yil 25-aprel

YORUG' KUNLAR UMIDI



Biz azaldan tabiatga, hayotga mutlaqo boshqacha ko'z bilan qaraydigan xalqimiz. Bahorimiz o'zgacha, kuzimiz o'zgacha. Yer-u suvga mehrimiz bo'lak. Ota-bo-

bolarimiz tuproqni ham ko'zga surgan, e'zozlagan.

Xalqimizning insonparvarlik, odamiylik va o'zaro qo'llab-quvvatlash xislatlari, har bir otayot-

gan tong ulug' ne'mat ekanini har doim va hamma vaqt yodida tutishdek ulug' fazilatlari, nazarimda, ko'plarga o'rnak bo'lgudek.

Prezidentimiz tun-u kun xalq qayg'usi bilan tinim bilmay, shijoat bilan faoliyat olib borayotganini elimiz, yurtdoshlarimiz har kuni "oynayi jahon"da ko'rib turibdi. Davlatimiz rahbari har bir chiqishida birinchi galdagi vazifa – xalqimiz orasida yo'qotish bo'lmasligi va har bir insonning hayoti davlat uchun barcha narsadan ustunligini ta'kidlayotgani zamirida naqadar ulug' xalqparvarlik, millatpar-

varlik ma'nosi mujassam ekani ayni haqiqat.

Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati sinovli kunlarda xalqimizga xos muruvvat, mehr-oqibat, tashabbuskorlik va saxovatpeshalikning yaqqol namoyoni sifatida dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda.

Imonim komilki, bu kurashda O'zbekiston dunyo mamlakatlari orasida oldingi qatorda ketayapti va, albatta, tez kunlarda metin irodali, bardoshli xalqimiz bu sinovdan sharaf bilan o'tajak.

Afzal RAFIQOV,
O'zbekiston xalq artisti.
2020-yil 30-aprel

DO'STLIK VA MEHR-OQIBAT NAMUNASI

Mehr-muruvvat, hamjihatlik, saxiylik xalqimiz ardoqlagan, asrlar osha amal qilib kelayotgan go'zal fazilatdir. Koronavirus pandemiyasi hamda Buxoro va Sirdaryoda sodir bo'lgan tabiiy va texnogen ofatlar tufayli xalqimiz duch kelgan sinovli kunlarda ushbu ezgu qadriyatlar

ajdodlardan avlodlarga bezavol o'tib kelayotganini yana bir bor namoyon etdi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ilgari surilgan "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati chinakam xalq harakatiga aylandi. Bu xayrli ishlarga xorijiy davlatlarda istiqomat qilayotgan ko'p-



Parvardigor bizga nasiba qilib yaratgan ne'matlar va boyliklar ichida doim qadr-qimmat qilishimiz lozim bo'lgan, e'zozlashimiz shart bo'lgan oliy fazilat – do'stlik va mehr-oqibatdir.

Abu Lays SAMARQANDIY



lab vatandoshlarimiz ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

Jumladan, rossiyalik vatandoshimiz, taniqli tadbirkor Alisher Usmonov ham O'zbekistonda koronavirusga qarshi kurash doirasidagi tadbirlarni qo'llab-quvvatlash uchun 20 million dollar ajratdi.

Ushbu mablag' Toshkent viloyati Zangiota tumanida koronavirus sababli yurtimizga olib kelin-

gan yurtdoshlarimizni karantinga olish uchun zarur bo'ladigan shifoxona jihozlanishi uchun sarflandi.

Bundan tashqari, Alisher Usmonov Namangan viloyatidagi qariyb 5 ming oilaga jami 12,5 milliard so'mlik moliyaviy ko'mak ko'rsatdi. Namangan shahridagi 3 mingta, Chust tumanidagi 1 mingta, Namangan tumanidagi 997 ta yakka-yolg'iz, boquvchisini yo'qotgan yoki





nogironligi bo'lgan oilalarga moddiy yordam berildi.

Ajratilgan mablag' "O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki" plastik kartalariga o'tkazilib, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari, sektor vakillari va bank xodimlari tomonidan ehtiyojmand oilalarga yetkazib berildi.

Shuningdek, Sirdaryo viloyatining Sardoba tumanidagi toshqin oqibatida jabr ko'rgan aholiga ko'mak berish maqsadida Alisher Usmonov 15 million dollar miqdorida xayriya mablag'i ajratdi. Ushbu mablag'ning 10 million

dollari uy-joylaridan ajralgan yurtdoshlarimizga yordam uchun 5 million dollari esa Qozog'istonning Maqtaraal tumani aholisiga uy-joy qurish uchun yo'naltirildi.

Bundan avvalroq, Alisher Usmonov Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi mingta oilaga 2,5 milliard so'm hamda Namangan viloyatida "Obod qishloq" dasturini amalga oshirish uchun 50 million dollar miqdorida homiylik yordami ko'rsatgan.

Mazkur mablag'larga aholi uchun shinam va qulay uylar, yo'l-lar, infratuzilma obyektlari barpo etildi.

Suxrob PARPIBOYEV,
Namangan viloyati

YAXSHILIK

*Muhtojlarga Haq najoti – yaxshilikdir,
Yaxshilarning bor hayoti – yaxshilikdir,
Yaxshilikning mukofoti – yaxshilikdir,
Saxovatning sohiblari – daryodillar,
Ko'mak bergan, olganni ham Xudo qo'llar.*

*Urush ko'rgan, ocharchilik, sitam ko'rgan,
Ajdodlarim azoblarin olam ko'rgan,
Bir mayizni qirqaqa bo'lib, baham ko'rgan,
Tilda shukur, dilda Alloh zikri bilan,
Yashaganlar yaxshilikning fikri bilan.*

*Yotning nomin so'ramay ham taom tutgan,
O'zgalardan alik kutmay, salom tutgan,
Savob qilib o'sha oni – kim unutgan?
Bu o'zbekim – mehri ummon millat bo'lgan,
Yetmish ikki tomirida himmat bo'lgan.*

*O'ng qo'lining ehsonini so'li bilmay,
Botmon bersa dili bilib, eli bilmay,
Odamiylik orazini oshkor qilmay,
Bizning mardlar saxovatga sulton bo'lgan,
Ko'ksi faqat xush duodan osmon bo'lgan.*

*Ey Vatandosh, o'zligingni unutmah hech,
El boshiga ish tushganda mum yutma hech,
Saxovat qil, ko'makdosh bo'l, bo'lmasin kech,
Jism-u jonda – Ramazonning shukuhini bor,
Sendan rizo ajdodlaring shod ruhi bor.*

*Jang bor joyda, bir Vatanning xalqi bir jon,
Siz-u bizdan uqfo kutar O'zbekiston,
Yaqin qoldi, kunlar kelar omon-omon,
Millatimning xush kalomi – yaxshilikdir,
Saxovatning asl nomi yaxshilikdir.*



Mahmud TOIR,
O'zbekiston xalq shoiri



SHODIYEV XALQARO FONDI KORONAVIRUSGA QARSHI KURASHDA XALQIMIZGA KAMARBASTA BO'LMOQDA



SHODIYEVNING XALQARO FONDI

2020-yilning 19-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning salomatligini saqlash, ish bilan ta'minlash va daromadini oshirish singari chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

ICF – Xalqaro Shodiyev fondi O'zbekistondagi muhtoj aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamlı xayriya dasturini amalga oshirish orqali hukumatning koronavirus tarqalishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarini qo'llab-quvvatlamqda.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash dasturining birinchi bosqichi mamlakat bo'ylab barcha keksa yoshdagilar va kam

ta'minlangan oilalarni oziq-ovqat mahsulotlari va dezinfeksiya vositalari bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Xalqaro Shodiyev fondining O'zbekistondagi vakolatxonasi mamlakat hukumati va Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining virusli infeksiya pandemiyasi sharoitida zarur qoidalarga amal qilish bo'yicha tavsiyalarini bajarishga oid da'vatiga qo'shiladi. Insonparvarlik yordami jamlanmasi

ichiga o'zbek tilidagi tavsiyalar ham joylashtiriladi.

Oqil va dono, matonatli o'zbek xalqi hamjihatlikda bu xatarni yengib o'tishiga hech qanday shubha yo'q. Xalqaro Shodiyev fondi O'zbekiston Respublikasi hukumatining mamlakat bo'ylab koronavirus tarqalishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarini samarali qo'llab-quvvatlashga bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etadi.

O'ZA

MUNOSIB HISSA

Koronavirus infeksiyasining tarqalishiga qarshi kurashish doirasida tashkil etilgan “O‘zbekiston Mehr-shafqat va salomatlik” jamoat fondi faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ishiga mamlakatimizdagi ko‘plab davlat va nodavlat tashkilotlari, firma va kompaniyalar, ishlab chiqarish korxonalari, tadbirkorlar munosib hissa qo‘shdilar.



Toshkent viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan “Maxam Chirchiq” aksiyadorlik jamiyati jamoasi bu xayrli tashabbusga “labbay” deb javob berib, ushbu jamg‘armaga 1 milliard so‘m miqdorida xayriya mablag‘i ajratdi.



UZBEKNEFTGAZ

“O‘zbekneftgaz” kompaniyasi ham xalqimizga xos saxovat va oliyhimmat, tantilik xislatlarini o‘z amaliy harakatlari bilan namoyon etib, 1 milliard 500 million so‘m miqdoridagi xayriya mablag‘ini kam ta‘minlangan aholini qo‘llab-quvvatlash maqsadida yo‘naltirdi.



Uzkabel
Technology for people

El-yurtimiz boshiga tushgan sinovli kunlarda “O‘zkabel” hamda “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatlari ham bu

ezgu va xayrli ishlardan chetda qolmadi. "O'zkabel" aksiyadorlik jamiyati tomonidan ko'rsatilgan moliyaviy ko'mak miqdori 2 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, "Hududiy elektr tarmoqlari" korxonasi 1 milliard so'mlik xayriya ishlarini amalga oshirdi.



OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI

Shuningdek, mazkur fondga "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati 500 million, "Uzauto motors" ak-



siyadorlik jamiyati 507 million 418 ming, "Lukoil Uzbekistan operating company" kompaniyasi 476 million 500 ming, "Coca-cola" kompaniyasi 600 million so'm miqdorida moliyaviy ko'mak ko'rsatdi.



UZASU

O'QUVCHILAR UCHUN 184 MILLION SO'MLIK OZIQ-OVQAT ULASHILDI



Karantin sharoitida o'quvchilar o'z uylarida ta'lim olmoqda. Ularni sinovli kunlarda qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, kam ta'minlangan, ko'p bolali oilalarga ko'mak ko'rsatishga prokuratura organlari xodimlari alohida e'tibor qaratmoqda.

Shu maqsadda Sirdaryo viloyati prokuraturasining tashabbusi bilan "Ezgulik karvoni" tashkil etildi. Ushbu karvon orqali viloyatdagi 2-sektor hududida joylashgan va prokurorlar otalig'ida bo'lgan maktablardagi 1-sinfdan 5-sinf-gacha bo'lgan 5 ming 818 nafar



hamda uyda ta'lim oluvchi 96 nafar o'quvchiga karantin qoidalariga rioya qilgan holda 7 turdagi 184 million so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berildi.

Shu bilan birga 11 nafar prokuratura organlari faxriylariga 10 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari ham ulashildi.

O'zA.
2020-yil 18-aprel

ELDOSHLARIM, DILDOSHLARIM

Sinovli kunlar tasallisi



Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri

Olam yasholmagay ko'klam, yashilliksiz,
Odam zoti hech narsadir ahilliksiz.
Yashasaydi razilliksiz, baxilliksiz –
Bir kam dunyo but bo'lardi taqchilliksiz.
Bu dunyoda shunday yurt bor – Mehrdiyori,
Odamlari yasholmaydi yaxshiliksiz.

Mehrdiyor dedim, asli mehri daryo,
Bir-biriga mehr-u sehri daryo-daryo.
Shaharlarim, qishloqlarim, dasht-u sahro,
Og'amdirsiz, inimdirsiz, opam, singlim –
Nomingizni tutib bo'lmas ayro-ayro.

Matonatni jonga joylab kelgan xalqmiz,
Og'ir kunni sabr bilan yenggan xalqmiz.
Bir mayizni qirgqa bo'lib yegan xalqmiz,
Tarix guvoh, jamlab ilm-u ma'rifatni,
Peshonasi yulduzlarga tekkan xalqmiz.

Taskin uchun qamishdan ham kuy chiqargan.
Xush xabarning peshvoziga qo'y chiqargan.
Pok niyatdan qancha fikr-u o'y chiqargan.
O'ylab-o'ylab, hajga yiqqan puliga ham
Qaqrab yotgan qishlog'iga suv chiqargan.

Eldoshlarim, dildoshlarim, tildoshlarim,
Hajga bormay hoji bo'lgan eldoshlarim,
Dildoshlarim, tildoshlarim, yo'ldoshlarim,
Bu sinovli kunlar ham tez o'tar-ketar,
Bu sinovli-yilda aziz yildoshlarim.

Arbodbirsiz, vazirdirsiz savob ishga,
Tabibdirsi, habibdirsi savob ishga.
O'z dardingiz, tashvishingiz yutib ichga,
Kecha demay, kunduz demay el-uluschun
Siz hozir-u nozirdirsiz savob ishga.

Ezgulikdan inson umri firuz bo'lgay,
Toki odam bir-biriga dilso'z bo'lgay,
Oq dasturxon to'shar hayot – rizq-ro'z bo'lgay,
Mir Alisher bobomiz lutf etgan misol –
Har kunimiz Navro'z bo'lgay, Navro'z bo'lgay!

Olam ahli bilan bukun darddoshdirmiz,
Darddoshdirmiz, demak birmiz, qardoshdirmiz,
Qardoshdirmiz, demakkin biz qalbdoshdirmiz.
Qalbdoshlikdir birdamlikning boshlanishi,
Birdam bo'lsak, bizlar buyuk bardoshdirmiz.

Mehrda ham shafkatlisan, ona yurtim,
Bitmas mehr-u shafqatlisan, ona yurtim,
Ezgu shior – da'vatlisan, ona yurtim,
Mehring bilan bag'ring ochib, olam aro
Davlatlisan, davlatlisan, ona yurtim.



AJDODLARIMIZ IBRATI

O'zbek xalqi azaldan xayr-u saxovat, ko'mak, muhtojga yordam berishda namuna bo'lgan.

Manbalarda yurtimiz yerlari serhosil va unumdor, deb zikr qilinishi barobarida odamlari saxovatli, ilimli, insonparvar ekani alohida ta'kidlanadi. Jumladan, O'rta asrlar tarixchisi va geografi Qazviniyning "Mamlakatlar tarixi va odamlar xabari" nomli kitobida Movarounnahr haqida quyidagi ma'lumotlar yozib qoldirilgan:

"Ushbu mamlakat aholisi bag'rikeng, ma'rifatparvar, dinda solih va yaxshi insonlar bo'lib, ular go'yo bir oiladek, o'zaro ittifoq, bir-biriga ko'mak berib yashaydilar. Ushbu mamlakat odamlari o'ta saxovatli, kengfe'l bo'lgani uchun har qanday mahalliy yoki chetdan kelgan mehmonga iltifotli bo'ladilar hamda bu bilan mehmon o'zini o'z uyidagidek his etadi. Har bir kishining himmati

baland, o'z qo'lidagini boshqalarga beradi, tanigan va tanimanganga ham xayr-u saxovat qiladi. Buning evaziga esa hech narsani tama qilmaydi, mukofot kutmaydi".

Boy tariximizni eslaganda, buyuklarning xayrli ishlarini eslash, insonparvarlik borasidagi ibratli hayotiy o'gitlarini yodga olish foydadan xoli emas.

O'rta Osiyoda hanafiylik mazhabining keng tarqalishiga katta hissa qo'shgan Abu Hafs Kabir Buxoriy hayoti ko'pchilikka namuna bo'lgan. U zot muhtojlar mushkulini oson qilish va ocharchilik yillarida bozordagi narx-navoning oshib ketmasligi uchun bor mol-mulkini sarflagani bunga misoldir.

Rivoyat qilinishicha, Buxoroda bir yil qahatchilik bo'lib, ma'lum o'lchamdagi bug'doyning bahosi 100 tangaga yetganda, Abu Hafs

*Qaysi bir musulmon boshqa bir musulmonni kiyintirsa,
Olloh uni jannat yaxshiliklari bilan kiyintiradi.
Qaysi bir musulmon och qolgan bir musulmonni yedirsa,
Olloh unga jannat mevalaridan yediradi.
Kim chanqagan bir musulmonni qondirsa,
Olloh uni asulday taza sut bilan qondiradi.*



*Abu Homid G'AZZOLIYning
"Mukoshafat ul-qulub" asaridan*

Kabir Buxoriy bozordagi barcha bug'doyni shu narxda sotib olib, aholiga o'n tanga arzoniga, ya'ni 90 tangadan sotgan hamda bu bilan o'z hisobidan muhtojlarga ko'mak ko'rsatgan ekan.

Olim bu bilan kifoyalanmay, keyingi bosqichlarda 80 tanga, 70 tanga, toki bug'doy bahosi 10 tangaga tushgunga qadar narxini tushirib boravergan va natijada o'z vatandoshlari joniga oro kirgan. Uning hisobdori: "Xojam, biz ulkan zarar ko'rdik. Xazinamiz deyarli bo'shab qoldi", deganida, Abu Hafs Kabir Buxoriy: "Sen bilmabsan, biz oxirat xazinasi to'ldirdik", deb javob bergan ekan.

Allomaning saxovati bu bilan to'xtab qolmagan. Aytilishicha, qarz olganlarga qarzni qaytarishni so'ramas, aksincha, unutilib yuborar ekan.

O'rta asrlarda Vatanimiz hududida muhtoj kishilar uchun xolis xizmat qilgan, faqat yaxshilikni o'ylab, ezigulik ulashishdan char-

chamaydigan, borini o'zgalari bilan baham ko'radigan kishilarni javonmard, ya'ni "mard yigit" deb atash, hatto ularning ezgu qarashlarini "javonmardlik harakati", deb ulug'lash urfga kirgan. Ushbu g'oya tasavvufiy qarashlarga, uning amaliy faoliyatiga chuqur singib ketgan.

Tariqat tarixiga nazar solar ekanmiz, Xoja Ahror Valiy hazratlarining ham saxovat va muruvvatda ibrat bo'lganiga guvoh bo'lamiz.

Umarshayx Mirzo Toshkentning bir yillik xirojini talab qilib, lashkar tortib kelganda, shahar aholisi 250 ming dinorni tashkil etuvchi bu xirojni qashshoqlik tufayli to'lolmagan. Shunda Xoja Ahror Valiy Umarshayxga bu xirojni o'zi to'lagan, shuningdek, Toshkent aholisining qishdan qiynalmay chiqishi uchun yana 70 ming dinor tuhfa qilgan.

Tariqatning boshqa bir peshvosi Shayx Zayniddin Toshkandiy Toshkent shahrining buyuk ho-

miylaridan hisoblanib, insonlarga ilm, ziyo tarqatish barobarida, mo'g'ul bosqinchilari zulmidan ozor chekkan xalqning og'irini yengil qilish, muhtojlarga ko'mak ko'rsatishni alohida ishtiyoq bilan amalga oshirgan.

Shuning sababidan uning nomi tarixga toabad yaxshilik bilan muhrlangan.

Ikkinchi jahon urushi davrida urush olovi ichida qolgan hududlardan yurtimizga 1 milliondan ortiq kishilar ko'chirib keltirildi.

Xalqimiz ularga boshpana berib, so'nggi burda nonini ham baham ko'rib, ota-onasidan ajralgan bolalarni o'z farzandlari qatori tarbiyasiga olib, butun dunyoga haqiqiy insonparvarlik fazilatlarini namoyish etdi.

Masalaning yana bir e'tiborli tomoni shundaki, o'zbek oilalariga qabul qilingan birorta bola bolalar uyiga topshirilmagan. Ushbu chin insoniylikni bugungi kunda xorijdagi ko'plab mutaxassislar va oddiy fuqarolar ham e'tirof etishmoqda.

Shonli tariximizdagi bunday namunali misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Alisher Navoiyning homiyligida ijod qilgan Husayn Voiz Koshifiy saxovatni ta'riflab, shunday deydi:

“Saxovat yaxshi nom qozonishning sababidir.

Ehson esa ko'ngillarga yoqmoqlik sababidir.

Hech qaysi sifat va xislat odamlarga, xususan, ulug' va davlatmandlarga karam va saxovatdan yaxshiroq bo'la olmaydi”.

Allomalarimiz merosida boylik, mol-u dunyo insonlarga Yaratgan tomonidan xayr-saxovat uchun omonat berilgani, u ado etilishi bilan yanada ziyoda bo'lishi uqtiriladi.

Xalqimizning qoniga buyuk ajdodlardan meros qadriyatlar, insonparvarlik, saxovat, hamisha ko'makka shaylik singib ketgan. Bu ezgu fazilatlar bugungi kunda yurtdoshlarimizning xatti-harakatida, o'zaro hamjihatligida, birdamligida namoyon bo'layotganini ko'rib, shubhasiz, qalbimiz faxr-iftixorga to'ladi.

Shu ma'noda, “Saxovat va ko'mak” umumxalq harakati faqatgina pandemiya sabab qiynalib qolgan kishilarga emas, balki ko'makka muhtoj barcha vatandoshlarimiz uchun umid va najot manbai bo'ldi.

Yurtboshimiz taklifi bilan hayotimizga keng tatbiq etilgan “Saxovat va ko'mak” umumxalq harakati tufayli xalqimiz orasida keng quloch yoygan ezgulik, mehr-oqibat, saxovatpeshalik va savobtalablik davom etaveradi.

Davron MAXSUDOV,
*O'zbekiston xalqaro islom
akademiyasi dotsenti*

HARKI ISHNING HAQDAN MUKOFOTI BOR

*Qancha buyuk edi Inson g'ayrati,
Ne sirlar kaliti oltin boshida?
Lek dunyo sarvati, zamon haybati
So'roqday egildi zarra qoshida.*

*Xatarda qolganda bashariy xilqat,
Nogoh silkinganda zarbadan zamon.
"Men hali borman!" deb keldi Oqibat,
"Borman!" deb qaddini ko'tardi Imon.*

*O'zing asra endi, ey qodir Xudo,
Jonimiz, qalbimiz va sha'nimizni.
Har qarich yerida bitta avliyo
Xoki yotgan aziz Vatanimizni.*


*Bu yurtdan aritma iqbol nurini,
Yiroq tutma, ezgu orzularidan.
Piri badaolat qil keksalarini,
Ayirma, go'daklar kulgularidan.*

*Yerga farishtalar enganday go'yo
Zo'r najot qaytajak iltijolardan.
O'tgan daholardan so'raymiz duo,
Shu zaminda yotgan avliyolardan.*

*Najot ilinjida qolganda xilqat,
Umid izlaganda zamin-u zamon.
"Men hali borman!" deb keldi Oqibat,
"Borman!" deb qaddini ko'tardi Imon.*



**Eshqobil SHUKUR,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi**



PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING XALQNI, MILLATNI BIRLASHTIRISH YO‘LIDAGI YANA BIR MUHIM TASHABBUSI

Xalqimizning mehr-saxovat, oqibat va himmat kabi yuksak fazilatlari namunasi sifatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan yurtimizda yo‘lga qo‘yilgan “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakati xorij jamoatchiligida keng qiziqish uyg‘otdi. O‘tgan bir oydan ziyod vaqt davomida nufuzli ommaviy axborot vositalari, taniqli ekspertlar mazkur harakat faoliyati, unda o‘zbek xalqining saxovatlik, mehr-muhabbat xislatlarini alohida e‘tirof etyapti.

Jumladan, Lenta.lv axborot portalida (Latviya) yozilganidek, O‘zbekiston aholining ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarini himoya qilish uchun davlat va milliy biznesning kuch va resurslarini birlashtirish borasida ijobiy namunadir. Dunyo davlatlari har biri o‘z sharoiti, imkoniyatlari va resurslaridan kelib chiqqan hol-

da pandemiya sharoitida milliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirayotgan bir paytda “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakati hamda tegishli jamg‘armaning tuzilishi, latviyalik jurnalistlarning fikricha, mutlaqo yangicha tashabbus bo‘lib, o‘zining mohiyati va natijalari bilan e‘tiborni tortadi.

“Rosbalt” tahliliy-axborot agentligi (Rossiya) yozishicha, pandemiya sharoitida respublika donorlardan moliyaviy mablag‘lar qidirmoqda va topmoqda, strategik tarmoqlarni rivojlantirmoqda, turli xorijiy shiriklar, shu jumladan, Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlamoqda. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mantiqan asosli shakl kasb etib, iqtisodiyotning to‘laqonli faoliyati uchun resurslarni saqlab qolgan holda pandemiyaning

keyingi davrda ijobiy natija berishi kutilmoqda.

“Saxovat va ko‘mak” loyihasi doirasida “davlat aholiga tadbirkorlik subyektlari orqali yordam berishi” e‘lon qilindi, deya xabar qiladi agentlik. Homiy-larga ular aholiga ko‘rsatgan yordam miqdoridan kelib chiqqan holda davlat tomonidan soliqqa tortish, lizing, kredit va boshqa sohalarda turli imtiyoz va preferensiyalar beriladi. Jumladan, umumiy qiymati qariyb 369 million dollar-ga teng soliq imtiyozlari berilib, ular qo‘shilgan qiymat solig‘ini tezkor qaytarish, sayyohlik kompaniyalari, mehmonxonalar, aviatashuvchilarni mol-mulk va yer solig‘idan ozod qilish, xo‘jalik subyektlarining muddati o‘tib ketgan qarzdorligi uchun jarimalarni bekor qilishni qamrab oladi.

“Respublika hududlarida tadbirkorlarni va, ayniqsa, eksport bilan shug‘ullanuvchi korxonalar-ni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha shtablar tashkil etildi. Natijada faoliyati eksportga yo‘naltirilgan korxonalar o‘z ishini tiklab, fuqarolar o‘z ish joylariga qaytish imkoniga ega bo‘ldilar. Qishloq joylarda yashaydigan va dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan aholi “Saxovat va ko‘mak” diqqat markazidagi masalalardan biri bo‘lib, ularga qishloq xo‘jaligi kooperativlari va issiqxonalar tashkil etishda yordam beriladi... Umuman olganda, O‘zbekis-

ton kelajakka qarab ishlamoqda”, deyiladi “Rosbalt” tarqatgan maqolada.

“National Herald Tribune” gazetasi muxbiri (Pokiston) O‘zbekistonning koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurash borasida muvaffaqiyatlarga erishib, shunday og‘ir sharoitda aholi va biznesni ham qo‘llab-quvvatlayotganini ta’kidlaydi. Mamlakatda joriy qilingan qoidalar aholi tomonidan qo‘llab-quvvatlangani, fuqarolarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha qat’iy tizim yaratilgani, mamlakat tashqi savdo aloqalarini jonlantirish uchun yangi tashabbuslarning joriy qilinishi samarasi o‘laroq O‘zbekiston “COVID-19” virusiga qarshi kurash bo‘yicha boshqalar o‘rnak olsa arziydigan tajriba va amaliyotni namoyon etmoqda.

National Herald
TRIBUNE
 Editor-in-Chief: Ghulam Akbar

“Presseaktuell” axborot-tahliliy portali (Germaniya) sharhlovchilarining fikricha, “Saxovat va ko‘mak” loyihasi nafaqat aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, balki mahalliy biznesning xayriya faoliyatini kengaytirish, uning rivojlanishi uchun qo‘shimcha “rag‘batlantiruvchi imkoniyatlar” yaratishga qaratilgan. Mamlakatda amalga oshirilayotgan cho-

ra-tadbirlar ish o'rinlarini tiklash orqali ichki talabni orttirish va natijada milliy iqtisodiyotning izchil o'sish sur'atlarini ta'minlash imkonini beradi.



“The Times Kuwait” gazetası (Quvayt) muxbiri “Saxovat va ko'mak” tashabbusining muborak Ramazon oyida amalga oshirilganiga alohida e'tibor qaratdi. Muborak oyda amalga oshirilgan ezgu sa'y-harakatlar aholining yordam va ko'makka muhtoj qatlamlarini aniq, manzilli asosda qamrab olish hamda ularni tizimli qo'llab-quvvatlashga xizmat qildi. Hukumat farmoyishi bilan-shakllantirilgan maxsus jamg'arma mablag'lari ijtimoiy himoyaga muhtoj, shu jumladan, ko'p farzandli oilalarga, nogironligi bo'lgan shaxslarga va yolg'iz qariyalarga, o'z daromadini yo'qotgan,


vaqtincha ishsiz bo'lgan jismoniy shaxslarga yordam berish uchun yo'naltirilmoqda. Asosiysi, ushbu tashabbus mahalliy tadbirkorlar tomonidan qizg'in kutib olindi va o'tkazilgan xayriya mablag'lari aniq, tizimli choralar asosida hayotga taqdim etilmoqda.

“Bernama” xalqaro axborot agentligi (Malayziya) jurnalisti yozganidek, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan umumxalq harakati doirasida tadbirkorlar, fermerlar, korxonalar birinchi kundanoq qishloq, shaharlardagi kam ta'minlangan oilalar a'zolarini, ishsiz ayollar va yoshlarni aniqlab, o'z jamoalariga qabul qilyapti. Ularni ish bilan ta'minlab, amaliy ko'mak beryapti. Ayniqsa, respublikaning turli nuqtalarida “Saxovat va ko'mak burchaklari” tashkil etilgani yuqori baholanadi.



BERNAMA

Polshaning “SIEWIE.TV – Sieradzkiye News Television” televizion portalida “O‘zbekiston koronavirusga qarshi kurashmoqda” sarlavhali maqola e‘lon qilindi. Unda qayd etilishicha, O‘zbekiston dunyoning ko‘plab davlatlari qatori “COVID-19” pandemiyasi bilan bog‘liq vaziyatda iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarida qator muammolarga duch kelmoqda. Mamlakat rahbariyati hozirgi sharoitda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun davlat va biznes sa‘y-harakatlarini birlashtirdi. Aholining yordamga muhtoj qatlamlarini himoya qilish, sanoat korxonalari, qurilish sohasi va infratuzilmaning to‘liq ishlashini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.



“Shu ma‘noda Prezident Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan “Saxovat va ko‘mak” loyihasi jamoatchilik va biznes vakillarining e‘tiborini qozonib, tadbirkorlar o‘zlari faoliyat yuritayotgan hududlarda ijtimoiy himoyaga muhtoj odamlarni beg‘araz qo‘llab-quvvatlamoqda. O‘z navbatida, davlat ham saxovatpesha ishbilarmonlarga soliq, lizing, ssudalar va zarur resurslardan foydalanish uchun turli imtiyoz va preferensiyalar taqdim etmoqda... Ushbu tashabbus davlat va xalq birdamligining yorqin namunasi bo‘ldi”, deyiladi reportajda.

“Xalq so‘zi”.
2020-yil 29-may

“COVID-19” pandemiyasi dunyoning barcha mamlakatlari-ga ta’sir ko’rsatdi va O’zbekiston ham bundan mustasno emas. Respublika rahbariyati ushbu inqiroz oqibatlarini mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohaga minimallashtirishga qaratilgan qat’iy chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Shu o’rinda O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning pandemiya va karantin davrida aholiga pul, kundalik iste’mol mol-lari, dori-darmon va mahsulotlar shaklida ijtimoiy ko’mak berish maqsadi bo’lgan “Saxovat va ko’mak” jamg’armasini yaratish ta-shabbusini alohida ta’kidlashni istardim.

Hukumatning bandlik masalalariga katta e’tibor qaratayotgani ham quvonarli holdir. Jumladan, Bandlikka ko’maklashish davlat jamg’armasi va jamoat ishlari jamg’armasi mablag’lari hisobidan 140 mingdan ziyod fuqarolar ish bilan ta’minlangan. Turli sohalar-da, jumladan, qishloq xo’jaligi, xizmat ko’rsatish, qurilish, infratu-zilma, ta’lim va boshqa tarmoqlarda ish o’rinlari yaratish imkoniya-ti ta’sirni yumshatishga yordam beradi.

Roy Entoni Rojers,
Malayziya universiteti professori

Pandemiya sharoitida O’zbekiston rahbariyati va xalqining hamjihatlik hamda birdamlikdagi xatti-harakatlari mamlakatda, bir tomondan, davlat va fuqarolik jamiyati konstruktiv hamkorlik qilishga tayyorligini, boshqa tomondan esa rasmiy Toshkent vaziyatdan qat’i nazar qo’shni davlatlarni qo’llab-quvvatlashga tayyor ekanini yana bir bor ko’rsatdi.

Said Xolid Jeffri,
*Global va strategik tadqiqotlar
markazi prezidenti,
pokistonlik ekspert*

SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI TIZIMI XODIMLARI HAM SAXOVAT TADBIRLARIDA ISHTIROK ETMOQDA

Hozirgi murakkab va sinovli davrda jamiyatimizda insonparvarlik, mehr-shafqat va o'zaro xolis yordam singari ezgu g'oyalarga qaratilgan umumxalq harakatida suv xo'jaligi tizimining ko'p ming sonli jamoasi ham munosib ishtirok etmoqda.

Boshlangan ezgu harakatlarining davomi sifatida Suv xo'jali-

ixtiyoriy ravishda o'z hisobidan 100 ming so'm miqdoridagi mablag'ni mazkur fondga beg'araz yordam sifatida o'tkazib bermoqda. Joriy yil 17-aprel holatiga ko'ra, jamoat fondiga 2,2 milliard so'm mablag' tushirildi, qisqa muddatlarda bu ko'rsatkich qariyb 4 milliard so'mga yetkaziladi.

*Davron elining jismida ham jon bo'lg'il,
Ham jonlarig'a moyai darmon bo'lg'il.*

Alisher NAVOIY



gi vazirligi tizimidagi tashkilotlar "O'zbekiston mehr-shafqat va salomatlik" jamoat fondiga mablag' o'tkazish aksiyasini uyushtirish tashabbusi bilan chiqdi. Xususan, tizimdagi barcha tashkilotlar xodimlari

Bugungi kunga kelib barcha suv xo'jaligi tashkilotlari qoshidagi yordamchi xo'jaliklarda qoramol, qo'y, echki, tovuq, quyon, o'rdak boqilyapti. Sun'iy suv havzalarida baliq yetishtirilyapti. Issiqxonalar va ochiq maydon-

larda qishloq xo'jalik ekinlari parvarishlanmoqda. Davlatimiz rahbarining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ichki talabni to'liq ta'minlash, aholi daromadlari va farovonligini oshirish bo'yicha bergan topshiriqlaridan kelib chiqib, suv xo'jaligi tashkilotlari qoshidagi yordamchi xo'jaliklar faoliyat ko'lami kengaytirilmoqda.

Aksiya doirasida uzoq yillar suv xo'jaligi tizimida samarali

mehnat qilgan nuroniy keksalarimiz e'zozlanib, ularning holidan xabar olinmoqda. Shuningdek, faxriy pedagoglar, ko'makka muhtoj insonlar, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan oilalar, nogironligi bor xodimlarga tashkilotlar qoshidagi yordamchi xo'jaliklarda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarqatilmoqda.

Shuhrat SUYUNOV,
*O'zbekiston Respublikasi Suv
xo'jaligi vazirligi
matbuot kotibi.*
2020-yil 19-aprel

HIMMAT



Iqbol MIRZO,
O'zbekiston xalq shoiri

*Insonlik belgisi tik oyoq emas,
Yoki dalolati zabon bo'lmagay.
Ulov mingan har kim otliq sanalmas,
Libosdan ham odam ayon bo'lmagay.*

*Saxovatdan ma'lum kishi siyrati,
Xayr-u ko'makdadir odam ziynati,
Qimmatin oshirar qilgan himmati,
Bexayrga Haqdan ehson bo'lmagay.*

*Qo'shnisi och turib, ishrat qurgan kim?
Toshqinni tomosha qilib turgan kim?
Bular bizdan emas, Xudo urgankim,
Bundan-da nodonroq nodon bo'lmagay.*

*Bo'ron yomon, undan yomonroq vahm,
Kim quduq qazar, kim kavlaydi lahm.
Bugun singlingga qil silayi rahm,
Ertaga hojat yo imkon bo'lmagay.*

*Bolarini qara, tinmaydi shuyam,
Yarador sherigin ilg'aydi shuyam.
O'zini tortishni bilmaydi shuyam,
Ulush yig'ilmasa, xirmon bo'lmagay.*

*Kimgadir non kerak, kimga shirin so'z,
Mehrta tashnadir javdiragan ko'z.
El bo'lg'in, yaxshilik qilishga shosh, do'st,
Eldan chiqqan gumroh eson bo'lmagay!*

*Qo'li, ko'ngli, yuzi ochiq xalqim bor,
Oqibatda tengsiz, desam haqqim bor.
Hotam tuprog'iga saxiy talqin bor:
Bunday qutli o'zga makon bo'lmagay.*

*Ko'klam chaqmog'idek bu kunlar o'tar,
Faqat ko'k chirog'in yuzingga tutar.
Sinov fursati bu!
Sinovli bu davr...
Mashaqqat chekmasang, davron bo'lmagay.*

*Yurtboshi ko'tarsa yurtni boshiga,
O'zi yetib borsa miskin qoshiga,
Himmat qo'lin bersa keksa-yoshiga...
Chetda turgan befarq – inson bo'lmagay!*



TASHABBUSNI TADBIRKORLAR BIRDEK QO‘LLAB-QUVVATLAYDI



“Imkoniyatidan kelib chiqib, qaysidir tadbirkor bir oyda, misol uchun 10 ta, boshqa biri esa 20 ta oilaga ko‘maklashishi, eng muhimi, muhtoj oilalar a‘zolarini ishga jalb qilishi mumkin. Davlat tomonidan, o‘z navbatida, bunday tadbirkorlarga soliq, lizing, kredit to‘lovlari, zarur resurslar bilan ta‘minlash bo‘yicha turli imtiyoz va preferensiyalar beriladi. Ya‘ni, bu aholiga davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlari

orqali ko‘rsatiladigan saxovat va ko‘mak bo‘ladi”.

Prezidentimizning bu fikri men kabi minglab tadbirkorlarni bugungi sinovli kunlarda yon-at-rofimizdagi ehtiyojmand va muhtoj oilalarga yordam ko‘rsatishdek ezgu ishlarga undadi. Chunki tadbirkor saxiylik qiladi, buning ortidan hurmat, obro‘ orttiradi, davlat esa uning bu ishiga yarasha imkoniyat, imtiyoz beradi.

Davlatimiz rahbarining bu tashabbusini qo‘llab-quvvatlab, “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakatiga qo‘shildik. Avvalo, korxonamiz tasarrufida alohida bog‘dorchilik uyushmasi tashkil etdik. Uning ixtiyoridagi 600 gektardan ziyod yerda yangi tokzorlar barpo etish ishlarini boshladik. Buning uchun mingta oilani qaramog‘imizga olib, shundan 500 dan ziyod kambag‘al oilani kooperativga doimiy ishga oldik va yangi

tokzorlar orasini ularga bo'lib berdik. Ayni kunlarda ular bu maydonlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni boshladi. Yana 500 oilaga qirq kunda hosil olsa bo'ladigan bodring urug'ini tarqatdik. Shuningdek, Samarqand shahrining Qorasuv massivida barpo etilayotgan ko'p qavatli uylar qurilishiga 100 kishini ishga oldik. Muhimi, ularning uch oylik oziq-ovqat ta'minoti, dala va qurilish obyektiga kelib-ketish xarajatlarini o'zimiz qoplaymiz.

Biz yangi ish o'rinlari yaratish uchun yana bir necha istiqbolli loyihani amalga oshirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Shulardan biri Samarqand tumanining tog'li hududida

2 ming gektarlik intensiv bog' barpo etish loyihasidir. To'liq tomchilatib sug'orish tizimida tashkil etiladigan bog' loyihasi shu yilning oxirigacha amalga oshiriladi va bu yerda 2 ming kishi doimiy ish o'rniga ega bo'ladi. Umuman olganda, uyushmamizda ishlovchilar soni 10 ming nafarga yetadi.

Bu ezgu ishlarga vijdon amri bilan davlatimiz va xalqimiz oldidagi farzandlik burchimizni bajarish uchun qo'l uryapmiz. Chunki Prezidentimiz shuncha imkoniyat yaratib bermaganida, qo'llab-quvvatlamaganida, biz bugun tadbirkorlik faoliyatimizni rivojlantira olmagan, shunday marralarni ko'zlab turmagan bo'lar edik.

Shavkat JALOLOV,

*Samarqand tumanidagi
"Agromir group" uyushmasi
direktorlar kengashi raisi.
2020-yil 25-may*

ODAMLARGA YORDAM BERISH UCHUN DEPUTAT UYINI SOTDI

Kun qahramonining surati yo‘q, uning ismi-sharifini ham bir amallab aniqladik...

Ijtimoiy tarmoqlardan birida “Hozirgi karantin sharoitida ro‘zg‘orida qiyinchilik bo‘layotgan odamlarga yordam beramiz, zarurat bo‘lsa, +99890 160-10-00 raqamiga qo‘ng‘iroq qiling”, degan mazmundagi xabarni o‘qib qoldim.

To‘g‘risi, avval ham shunga o‘xshash xabarlarga ko‘zim tushganida, qanday yordam berarkin, deb qo‘ng‘iroq qilganimda telefon o‘chirilgan bo‘lib chiqqan. Bu safar esa hech qancha kuttirmay “labbay” degan javobni eshitdim.

– Assalomu alaykum, qiynalganlarga yordam berar ekansiz, shundaymi?

– Vaalaykum assalom, ha, ha, albatta. Faqat kundalik ro‘zg‘oringizda yetishmovchilik bo‘lsa, qarashib yubora olamiz.

– Menga un kerak bo‘lib qoldi, ko‘chaga chiqmay, uyda non pishirmoqchi edim.

– Mayli, imkon qadar topib beramiz. Manzilingizni ayting.

– Men Toshkentda turaman.

– E, yo‘g‘ey. Toshkentga mahsulot yetkazib bera olmaymiz-da. Biz faqat shu yonimizdagi odamlar, aniqroq aytganda, oltiariqliklarga yordam ko‘rsatyapmiz.

– O‘zi, nima uchun odamlarga yordam beryapsiz?

– Hozirgi sinovli kunlarda savob uchun, albatta.

– Telefon raqamingizni ma‘lum qilibsiz, qo‘ng‘iroq qilayotganlar ko‘pmi?

– Ha, bor qo‘ng‘iroq qilayotganlar. Ularga baholi qudrat yordam berib turibmiz.

– Kim bo‘lib ishlaysiz? Qaysi mablag‘ hisobiga amalga oshiryapsiz bu ishlarni?

– ...

– Alo-o, nega javob bermayapsiz?

– Kimsiz, nima maqsadda so‘roqqa tutyapsiz meni?

– To‘g‘risi, bilgim keldi.

– Aniq javob bera olmayman.

– Ba‘zilar xayriyaga pul to‘plab, shuning bir qismini yordamga yo‘naltirar ekan...

– E, opa, biz undaylardan emasmiz. To‘g‘risini aytaymi? O‘z uyimdan tashqari farzandlarimga deb imorat qilgandim. Shuni sotib, pulini ishlatyapman. Qolaversa, o‘zim tadbirkorlik, dehqonchilik bilan shug‘ullanaman. Imkonim bor, qolaversa, xalq uchun mas‘ulman, men tuman kengashi deputatiman. Telefon raqamimni ham bejiz tarqatganim yo‘q. Yordam zarur bo‘lsa, odamlar nima qilishlarini bilmay o‘tirmasin, dedim. Qilayotgan ishimizni boshqalar bilishi shart deb hisoblamayman. Iltimos, yana shuni bilingki, xayriya yordamini tuman mutasad-

dilari bilan hamkorlikda amalga oshiryapmiz. Shunday tartib o‘rnatildi hozir.

Muloqotimiz yakunida suhbatdoshim jurnalist ekanimni bilib, o‘zi haqida biror narsa yozib yurmasligimni iltimos qildi. U xo‘jako‘rsinga yoki kimgadir yaxshi ko‘rinish ilinjida emas, savob uchun xayrli ish qilayotganini aytdi. Ismi-sharifini aytishni esa aslo istamadi.

Faqat siz bilan shunchaki tanihib qo‘ymoqchiman, deganimdan so‘ng, Abdullajon Isoqov ekanini aytdi.

Xalqimizning bu kamtarin farzandi o‘zi haqida boshqalar bilishini qanchalik istamayotgan bo‘lmasin, menda bugungi kun qahramonini odamlarga tanitish istagi kuchlilik qilib, qo‘limga qalam oldim.

Mana, insoniylik, saxovat qanday bo‘lishi kerak! Undan o‘rnak olaylik, azizlar!

Norgul ABDURAIMOVA

SAXIY

Xudoyim davlat bergan
Himmati keng zotlar bor.
Quyoshday tal'at bergan,
Hotamga teng zotlar bor.

Ulus dilbandi ular,
O'lkadosh-u, yelkadosh:
Eli jilmaysa – kular,
Xalq o'ksisa – to'kar yosh.

Belin bog'lab azada,
Yashnar yurt to'yi bilan.
Baxtiyor va g'amzada –
Millatning o'yi bilan.

Miskinlar boshin silah,
Tutgay safo jomini.
Xastaga shifo tilab,
Dori qilgay jonini.

Yurt boshiga ish tushsa,
Borin to'kar o'rtaga.
Qavmi baxtga qovushsa,
Dardi arir – o'rtagan.

U – Vatanning farzandi,
Rahmat xirmonin uyar.
Ochiqqo'l, jo'mard, tanti –
Va lek bandadir uyam.

Quvgay quvonch, anduhlar –
El qatori yashar, rost.
Faqat... ozroq kam uxlar
Va ko'proq ishlar biroz.

Uch so'm kirsra yoniga,
Ko'paytib elga bergay.
Yog'duli hamyoniga
Duo-yu savob tergay.



Nodir JONUZOQ,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

Orzusi – xazinasin
Ko'ngillarga ko'mmakdir.
U uchun Haq zinasi –
Saxovat va ko'makdir.

Bor Xudoyo, ul zotni
Yorlaqa – ko'z tegmasin.
Asra ko'ngli obodni,
Nojo'ya so'z tegmasin.

Tole ber laziz, shirin,
El mangu, u bor bo'lsin.
Kaftga to'kilgan she'rim
Baxtiga tumor bo'lsin!



SINOVLI KUNLARNI JIPSLIKDA YENGIB O'TMOQDAMIZ



“COVID-19” pandemiyasi sabab, yurtimizda e’lon qilingan karantin natijasida ko’plab ishlab chiqarish, qurilish, xizmat ko’rsatish va savdo nuqtalari to’xtab qolgan edi. Shu vaqt

mobaynida aholi orasida ayrim ijtimoiy maishiy muammolarga duch kelganlar soni ham ortgani haqiqat.

Xayriyatki, hukumatimizning o’z o’rnida amalga oshirgan sa’y-

harakatlari bilan o'ta og'ir kunlarni asta-sekin yengib, yorug'lik sari chiqib bormoqdamiz.

Ayniqsa, shu vaqt oralig'ida "Saxovat va ko'mak" xayriya tashabbusi orqali ko'plab yurtdoshlarimizga saxovatpesha ham-yurtlarimiz tomonidan moddiy-ma'naviy yordam ko'rsatildi.

"Milliy tiklanish" partiyasi boshlang'ich tashkiloti a'zolaridan iborat "Grand Pharm Trade" MCHJ respublikamiz bo'ylab 5000 oilani qaramog'iga oldi.

Ushbu haftadan boshlab MCHJ tashabbusi bilan Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining hududlardagi boshqarma va bo'limlari tomonidan taqdim etilgan ro'yxat asosida kam ta'min-

langan va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga tijorat banklarining plastik kartalari tarqatila boshladi.

Andijon viloyatining o'zida 900 ga yaqin oila ro'yxatga kiritilgan bo'lib, shu kungacha viloyatdagi 500 ta oilaga bank plastik kartalari yetkazib berildi.

Haqiqatdan ham ehtiyojmand, muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlashning yangi bosqichini boshlash bugunning talabiga aylangan. Xalqimizning sabr-mattonati, davlatimizning insonparvar siyosati hamda saxovatli tadbirkorlarimizning ko'magi bilan, jipslikda bir musht bo'lib, sinovli kunlarni yengib o'tmoqdamiz.

Kamola ABDUVALIYEVA
2020-yil 22-may

MAKTAB DIREKTORI “SAXOVAT VA KO‘MAK” JAMG‘ARMASIGA 70 MILLION SO‘M O‘TKAZDI

Xayr-saxovat, ezgu amallar qalblarga iliqlik baxsh etadi. Kimgadir nafingiz tegar ekan, buning ham ajri ulug‘. Ayniqsa, bugungi kundagi pandemiya davrida muhtoj, kam ta‘minlangan oilalarga yordam ko‘rsatish borasida yurtimizda o‘ziga xos harakatga qo‘l urildi.

Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumanidagi 49-o‘rta ta‘lim maktabi direktori Rustamjon Hakimov ham bu ishlardan chetda turgisi kelmadi. U tuman “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasiga 70 million so‘m mablag‘ o‘tkazib berdi. Bu saxovatpesha inson maktabda ishlashi bilan birga tadbirkorlik bilan ham shug‘ullanadi. U “Yaypan sayohat” mas‘uliyati cheklangan jamiyatini tashkil etgan bo‘lib,

turizm sohasida faoliyat olib boradi. O‘n yildan buyon kam ta‘minlangan va ehtiyojmand oilalarga sidqidildan yordam ko‘rsatib kelyapti. O‘tgan yili Ramazon oyida ham ming qop un tarqatgan edi.

– Davlatimiz rahbari sinovli kunlarda saxovatpesha insonlarni ehtiyojmand oilalarga ko‘maklashishga chaqirdi, – deydi Rustamjon Hakimov. – Albatta, bu tashabbus biz kabi insonlarni ezgu ishlarga chorladi. Avvalo, qalb amri bilan ehson qilsangiz ruhan yengil tortasiz. Bu amaldan yaxshilik ko‘rgan inson ham sevinadi. Yaqinda 100 ta oilaga 500 kilogramm o‘simlik yog‘ini tarqatdik. Ehtiyojmand oilalarga madad va dalda bo‘lishning gash-ti ham bo‘lakcha.

M. Sulaymonov
2020-yil 5-may

AJDODLAR IBRATI

Karomat egasi bo'lgan bu Amir (Alisher Navoiy) davlat ishidagi mansab va lavozimda ishlab yurgan chog'lari qashshoqlar va darveshlarga moddiy yordam berish hamda boshqa yurtlardan kelgan yo'lovchilar va musofirlar uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida Xuroson mamlakati-ning turli joylarida ko'plab xonaqohlar, rabotlar, hovuzlar, ko'priklar va hammomlar qurganlar.



Quyida ulardan ayrimlari sanab o'tiladi: "Xalosiya" xonaqohi "Ixlosiya" madrasasi qarshisida joylashgan. Har kuni ushbu fayzli makonda mingdan ortiq qashshoq va miskinlarga ovqat ulashib, ularni lazzatli taomlar bilan siylaydilar.



Bundan tashqari har yili ikki mingga yaqin po'stin, chakmon, ko'ylak, ishton, yengil do'ppi va oyoq kiyim muhtoj kishilarga ulashiladi.

"Ziyoratgoh" xonaqohi: bu joyda ham qashshoqlar va miskinlarga taom ulashadilar.

Xondamirning "Makorim ul-axloq" asaridan

XALQ VA MILLAT TAQDIRIGA HECH KIM BEFARQ BO'LMASLIGI KERAK



2020-yil insoniyat uchun — sinov yili bo'ldi. Koronavirus atalmish ofat kirib bormagan davlat deyarli qolmadi. Hajmi zarraning zarrasicha keladigan bu ko'zga ko'rinmas virus butun dunyoni alg'ov-dalg'ov qilib yubordi. Uning jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'siri ko'lami jihatidan inqirozlar ichida eng kattasi bo'lishi taxmin qilinayotgani shunday deyishimizga asos bo'la oladi.

Kun kelib iqtisodiy-moliyaviy zararlar, albatta, tiklanadi. Xalqaro moliya institutlarining prognozlariga bunga ko'p vaqt qolmaganini ko'rsatmoqda. Ammo karantin cheklolari kuchaytirilishi tufayli aholining ma'lum bir qatlami daromad manbaini yo'qotdiki, bu esa davlat va jamiyat oldiga ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish masalasini qo'ydi. Bu borada dunyo davlatlarida har xil usullardan foydalanildi. O'zbekistonda esa sinovli kunlardan talafotlarsiz chiqishning o'ziga xos modeli ishlab chiqildi.

Gap shundaki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakatiga asos solindi. Natijada global inqiroz oqibatlarini yumshatish, ayniqsa, pandemiya sharoitida ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvat-



lash uchun nafaqat davlat tomonidan moddiy ko'mak ko'rsatildi, balki xalqimizning xayr-saxovat kabi ezgu amallari ham keng quloch yoydi.

Darhaqiqat, aholining birdamligi va jipsligi xalqimiz boshiga tashvish tushgan paytlarda yanada yaqqolroq namoyon bo'ldi. Ya'ni pandemiya paytida, shuningdek, Sirdaryo va Buxoro viloyatlarida kuzatilgan texnogen va tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish ishlarida hech kim chetda qolmadi. Oliy Majlis Senati a'zosi, iqtisodiyot fanlari doktori Murtazo Rahmatov ta'sischiligidagi kompaniyalar guruhi ham bu borada tashabbuskor bo'lib, yordam qo'lini cho'zdi. Dastlab Olot, Qorako'l hamda Sardoba tumanlariga maxsus

texnikalar va transport vositalari karvoni jo'natildi. Uning ortidan esa Sardobaga 120 tonna yo'l bitumi, 120 tonna sement, Buxoro viloyatiga esa 240 tonna yo'l bitumi, 240 tonna sement yetkazib berildi.

Ta'kidlash kerakki, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksport hajmini oshirishga munosib hissa qo'shish maqsadida Murtazo Rahmatov rahbarlik qilayotgan Buxorodagi "BCT Cluster", Quyi Chirchiq tumanidagi "TCT Cluster" klasterlari ish faoliyati bir zum ham to'xtatilmadi. Bu yerda mehnat qilayotgan 12 ming kishilik jamoaning har bir a'zosi-ga ish haqlari o'z vaqtida va to'liq to'lab berildi. Shu bilan birga, aholimizning yordamga muhtoj qatlamlariga moddiy ko'mak



ko'rsatildi. Aniqrog'i, senator tashabbusi bilan 1100 ga yaqin oilalar otaliqqa olindi.

— Bu yilgidek sinovli kunlarda xalq va millat taqdiriga hech kim befarq bo'lmasligi kerak, — deydi senator Murtazo Rahmatov. — Prezidentimizning tashabbusi bilan "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati tashkil etilganidan so'ng, aytish joizki, xalqimizning mehr-saxovat, himmat kabi yuksak fazilatlarini yanada yorqinroq namoyon etdi. Ushbu harakat, ayniqsa, davlatimizning beqiyos g'amxo'rlikini chuqur his qilib turgan biz, klasterlar rahbarlari, tadbirkor va investorlarni ham ehtiyojmand oilalarga saxovat ko'rsatishga undadi. Natijada bizning

klasterlar jamoasi ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan Buxoro viloyatidagi 1000 ta, Jarqo'rg'on tumanidagi 25 ta, Quyi Chirchiq tumanidagi 50 ta oilani uch oy davomida otaliqqa olish tashabbusi bilan chiqdi.

Mahalliy hokimliklar va mahallalar ko'magida ro'yxati shakllantirilgan kam ta'minlangan oilalarga 13 turdagi kundalik oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berilib, manzilli yordam ko'rsatildi. Bizning xalqni rozi qilish yo'lidagi bu kabi xizmatimiz, ehtimol, dengizdan bir tomchidek tuyular. Lekin unutmaylikki, daryo va okeanlar ham qatralardan hosil bo'ladi.

Chindan ham, xalqimizning "Arg'amchiga qil quvvat" degan



purma'no hikmati zamirida ana shu hayot haqiqati mujassam. Buni yaxshi anglagan klasterlar ishchi-xodimlari "COVID-19" pandemiyasiga qarshi kurashda fuqarolarimizni ruhan qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan O'zbekiston "Mehrshafqat va salomatlik" jamoat fondiga o'z ish haqlarining bir qismi, ya'ni 490 million so'm miqdoridagi mablag'ni ixtiyoriy ravishda beg'araz o'tkazib berdilar. Shuningdek, karantin paytida ehtiyojmand va kam ta'minlangan oilalarni zarur oziq-ovqat

mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash uchun tashkil etilgan "Homiyluk xayriyalarini muvofiqlashtirish markazlari"ga 300 million so'm homiyluk mablag'i taqdim etildi.

Umuman olganda, klaster tomonidan "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati doirasida Buxoro viloyatiga 2 milliard so'mlik, Surxondaryo viloyatiga 135 million so'mlik, Toshkent viloyatiga qariyb 132 million so'mlik homiyluk yordamlari ko'rsatilgani tahsinga loyiqdir.

Said RAHMONOV,
jurnalist.
2020-yil 29-aprel

SAXOVAT VA KO'MAK BERISHDA HAM FAOL



Parlamentimiz vakillari “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakatining faol ishtirokchisi-

ga ham aylanib, ibrat namunasini ko‘rsatayotganlari yanada quvonarlidir.

Masalan, Oliy Majlis Senati a‘zosi, “Bek Cluster” MCHJ qo‘shma korxonasi rahbari Ulug‘bek Sotiboldiyev Sirdaryo viloyatining Mirzaobod va Xovos tumanlarida aholining ehtiyojmand qatlami turmush darajasini yaxshilash maqsadida 2000 ta oilaga ko‘mak berish tashabbusini bildirdi.

Albatta, mana shunday sinovli davrdagi xayrli ishlar, ayniqsa, bugungi Ramazon oyida hojatbarorga katta savob, hojatmandga esa beminnat baraka keltiradi.

“Xalq so‘zi”
2020-yil 29-aprel

SAXOVAT QIL



G'ayrat MAJID,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

*Nurli ibrat porlar ko'kda quyoshidan,
Uning kabi mehring sohib muhabbat qil.
Ko'p xayrli tashabbus bu Yurtboshidan:
Eldoshingga ko'mak bergil, saxovat qil.*

*Og'ir damda bir yoqadan chiqarib bosh,
Mening xalqim musibatga bergan bardosh,
Qo'shnisining uyiga ham uzatgan osh,
Eldoshingga ko'mak bergil, saxovat qil.*

*Yuzing qanday yorug' bo'lsin nuqson bilan,
Olam go'zal iymoni but inson bilan,
Kishi moli kamaymaydi ehson bilan,
Eldoshingga ko'mak bergil, saxovat qil.*

*Bir mayizni qirqqa bo'lib yegan xalqim,
Yaxshi-yomon kunda Alloh degan xalqim,
Bandasini O'zi sinar ekan, xalqim,
Eldoshingga ko'mak bergil, saxovat qil.*

*Nurli ibrat porlar ko'kda quyoshidan,
Uning kabi mehring sohib muhabbat qil.
Ko'p xayrli tashabbus bu Yurtboshidan:
Eldoshingga ko'mak bergil, saxovat qil.*



“SINOVNI EZGULIK BILAN YENGAMIZ!”

Ehtiyojmand, kam ta'minlangan insonlar va oilalarga yordam ko'rsatishga imkoni bo'lgan har bir yurtdoshimiz “Saxovat va ko'mak” umumxalq harakatida qatnashishga intilmoqda.

Aytish joizki, saxovatga bel bog'lagan yosh tadbirkorlarning barchasi “Yoshlar – kelajagimiz” jamg'armasi tomonidan imtiyozli kredit asosida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yg'anlardir.

* * *

Nukus shahridagi 300 dan ortiq xonadon, yordamga muhtoj keksa odamlarga O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qoraqalpog'iston Respublikasi kengashi faollari hamda tadbirkorlar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari, ko'chatlar yetkazib berildi.

Karantin davrida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida “Yoshlar – kela-

jagimiz” jamg'armasi tomonidan e'lon qilingan #Uyda_qol_foyda_ol# chellenjida Qoraqalpog'istondan ham yoshlar turli yo'nalishlarda faol ishtirok etmoqda. Xususan, ushbu chellenj doirasida qoraqalpog'istonlik 40 nafar yosh tadbirkor va hunarmand o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarni namoyish etdi.

Bunday xayrli ishlarda Andijon viloyati yosh tadbirkorlari ham faol qatnashayotir. Kuni kecha ular tomonidan viloyatdagi 700 oilaga amaliy ko'mak ko'rsatildi.

* * *

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining hududiy bo'limlari huzurida tashkil qilingan Xayriyalarni muvofiqlashtirish markaziga kelib, ehtiyojmandlarga o'z ko'magini yetkazish istagini bildirayotgan saxo-







vatpeshatadbirkorlarning ko'pligi quvonarlidir.

Ular orasida xorijlik investorlar ham bor. "Dong stoun progress" qo'shma korxonasi Ishtixon tumaniga 1,5 million dollar investitsiya kiritib, marmarni qayta ishlash uchun zamonaviy texnologiyalarni olib kelgan. Hozirgi kunda bu yerda 20 nafar o'g'il-qiz ish bilan band.

– "Dong stoun progress" rahbari Xi Min tomonidan Homiylik xayriyalarini muvofiqlashtirish markaziga 200 litr yog' va 4,5 tonna un yetkazib berildi, – deydi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining tuman bo'limi boshlig'i Sh. O'sarov. – Yetkazib berilgan un va yog' kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan va nogironligi bo'lgan shaxslarga bepul tarqatildi.

* * *

Yakkabog' tumanidagi parandachilikka ixtisoslashtirilgan "Kumush kuz fayzi" MCHJ rahbari Abdunabi G'iyosov mamlakatimizdagi saxovatpeshatadbirkorlar qatorida "Saxovat va ko'mak" harakati jamg'armasiga 60 million so'm mablag' o'tkazib berdi. U muborak Ramazon oyida tumanidagi ota-onasidan barvaqt judo bo'lgan 50 nafar o'g'il-qizning har biriga 1 million so'mdan moddiy yordam ko'rsatdi va

oziq-ovqat mahsulotlari jamlanmasini tuhfa qildi.

* * *

"Saxovat va ko'mak" umumxalq harakatini qo'llab-quvvatlayotganlar Buxoroda ham ko'p. Ana shunday insonlardan biri tadbirkor, xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashi deputati Nodir Hamdamovdir. Uning tashabbusi bilan 117 nafar kam ta'minlangan, yordamga muhtoj oila ro'yxati shakllantirildi va tadbirkor ularni o'z qaramog'iga oldi.

– Biz shu oilalarni uch oy davomida kundalik zarur iste'mol mollari bilan ta'minlab, ularning issiq-sovug'idan xabar olib turamiz, – deydi N. Hamdamov. – Bundan tashqari, ehtiyojmand oilalardagi ishsiz fuqarolarning bandligini ta'minlash tadbirlarini ham ko'ryapmiz. Yaqinda shunday yoshlarning 25 nafarini ish bilan ta'minladik.

Gap shundaki, ishbilarmon qisqa muddat ichida yangi biznes loyihani amalga oshirib, antiseptik vositalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Natijada yangi ish o'rinlari yaratilishidan tashqari bozorda talab katta bo'lgan bu mahsulotni eksport qilish imkoniyati ham yuzaga keldi.

* * *

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi Navoiy viloyati boshqarmasidan olingan ma'lu-

motga ko'ra, o'tgan uch kun mobaynida maxsus hisob raqamimizga 500 million so'mdan oshiq mablag' tushdi. Bugungi kun holatiga ko'ra, 100 dan ziyod tadbirkorlar o'z homiylik mablag'ini o'tkazib berish istagini bildirdi. Bundan tashqari, "Karmana golden eggs" MCHJ rahbari Aziz Suvonov hamda "Export fish product" MCHJ direktori Obid Saidov 500 tadan oilani o'z otalig'iga olib, yana 100 kishini vaqtincha ish bilan ta'minladi. Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarining bu shaxsiy namunasi yanada ko'plab yurtdoshlarimiz uchun o'ziga xos ezgu da'vat bo'lmoqda.

Bunday ezgu ishlarda yoshlarning oldingi saflarda ekanligi, ayniqsa, e'tiborga molik. Chunonchi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Navoiy viloyati kengashi, "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi viloyatdagi yosh tadbirkorlar hamkorligida Ramazon oyining ilk kunlaridanoq "Biz yurtimizga yelkadoshmiz, xalqimizga madadkormiz" shiori ostida viloyatdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj 1000 ta xonadonga, jami 110 million so'mlik, 7 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berdi.

Viloyatning shahar va tumanlarida bu kabi ezgu ishlarni qo'llab-quvvatlab, saxovat ishlariga hissa qo'shish istagidagi

tadbirkorlar safi tobora kengaymoqda.

* * *

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi viloyat boshqarmasining Ohangarondagi Xayriyalarni muvofiqlashtirish markazida faoliyat yuritayotgan "Call-center"ning 1197 telefon raqamiga shu kungacha (shahar, tumanlar bilan birga) 31 mingga yaqin murojaat kelib tushdi. Ularning 27 mingdan ko'piga hamda muhtoj va kambag'alligi qayd etilgan oilalarga, Mehribonlik va Saxovat uylari kabi mehr-muruvvatga muhtoj manzillarga 53 tonna guruch, 43 tonna shakar, 62 tonna un, 56 ming 219 litr o'simlik yog'i, 8 ming 131 kg mol go'shti, 450 kg quritilgan meva, 51 tonna 400 kg makaron, 37,5 tonna sabzi, 500 kg bodring, 2,5 ming litr sut, shuningdek, zarur tibbiy vositalar yetkazib berildi.

"Ming oilaga – ming tuhfa!" ijtimoiy xayriya tadbiri doirasida esa viloyatdagi 900 ga yaqin muhtoj oilalarga bir boshdan sog'in sigir in'om etildi. Shuningdek, viloyatda "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" va "Hunarmandchilikni rivojlantirish" kabi dasturlar doirasidagi loyihalarni moliyalashtirishga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

"Xalq so'zi"
2020-yil 30-aprel

DA'VAT



Rustam MUSURMON,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi

*Xuruj qildi dunyo ahliga ofat,
Xalqni asrash zarur ko'rmay talofat,
Yo'l boshchi shoshilinch ayladi da'vat:
Elga ko'mak kerak, yurtga saxovat!*

*Lolalar so'lmasin desak tog'larda,
Gulni do'l urmasin desak bog'larda,
Odanlar yordamga muhtoj chog'larda
Elga ko'mak kerak, yurtga saxovat.*

*Yaxshi noming bilan o'zgandir oting,
Davlatning ko'paysin, kelsin omading,
Bir qo'ying o'n bo'lsin, yuzing bo'lsin ming,
Elga ko'mak kerak, yurtga saxovat.*

*Bu xalq yaxshilikdan topgan saodat,
Yordamga qo'l cho'zmoq oddiy bir odat,
Og'ajon, ha degan tuyaga madad,
Elga ko'mak kerak, yurtga saxovat.*

*Ko'rinmasdan hamla qilganida yov,
Himoya kerakdir, kerak emas dov,
Bu ham bir imtihon, bu ham bir sinov,
Elga ko'mak kerak, yurtga saxovat.*

*Qancha sinovlarni baham ko'rgan teng,
Biri yoqa bo'lgan, biri bo'lgan yeng,
O'zbek mehri daryo, o'zbek bag'ri keng,
Elga ko'mak kerak, yurtga saxovat.*



EL BOSHIGA ISH TUSHA...



Butun dunyoga tarqalgan koronavirus balosi, ming afsuslar bo'lsinki, bizning yurtimizni ham chetlab o'tmadi. Yaxshiki, yurtimizda muhtaram Prezidentimiz rahbarligida barvaqt va zudlik bilan hamma choralar ko'rildi. Bu baloga bizdan oldin duchor bo'lgan va o'z vaqtida hozirlik ko'rmagan, beparvolik bilan qaragan yoxud pisand qilmagan mamlakatlarning ahvolini ko'rib va eshitib turibmiz.

Xalqimiz juda ko'p sinovlarni boshidan o'tkazgan. Ikkinchi jahon urushi davridagi qahatchilik, ocharchilik yillarida ham ota-bobolarimiz bir mayizni qirq bo'lib, borini o'rtada baham ko'rib, front ortidagi qiyinchiliklarga bardosh berganlari, evakuatsiya qilingan bolalarga o'z oilalaridan joy berib, farzandlari qatorida mehr-muruvvat ko'rsatishgani, Toshkent shahrida o'tgan asrning o'rtalarida yuz bergan dahshatli zilzila oqibatida vayronalar ichida boshpanasiz qolgan aholi chodirlarda kun kechirib, yarim kosa yovg'onini ham qo'shnilari bilan baham ko'rganlarini hammamiz yaxshi bilamiz.

Yurtboshimiz har bir fuqaroning sog'lig'i va joni aziz va qimmatli ekanini qayta-qayta ta'kidlayaptilar. Xizmat taqozosi bilan xonadonlarga borib, yolg'iz

yashovchi qariyalar bilan uchra-
shib so‘rashganimiz-da, ulardan
“biz aslo yolg‘iz emasmiz, bizning
orqamizda tog‘dek suyanchig‘i-
miz, xalq g‘amini yeydigan Pre-
zidentimiz bor”, degan so‘zlarni
eshityapmiz.

Davlatimiz rahbarining “Sa-
xovat va ko‘mak” umumxalq-
harakatini amalga oshirish ta-
shabbusini xalqimiz katta ko‘-
tarinkilik bilan qo‘llab-quvvat-
ladi. Mazkur ezgu sa‘y-harakat
muborak Ramazon oyida amal-
ga oshirilishida ham o‘ziga xos
ma‘no mujassam.

Xalqimizda “Insonni bir qo‘sh-
ni bo‘lib, bir quda bo‘lib sinay-
san” degan naql bejiz aytilmagan.
Har bir mahallada qo‘ni-qo‘shni
bir-birining yurish-turishi, fe‘l-
atvori, ijtimoiy ahvolidan bo-
xabar. Xalqimiz kam ta‘minlan-
gan, qiynalgan oilalarga yordam
berishni nafaqat xayrli ish o‘la-
roq bajaradi, balki uni o‘zining
ijtimoiy burchi, deb hisob-
laydi.

Yaqinda Buxoro viloyati, un-
dan so‘ng Sirdaryo viloyatida so-
dir bo‘lgan ofatlar chog‘ida Yurt-
boshimiz darhol u yerlarga yetib
bordilar. Xalq bilan uchrashib,
odamlarning ko‘nglini ko‘tar-
dilar. Har bir ko‘cha, har bir
xonadon, har bir oila shaxsan
Prezident nazoratida ekanini bil-
dirdilar. Xalqimiz shunday g‘am-
xo‘r, xalqparvar, jonkuyar Yurt-
boshimiz bilan haqli ravishda
faxrlanadi. Bu kunlar o‘tib ketadi
va vaqtning o‘zi kim aslida kim-
ligini ko‘rsatadi.

G‘alabaga astoydil ishongan
xalq yaxshi kunlarga erishadi,
ro‘shnolik ko‘radi. Buning yaqqol
tasdig‘ini Ikkinchi jahon urushida
nafaqat frontda, balki front ortida
sutkasiga 14–15 soatlab mehnat
qilgan, Katta Farg‘ona kanalini
45 kunda ketmon bilan bunyod
etgan xalqimiz yaxshi biladi.

Biz Yurtboshimiz boshchiligida
bu og‘ir kunlardan yanada kuchli-
roq, ahilroq, jipsroq, hayotga teran
ko‘z bilan qaraydigan komil inson-
lar bo‘lib chiqamiz, inshoalloh.

Rustam KALONOV,
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senati a‘zosi,
Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash
vazirligining Toshkent shahar bo‘limi
boshlig‘i o‘rinbosari.
2020-yil 1-may

EZGU ISHGA KAMARBASTALIK – BOSH MAQSADIMIZ

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlangan “Saxovat va ko‘mak” umumxalq harakati tufayli bugungi murakkab va sinovli kunlarda xalqimizning o‘zaro mehr-oqibat, xayr-saxovat, insoniylik, bag‘rikenglik kabi oliyjanob fazilatlari yanada kuchliroq namoyon bo‘lmoqda.

Bizning 2009-yilda tashkil topgan korxonamiz yaqin-yaqinga-

ham tashkil etildi. Buning natijasida korxonamizga 42 ming gektar ekin maydoni ajratildi va o‘z xomashyo bazamizga ega bo‘ldik.

Prezidentimiz 2019-yil 28-fevralda Namangan viloyatiga tashrifi doirasida korxonamiz faoliyati bilan tanishib, ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy talablar asosida ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish bo‘yicha topshiriqlar

*Naf‘ing agar xalqqa beshak durur,
Bilki, bu naf‘ o‘zunga ko‘prak durur.*

Alisher NAVOIY



cha paxtadan momiq va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarar edi. 2018-yilda korxonamiz modernizatsiya qilinib, uning tarkibida “Art sost cluster” fermer xo‘jaligi

bergan edi. Ayni kunlarda faoliyatimiz tubdan kengayib, klaster usulida ishlashga o‘tyapmiz. Xomashyo yetishtirishdan ishlab chiqarishgacha bo‘lgan jarayonlar

Korxonamiz ta'sisчилari va jamoasi bilan kelishib, "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakatiga o'z ulushimizni qo'shish maqsadida, Namangan shahri, Pop, Mingbuloq va Yangiqo'rg'on tumanlarida 3 ming oilaga yordam berishga bel bog'laganmiz.

Zero, bizga hamisha tog'dek suyanch bo'layotgan, doimo qo'llab-quvvatlab kelayotgan Prezidentimizga, davlatimizga biz ham suyanch bo'lishimiz, Vatanimiz, xalqimiz oldidagi farzandlik burchimizni oqlashimiz insoniylikning muhim nishonasidir.

barchasi tizimli qamrab olinadi. Ikkita paxta tozalash zavodimiz, paxta chigitini chuqur qayta ishlash korxonalarimizning loyihasi ishlab chiqildi. Kelgusida sifatli urug' yetishtirish, don mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari faoliyati yo'lga qo'yiladi. Issiqxonalar, chorvalar, fermer xo'jaliklari tashkil etilib, omuxta yem, yog' ishlab chiqaramiz. Eng muhimi, yangi loyihalar ishga tushgach, 4 mingta yangi ish o'rnini ochilib, aholining bandligi ta'minlanadi.

Bugungi og'ir iqtisodiy sharoitda biz kabi tadbirkorlar va korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaratib berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar ana shunday ezgu ishlarimizni izchil davom ettirish va yangi-yangi rejalar tuzishga undamoqda. Xu-

susan, korxonamiz ta'sisчилari va jamoasi bilan kelishib, "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakatiga o'z ulushimizni qo'shish maqsadida, Namangan shahri, Pop, Mingbuloq va Yangiqo'rg'on tumanlarida 3 ming oilaga yordam berishga bel bog'laganmiz.

Zero, bizga hamisha tog'dek suyanch bo'layotgan, doimo qo'llab-quvvatlab kelayotgan Prezidentimizga, davlatimizga biz ham suyanch bo'lishimiz, Vatanimiz, xalqimiz oldidagi farzandlik burchimizni oqlashimiz insoniylikning muhim nishonasidir. Ishonchimiz komilki, bugungi sinovli damlarda har birimiz ana shunday sharafli yumushlarni munosib uddalab, ertangi nurafshon kunlarga yorug' yuz bilan yetishamiz.

Olimjon BOBOXONOV,
*"Art soft holding" kompaniyasi
 boshqaruvi raisi.*
 2020-yil 27-aprel



TASHABBUSGA XAYRIXOHMIZ



Bir necha yildan beri yurtimizda yashab, mehnat qilib, mahalliy aholi bilan muloqotda bo'lib kelyapman. O'zbek xalqining odamiyligiga, mamlakatdagi oqilona, adolatli, insonparvar siyosatga qat'iy amin bo'lgan holda, "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakatini ushbu xalqchil siyosatning galdagi namunasi sifatida qabul qildim.

Yangi harakat, tadbirkorlik subyektlari orqali ko'rsatiladigan saxovat va ko'mak ham tadbirkorlar, ham aholi manfaatlarini ifodalab, barcha ezgu ishlar uchun zamin hozirladi.

Davlat rahbarining bu boradagi qat'iyati barchani bir yoqadan bosh chiqarishga da'vat ekani bilan ahamiyatli. Faoliyati bevosita O'zbekiston bilan bog'langan biz kabi xorijiy ishbilarmonlar ham bu boradagi sa'y-harakatlarga xayrixohmiz. Shu bois, kalava ip ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yirik korxonamiz "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakatini qo'llab-quvvatlab, bu borada yordamini ayamaydi.

Li Jey SONG,
*"Posco International Textile" MCHJ
shaklidagi xorijiy korxonaning Buxoro
filiali direktori.*
2020-yil 30-aprel

ODIL AHMEDOV XITOYDAN MODDIY YORDAM YUBORDI



Namangan futboli tarbiyalanuvchisi, Oʻzbekiston milliy terma jamoasi sardori va Xitoyning “Shanxay SPIG” klubi aʼzosi Odil Ahmedov yurtimizda korona-

virus pandemiyasi bilan bogʻliq vaziyatda tibbiyot muassasalari uchun zarur vositalarni taqdim etdi.

Hamyurtimiz tuhfa qilgan tibbiy kombinezonlar, himoya koʻz-oynaqlari va yuz himoya niqoblari Oʻzbekiston Respublikasi-ning Pekindagi elchixonasi va Shanxay shahridagi Bosh konsulxonasi koʻmagida yaqin kunlarda mamlakatimizga yetkaziladi.

Qayd etish joiz, bundan bir hafta avval Oʻzbekistonga mashhur aka-uka Ahmedovlar Namangan shahridagi bir qator mahallalarga borib, hozirgi pandemiya davrida qiynalgan, nogironlari bor xonadonlarni yoʻqlagan edi.

© namangan24.uz.
2020-yil 29-aprel

OTABEK SHUKUROV CHIROQCHI XALQI UCHUN XAYRIYA AJRATDI



Ayni damda butun dunyo bo'ylab tarqalib borayotgan koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashga o'zining saxovatli ishi bilan Otabek Shukurov ham qo'shildi.

O'zbekiston milliy jamoasi hamda "Sharja" klubi a'zosi Otabek Shukurov o'zi tug'ilib o'sgan Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi kam ta'minlangan oilalarga yordam qo'lini cho'zishga bel bog'ladi.

Chiroqchi tumanidagi mahallalarda istiqomat qiladigan va karantin davrida ishsiz qolgan muhtojlarga Otabek Shukurov beg'araz yordam qo'lini uzatmoqchi. Bugun futbolchi Chiroqchi bozoridan kunlik ehtiyoj uchun kerak bo'ladigan 100 million so'mga yaqin mahsulotlarni (kartoshka, go'sht, piyoz, un-yog' va hokazo) xarid qilgan va ertaga uni muhtoj oilalarga tarqatishni boshlaydi.

Saxovatli ishga qo'l urgan o'zbek futbolchisi Otabek Shukurovga barakalla deymiz! Tasanno!

Sports.uz.
2020-yil 25-aprel

MIRJALOL QOSIMOV KORONAVIRUSGA QARSHI KURASH UCHUN 75 MILLION SO‘M XAYRIYA QILDI

Koronavirus infeksiyasi tufayli e‘lon qilingan karantin davrida mamlakatimizda eng avvalo aholining ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy himoyalashning tezkor chora-tadbirlari belgilandi.

Shu kunlarda mamlakatimizdagi barcha soha vakillari, jumladan, yirik korxonalar, saxovatpesha tadbirkorlar, xullas, O‘zbekiston xalqi uchun yordamga oshiqqan barcha insonlar mazkur pandemiyaga qarshi kurashishda yordam qo‘lini cho‘zishga harakat qilmoqda.

Murakkab va sinovli damlarda o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan hamjihatlik va saxovatpeshalik bilan koronavirus pandemiyasiga qarshi kurash doirasida mazkur fondga beg‘araz hamda beminnat yordamini ayamayotganlarning ko‘pligi quvonarli hol, albatta.

Jumladan, respublikamizning eng yirik sanoat korxonalaridan



biri – Olmaliq kon-metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati “COVID-19”ga qarshi kurashda aholiga moddiy va ma‘naviy yordam ko‘rsatish maqsadida tashkil etilgan “O‘zbekiston

mehr-shafqat va salomatlik” jamoat fondiga 1,5 milliard soʻmni begʻaraz oʻtkazib berdi. Jamiyat axborot xizmatining maʼlum qilishicha, korxonada tomonidan bu kabi xayriyalar davom etmoqda.

Yana bir eʼtiborli jihati, mashhur futbolchimiz Mirjalol Qosimov ham koronavirus pande-

miyasiga qarshi kurash doirasida xayriyaga qoʻl urdi.

Oʻzbek futbol afsonasi, ayni paytda kombinatning futbol jamoasi bosh murabbiyi sifatida ishlab kelayotgan mutaxassis Mirjalol Qosimov ixtiyoriy ravishda ushbu fondga begʻaraz yordam tariqasida 75 million soʻm mablagʻni oʻtkazib berdi.

**Avazbek XUDOYQULOV,
OʻzA.
2020-yil 29-aprel**

SINOVLI KUNLAR XALQIMIZNI BIRLASHTIRMOQDA

Poytaxtimizdagi “O‘zekspomarkaz” binosida joylashgan, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzurida tashkil etilgan Homiylik xayriyalarini muvofiqlashtirish markaziga har

ijtimoiy yordamlar o‘z vaqtida ehtiyojmand oilalarga yetkazilmoqda.

Jumladan, 21-aprel kuni poytaxtimizning saxiy fuqarolari tomonidan markazga 2 tonnadan

*Abu Nu‘aym rahmatullohi alayhi
Ibn Abbas roziyallohu anhudan ri-
voyat qiladilar:*

*“Musulmonlardan bir oilani bir
oy, bir hafta yoki Olloh xohlaganicha
boqmoqligim men uchun haj ketidan
haj qilganimdan ko‘ra afzalroqdir”.*

*Shayx Muhammad Sodiq Muhammad
Yusufning “Hadis va hayot” kitobidan*



kuni homiy tashkilotlar va saxovatpesha insonlar tomonidan xayriya mahsulotlari kelishi davom etmoqda. Muhimi, ushbu

ortiq shakar, 7000 dona polietilen paket, 1000 dona polietilen sumka va 8780 kg piyoz yetkazildi. “Howo group” tashkiloti

















10 tonna kartoshka, “DMC – doktor Maqsudovanning klinikasi” 1 tonna tovuq, “Oltin tegirmon” tashkiloti 1,5 tonna un, “Madina Mavlon” tashkiloti 2 tonna kartoshka, 2 tonna un, 150 litr o‘simlik yog‘i, 240 kg makaron mahsulotlari, “Navruz Invest” tashkiloti 1 tonna tuz, “Krupa Snap” tashkiloti 1 tonna un, “Xadra group” “Namangan savdo” bilan birgalikda 2 tonnadan ortiq guruch yetkazib berdi.

Shuningdek, xalq deputatlari Yunusobod tumani kengashi deputati Qahramon Muhammadqulov hamda “Premium engineering service” korxonasi birgalikda 4 tonna kartoshka, 2 tonna piyoz va 1 tonna sabzi, “Class food service” tashkiloti 130 qutida shirinlik taqdim etgan bo‘lsa, “O‘zLiDeP” Toshkent shahri kengashi, “Nau CO” MCHJ, “Infin-Bank” tomonidan 1764 kg un, 457 kg guruch, 430 kg shakar,

454 litr o‘simlik yog‘i, 210 kg kartoshka, 280 kg piyoz, 7,5 ming dona tuxum, 852 kg makaron mahsulotlari, 103 dona mayonez xayriya qilindi.

Bunday saxovatpesha insonlar ro‘yxatini yana uzoq davom ettirish mumkin. Quvonarlisi, bu kabi homiylik xayriyalarini ko‘rsatish istagini bildirayotgan vatandoshlarimiz soni kun sayin ortib bormoqda.

Mazkur ijtimoiy yordam mahsulotlari, birinchi navbatda, kam ta‘minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, keksalar va nuroniyalar, doimiy ish bilan band bo‘lmagan aholi vakillariga mahalla xodimlari va volontorlar hamkorligida muntazam yetkazib turilmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, Prezidentimizning ushbu tashabbusi xalqimizni yanada jipslashtirib, qiyin damlarda birlashtirmoqda.

Saodat BOYMIRZAYEVA,

*Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi
matbuot xizmati rahbari.*

2020-yil 1-may





DEPUTAT SHIFOKORLARGA KO'MAKLASHMOQDA

Karantin sababli ba'zi tashkilotlarda vaqtincha ish faoliyatini davom ettirish to'xtatilgan, yo'lovchi tashish transport vositalarining qatnovi ham cheklab qo'yilgan, xodimlar esa mehnat ta'tilida. Lekin shunday insonlarimiz borki, ular hamisha xalq xizmatida.

"Azia Fruits Garden" MCHJ rahbari Farrux Bekmirzayev 22 gektar yer maydonida hosil yetishtirmoqda. U Qorovulbozor aholisiga 500 kilogramm tovuq go'shti, 3 tonna sabzavot mahsulotlari hamda 3000 dan ortiq tibbiy vositalarni bepul tarqatgan.

– Aholiga bepul mahsulotlar yetkazib berishdan tashqari, "Qorovulbozor" dehqon bozoriga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini har kuni juda arzon narxlarda, jumladan, kartoshka 3000 so'm, piyoz 2000 so'm, pomidor 8000 so'm, sabzi 1000 so'm va tovuq go'shtini 15500 so'mdan sotyapmiz, – dey-

di O'zbekiston Xalq Demokratik partiyasidan Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashi deputati Farrux Bekmirzayev. – Undan tashqari, bepul avtovositalar xizmatini yo'lga qo'ydik. Fuqarolar telefon orqali kundalik ehtiyoj uchun zarur mahsulotlarni yozdirishsa, ularni o'z narxida avtovositalar xizmati haqisiz manzillariga yetkazib beryapmiz.

Tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan mahalliy Kengash deputatlari mehnat mahsuli evaziga yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlaridan aholiga tortiq qilmoqda.

Xuddi shunday saxovatpesha tadbirkorlardan biri O'zbekiston Liberal demokratik partiyasidan xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashi deputati, "Shohrud" xususiy ishlab chiqarish korxonasi rahbari Nodir Hamdamov.

Xalq noibi viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasida xizmat qilayotgan 200 nafardan ortiq tibbiyot xodimlarining har birining xonadonida bo'lib, ularga oziq-ovqat mahsulotlari hamda tibbiy vositalarni bepul tarqatdi.

– Qizim Shohida Muxtorova viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasida shifokor bo'lib ish-

laydi, – deydi shifokorning onasi Xolida aya Muxtorova. – Kechayu kunduz shifoxonada. Karantin e'lon qilinganidan beri uyga kelgani yo'q. Biz va bolalari bilan faqat telefon orqali muloqot qilyapti. Shifokor qizim bilan faxrlanaman. Ularning mehnatini sharaflayotganlarga minnatdorchiligimni bildiraman.

Zarif KOMILOV
2020-yil 28-aprel

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

“MEHR-SAXOVAT” KO'KRAK NISHONINI TA'SIS ETISH TO'G'RSIDA

Jahon miqyosida keng tarqalib, global muammoga aylangan koronavirus pandemiyasi davrida, shuningdek, turli tabiiy ofatlar, favqulodda holatlar tufayli el-yurtimiz boshiga tushgan sinovli kunlarda mavjud xavf-xatarlarga qarshi kurashda, ularning oqibatlarini bartaraf etishda mardlik va jasorat namunasini ko'rsatgan, milliy qadriyat va an'analarimizni munosib davom ettirib, mehr-oqibat, saxovat, himmat va oliyjanoblik fazilatlarini ulug'lab kelayotgan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularga beminnat ko'mak berish borasidagi ishlarni umumxalq harakati darajasiga ko'tarishga katta hissa qo'shgan, jamiyatimizda tinchlik-osoyishtalik, birlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlashda faol ishtirok etib, beg'araz homiylik yordami hamda ezgu ishlari bilan ko'pchilikka alohida o'rnak bo'layotgan yurt-doshlarimizni taqdirlash maqsadida:

1. “Mehr-saxovat” ko'krak nishoni ta'sis etilsin.

2. Quyidagilar:

“Mehr-saxovat” ko'krak nishoni to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

“Mehr-saxovat” ko'krak nishonining tavsifi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini ikki hafta muddatda “Mehr-saxovat” ko'krak nishonlari va ularning guvohnomalarini belgilangan tartibda tayyorlanishini ta'minlasin.

4. Ushbu Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

Sh. MIRZIYOYEV

*Toshkent shahri,
2020-yil 26-may*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

“MEHR-SAXOVAT” KO‘KRAK NISHONI BILAN MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Bugungi kunda butun insoniyat qatori ko‘p millatli xalqimiz ham koronavirus pandemiyasi oqibatida yuz bergan og‘ir sinov va qiyinchiliklarga qarshi sabotmatonat bilan kurash olib bormoqda.

Ushbu ulkan ofatning mamlakatimiz hayotiga salbiy ta‘sirini yumshatish, fuqarolar salomatligini asrash, ularni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan o‘z vaqtida ko‘rilgan chora-tadbirlar samarasini bermoqda. Mana shunday murakkab va tahlikali vaziyatda mard va jasur, oliyjanob xalqimiz yanada jipslashib, o‘zaro yordam, mehr-oqibat, hamjihatlik va ahillik kabi yuksak insoniy fazilatlar sohibi ekanini yana bir bor amalda namoyon etmoqda.

Global pandemiya hamda turli tabiiy ofat va favqulodda holatlarga qarshi kurashish, ularning oqibatlarini bartaraf etish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, bu boradagi ishlarni umumxalq harakati darajasiga ko‘tarishga katta hissa qo‘shgan, jamiyatimizda tinchlik-osoyishtalik, do‘stlik va totuvlik muhitini mustahkamlashda faol ishtirok etayotgan, beg‘araz homiylik yordami hamda ezgu ishlari bilan barchaga o‘rnak bo‘layotgan yurtdoshlarimizni munosib taqdirlash maqsadida:

1. Sog‘liqni saqlash sohasining jonkuyar vakillari, saxovatli tadbirkorlar, davlat va jamoat tashkilotlarining fidoyi xodimlari hamda boshqa tashabbuskor va faol fuqarolar “Mehr-saxovat” ko‘krak nishoni bilan mukofotlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “Mehr-saxovat” ko‘krak nishoni bilan taqdirlash bo‘yicha vazirliklar, idoralar, xo‘jalik boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari va boshqa respublika tashkilotlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan taqdim etilgan ro‘yxatlarni ko‘rib chiqsin va tasdiqlasin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi,

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va boshqa ommaviy axborot vositalariga "Mehr-saxovat" ko'krak nishonlarini topshirishga bag'ishlangan tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

4. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

Sh. MIRZIYOYEV

*Toshkent shahri,
2020-yil 26-avgust*

FIDOYI YURTDOSHLARIMIZ TAQDIRLANDI

Koronavirus pandemiyasi insoniyat boshiga solgan og‘ir sinov va qiyinchiliklarga qarshi dunyo davlatlari qatori ko‘p millatli xalqimiz ham sabot va matonat bilan kurash olib bormoqda. Ana shunday murakkab va tahlikali vaziyatda yurtdoshlarimiz jiplashib, o‘zaro yordam, mehr-oqibat, hamjihatlik va ahillik kabi yuksak insoniy fazilatlarini yana bir karra namoyon etdi.

Ayniqsa, global pandemiya va tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish, fuqarolarning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, jamiyatimizda tinchlik-osoyishtalik, do‘stlik va totuvlik muhitini mustahkamlashda faol ishti-

rok etayotgan, ko‘makka muhtoj kishilarga beg‘araz homiylik yordamini ko‘rsatayotgan oliyjanob, saxovatpesha yurtdoshlarimizning ezgu ishlari barchaga namunadir.

Shu kunlarda respublikamizning turli hududlarida ana shunday tanti hamyurtlarimizning bir guruhi Prezidentimiz Farmoni asosida “Mehr-saxovat” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanmoqda. Ularning orasida turli soha vakillari, xususan, bugungi murakkab sharoitda ham mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojiga hissa qo‘shayotgan, odamlarni ish bilan ta‘minlab, ko‘plab oilalarning “Temir daftar”dan chiqishiga ko‘mak berayotgan tadbirkorlar saxovati tahsinga sazovor.

Obid SAIDOV,
**Navoiy viloyati “Eksport fish
produkt” korxonasi rahbari:**

– Ko‘ksimizga taqilgan bu mukofot bizga berilgan yuksak e‘tibor ramzi, deb bilaman. Kichik mehnatlarimga yuqori baho berilib, Prezidentimiz farmoniga muvofiq “Mehr-saxovat” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanganim men uchun katta rag‘bat bo‘ldi.

lariga daromad olib kirishni maqsad qildim.

Tadbirkorlik faoliyatimni 2015-yilda boshlagan bo‘lsam, shu vaqtga qadar turli tarmoqlar, xususan, o‘tgan yildan buyon baliqchilik yo‘nalishida ham ish olib boryapmiz. Ayni paytda korxonaning 2,5 ming metr kvadrat maydonida 4 turdagi baliqlar zamonaviy texnologiyalar-



Ushbu mukofot menga yanada kuch-quvvat, shijoat bag‘ishladi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. E‘tibordan ruhlanib, kelgusida bundanda ko‘proq mehnat qilish, qo‘limizdan kelganicha xalqimizga ko‘mak berish, yordamga muhtoj aholi qatlamini ish bilan ta‘minlash orqali oila-

ga asoslangan intensiv usulda yetishtirilyapti.

Bir yilda 500 tonna baliq mahsulotlari xalqimiz dasturxoniga yetkazilyapti. Biz ish boshlagan ilk kunimizdan xalqimiz, xususan, hududimiz aholisiga nafimiz tegishi, odamlarimizni ish bilan ta‘minlashni maqsad qilganmiz.

Shu bois, pandemiya sharoitida nochor oilalarga bajonidil ko'mak berishga intildik. Karantin davrida "Temir daftar"ga kiritilgan 40 ta oilaga doimiy ravishda oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berildi. 10 ga yaqin ishsiz insonlarning bandligi ta'minlandi. Hozirda korxonamizda mehnat qilayotgan 70 nafar ishchilarning ko'pchiligi kam ta'minlangan oilalarning a'zolari hisoblanadi. Ularga munosib ish sharoiti yaratish orqali ayrimlarining "Temir daftar"dan chiqarilishiga hissa qo'shayotganimizdan mamnunmiz.

Xalqimizda qo'l bilan berganga qush to'yamaydi, degan naql bor. Biz kambag'al oilalarga har qancha moddiy ko'mak bermaylik, ularni doimiy ish bilan ta'minlamagunimizcha oilalarining moddiy ahvolini yaxshilashga erisha olmaymiz. Shu bois, ayni vaqtda korxonamiz faoliyatini yanada kengaytirish ko'zda tutilgan. Navbahor tumanida 10 milliard so'mlik imtiyozli kredit mablag'lari asosida yangi tikuv sexini qurish ishlari olib borilyapti. Korxonada ishga tushgach, yana 600 ga yaqin xotin-qizlar ish bilan ta'minlanadi.

Fotima ZIYODULLAYEVA,
*Buxoro viloyatidagi "Poyabzal
erkatoy bolajon" korxonasi rah-
bari:*

— "Mehr-saxovat" ko'krak ni-
shoni bilan taqdirlanishim men

uchun kutilmagan voqea bo'ldi. Xushxabarni eshitib, nihoyatda quvondim. Kichik mehnatimizni e'tirof etib, mukofot bilan taqdir-
laganlari uchun davlatimiz rah-
bariga minnatdorchilik bildira-
man.

O'zim 18 yil bank tizimida ish-
laganman. Tadbirkorlik faoliya-
timni 2013-yilda ortopedik poyab-
zal va tekstil kiyimlar ishlab
chiqarishdan boshladim. Viloyat-
ning eng chekka hududlaridan
bo'lgan Peshku tumanida ishni
yo'lga qo'yib, xotin-qizlar, asosan,
kambag'al, ehtiyojmand ayollarni
ish bilan ta'minlashni maqsad
qilgan edik. Hozir korxonada
150 ta ayol ish bilan band. Uning
yonida barpo etilayotgan yan-
gi tikuv sexlarini ishga tushirish
orqali yana 100–150 nafar ayolni
mehnatga jalb qilib, doimiy daro-
mad manbai bilan ta'minlashni
rejalashtirganmiz.

Bugun korxonamizda 10 tur-
dagi mahsulotlar, xususan, bir yil-
da 800–900 ming atrofida tibbiy
niqob, kombinzonlar, 500 mingta
maxsus kiyimlar ishlab chiqari-
ladi. Dunyo davlatlari qatori yur-
timiz iqtisodiyoti, aholi turmush
darajasiga xavf solayotgan pan-
demiya sharoitida fuqarolarning
tibbiy vositalarga bo'lgan ehti-
yojini qondirish maqsadida ish-
lab chiqarish quvvatini bir ne-
cha barobarga oshirdik. Shunday
murakkab vaziyatda korxonada-
gi ayollar barcha karantin cho-

ralariga rioya etgan holda uchta smenada mehnat qilib, mamlakatimizdagi tibbiy vositalar zaxirasini to'ldirishga hissa qo'shdi.

Odamlarimizga yordam berish maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning bir qismi xayriya qilindi. Sardoba, Olot tumanlari aholisiga tibbiy vositalar, ko'rpa-to'shak, kiyim-kechaklar yetkazib berish, hududlardagi kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatishga intildik. Bunday og'ir kunlarda odamlarimiz bir-birini qo'llab-quvvatlagani, zarur bo'lganda bir burda nonini baham ko'rganiga guvoh bo'lib, ana shunday bag'rikeng, tanti xalqning farzandi ekanimdan g'ururlandim. Mana shu elning bir fuqarosi sifatida bundan keyin ham muhtoj oilalarga ko'mak berish, ish faoliyatimni yanada kengaytirish orqali ko'proq xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashni maqsad qildim. Zero, bugungi sinovli kunlarda o'zaro hamjihatlikda, qo'lni-qo'lga berib harakat qilsakkina, qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'tamiz.

Nosir YUSUPOV,

Samarqand viloyatidagi "Bulung'ur-Sandvik" agrofirmasi direktori:

– Prezidentimiz farmoni bilan bir qator yurtdoshlarimiz qatori menga ham "Mehr-saxovat" ko'krak nishonining topshirilishi ham kutilmagan, ham hayajonli

voqea bo'ldi. Mazkur mukofotni nafaqat men, balki korxonamizda faoliyat yuritayotgan har bir kishiga ko'rsatilgan e'tibor, ishonch ramzi, deb bilaman.

Bugun mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sohasining barcha tarmoqlari, xususan, meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani sir emas. Korxonamiz 2009-yilda ish faoliyatini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdan boshlagan bo'lsa, bugunga kelib mahsulotlarni qayta ishlash va eksport qilish jarayonlarini o'zida birlashtiruvchi yirik agrosanoatga aylandi. Ayni paytda bu yerda Italiyaning zamonaviy "Sandvik" texnologiyalari yordamida bir yilda 2 ming tonna quritilgan meva-sabzavotlar ishlab chiqarilyapti.

2018-yilda "Best Veg Farm" MCHJ bilan hamkorlikda meva-sabzavotchilik klasteri tashkil etilib, ish faoliyatimiz yanada kengaydi. O'tgan yili 4528 tonna quritilgan meva va boshqa mahsulotlar AQSH, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Qozog'iston, Xitoy, Eron, Iroq, Turkmaniston va Turkiya davlatlariga eksport qilindi. Joriy yilda 1110 ta fermer xo'jaliklari bilan umumiy summasi 33,7 milliard so'mlik jami 43 ming tonna sabzavot mahsulotlari uchun shartnoma imzolangan. Hozirgi kunga qadar 23,5 ming tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlari qayta ishlandi.

Ayni paytda korxonada 80 dan ortiq doimiy, 400 nafardan ziyod mavsumiy ishchilar mehnat qiladi. Ularning moddiy ahvoli, oilaviy sharoitidan doim xabardor bo'lishga intilamiz.

Ayniqsa, pandemiya sharoitida korxonada ishlovchi 28 ta ishchining oilasi muntazam oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlandi. Bulung'ur tumanidagi 33 ta kam ta'minlangan, yordamga muhtoj oilalarga ko'mak berdik. "Temir daftar" ro'yxatida turuvchi kambag'al

oilalardan 42 nafarini ish bilan ta'minladik.

Aytish joizki, bugungi sinovli kunlarda eng katta yutug'imiz — xalqimizning jipslashib, bir-biriga yordam qo'lini cho'zayotgani bo'lmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali vaziyatda oliyjanob xalqimiz o'zaro yordam, mehr-oqibat, hamjihatlik va ahillik kabi yuksak insoniy fazilatlar sohibi ekanini yana bir bor amalda namoyon etdi va bu birdamlik Prezidentimiz e'tiboridan chetda qolmadi.

Iroda TOSHMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri.
2020-yil 2-oktabr

XALQIMIZNI YANADA JIPSLASHTIRGAN EZGU TASHABBUS



Dunyo ahlini tashvish va xavotirga solgan koronavirus pandemiyasi, afsuski, mamlakatimizni ham chetlab o'tmadi. Ayrim rivojlangan davlatlarda kam ta'minlangan oilalarning tibbiy yordam olishi jiddiy muammoga aylanib qolgan bir davrda O'zbekistonda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalasiga juda katta e'tibor qaratildi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati tashkil etilgani xalqimizni ezgu bir maqsad yo'lida yanada jipslashtirdi.

Bu tashabbus yurtimizdagi birorta oilaning e'tibordan chetda qolmasligini ta'minlash bilan bir qatorda odamlar o'rtasida o'zaro mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlash, ko'p asrlik qadriyatimiz hisoblangan xayr-saxovat tuyg'ularini yanada rivojlantirishga hissa qo'shgani bilan ham katta ahamiyatga ega.

Men istiqomat qiladigan Samarqand tumanida ham "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati uyushqoqlik bilan o'tkazildi. Tumanimiz tadbirkorlari va saxovatpesha insonlar tomonidan 2 ming 245 ta oilaga 5,5 milliard so'mdan ortiq moddiy yordam ko'rsatildi.

Men ham mana shunday savobli ishga o'z hissamni qo'shganimdan baxtiyorman. Prezidentimiz mazkur tashabbusda ishtirok etgan biror bir tadbirkor zarar ko'rmasligi, odamlarga ko'rsatgan yordami miqdorida davlat tomonidan tadbirkorlarga ham qo'shimcha imtiyozlar yaratib berish lozimligini qat'iy ta'kidladi.


Tadbirkorlar xalqimiz boshiga shunday sinov tushganda o'zining qalb amri, farzandlik burchi bilan yordamga shoshilgan bo'lsa-da, davlatimiz rahbari ularga kredit foizlarini kamaytirish, turli sub-

sidiyalar ajratish kabi imtiyozlar bergani yurtimizda tadbirkorlik sohasi doimo davlat himoyasida ekanining amaldagi yorqin dalili bo'ldi.

Bugun esa Prezidentimiz Farmoniga asosan "Mehr-saxovat" ko'krak nishoni bilan taqdirlanganimiz qalbimizda cheksiz g'urur va iftixor uyg'otdi.

Bunday e'tibor va rag'bat biz tadbirkorlarni ona Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lida yanada katta kuch va g'ayrat bilan mehnat qilishga undadi.

Akbar MAHMUDOV,
Samarqand tumanidagi
"Kelajak press" mas'uliyati
cheklangan jamiyati direktori.
2020-yil 10-oktabr



XALQ BIRLIGI VA MATONATI – ULUG‘ QUDRAT

*Buxoro viloyatida yuz bergan
tabiiy ofatga qarshi kurash xalqimizning
jipsligi, mehr-muhabbati va qudratini
amalda namoyon etdi*

PREZIDENT TASHRIFI ODAMLARNING RUHINI KO'TARDI

2020-yil 27-aprel kuni mam-lakatimizga Turkmaniston hudu-didan kirib kelgan kuchli shamol Buxoro, Navoiy, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida aholi hayoti, infratuzilma tarmoqlari va qishloq xo'jaligi ekinlariga katta zarar keltirdi. Shamolning tezli-gi ayrim hududlarda sekundiga 40 metrgacha yetdi. Hodisa tala-fotlari, ayniqsa, Buxoro viloyati-da katta bo'ldi. Bir necha fuqaro jarohatlanib, bir kishi halok bo'ldi. Shuningdek, uy-joylar, avtotransport vositalari, infratuzilma obyektlari va ekin maydonla-riga zarar yetdi.

Xalq ichida bo'lish, odamlar-ning dard-u tashvishini o'ylab yashash, turmush sharoitini yax-shilash Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev faoliyatining asosiy mezoniga aylangan. Davlatimiz rahbari hozirgi pandemiya sha-roitida dolzarb masalalarning

ko'pligi va noqulay ob-havo sha-roitiga qaramay, xalq dardiga malham bo'lish uchun zudlik bi-lan Buxoro viloyatiga yetib bordi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev vertolyotda Qorako'l va Olot tu-manlaridagi holatni ko'zdan kechirdi.

Olot tumani markazida ma-halliy aholi vakillari, faollar bilan uchrashdi.

Davlatimiz rahbari kutilmagan tabiiy ofat – kuchli shamol odamlar turmushi, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarga salbiy ta'sir qil-ganini afsus bilan qayd etdi.

– Koronavirus pandemiyasi paytida hamma tashkiliy cho-ra-tadbirlarni ko'rib, tartib-in-tizomni qattiq tutganimiz nati-jalarini ko'ryapsizlar. Har bir fuqaroning hayotini asrash uchun 24 soat harakat qilyapmiz. Albat-ta, bu hammamizning boshimiz-ga tushgan katta sinov. Avval ayt-



ganimdek, biz bu qiyinchilikdan jiplashib, yanada qudratli bo'lib chiqamiz, bir-birimizga mehr-muhabbatimiz oshadi. Kechagi ofat ham yana bir sinov bo'ldi. Hammasini bevosita ko'rish, sizlarning kayfiyatlaringizni ko'tarish uchun o'zim keldim. Qo'limizda barcha ma'lumotlar bor. Qancha mablag' kerak bo'lsa, beramiz. Bironta xonadon, korxonona, fermer xo'jaligi e'tibordan chetda qolmaydi. Eng katta masala – saranjom bo'lib, odamlarni asrash kerak, – dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari sarosimaga tushmasdan har kungi yumushlarni davom ettirish muhim ekanini ta'kidladi. Tabiiy ofat oqibatlarini zudlik bilan bartaraf etish, turar joylar va infratuzilma obyektlarini ta'mirlash, aholiga

har tomonlama ko'maklashish bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar berdi. Qishloq xo'jaligi, iqtisodiyot tarmoqlari, jamoat xavfsizligi yuzasidan tezkor choratadbirlar belgilandi.

Mahalla fuqarolar yig'inlari raislari har bir xonadonga kirib, odamlarga xavotirga tushmaslikni, karantin qoidalariga rioya qilgan holda, yetkazilgan talafot tez kunlarda bartaraf etilishini tushuntirish kerakligi qayd etildi. Qorako'l va Olot tumanlari hokimlariga mana shu og'ir kunlarda odamlarning ruhini ko'tarib, ularni birlashtirib, xalqimiz nimalarga qodir ekanini ko'rsatish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Uchrashuvda mana shunday og'ir kunlarda tadbirkorlarimiz "Saxovat va ko'mak" umumxalq





harakatiga qo'shilib, bag'rikeng, oliyhimmat yurtdoshlarimiz safi kengayib borayotgani mahallalar, hududlarni obod qilishda muhim omil bo'lishi qayd etildi.

– So'nggi uch yilda qilayotgan barcha sa'y-harakatlarimiz, har kuni o'z ustimizda ishlab, tinimsiz izlanayotganimizdan maqsad, avvalo, odamlarni rozi qilib, inson manfaatlarini yuksaltirishga qaratilgan. Mana shunday og'ir kunlarda bag'rikeng xalqimiz birlashib, davlatimiz olib borayotgan ishlarga kamarbasta bo'lsa, bu sinovni ham albatta yengib o'tamiz, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari Buxoro viloyatiga tashrifi chog'ida Ba-

houddin Naqshband maqbarasini ziyorat qildi.

Muborak Ramazon kunlarida Alloh taolodan xalqimizga tinchlik-osoyishtalik, yurtimizni turli balo-ofatlardan asrashini tilab duo qilindi.

Prezidentimiz muqaddas dinimizni, ulug' ajdodlarimizning bu yo'ldagi ilmiy merosini chuqur o'rganish bilan bog'liq muhim masalalarga ham alohida to'xtalib o'tdi.

Buxoro xalqaro aeroportida tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish, aholi, fermer va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha vazirlik va idoralar rahbarlariga topshiriqlar berildi.

O'ZA



OFAT VA
MATONAT





PREZIDENTIMIZ VA DAVLATIMIZ KO'MAGI XALQIMIZGA KATTA MADAD BO'LDI



Mamlakatimizga kirib kelgan kuchli shamol yurtimizning bir qator hududlari qatorida Olot tumani infratuzilma tarmoqlari va qishloq xo'jaligi ekinlariga katta zarar keltirdi. Bu tabiiy ofat tufayli uy-joylar, avtotransport vositalari, infratuzilma obyektlari va ekin maydonlari talafot ko'rdi.

Shunday murakkab vaziyatda davlat miqyosidagi dolzarb yumushlar ko'pligi va noqulay

ob-havo sharoitiga qaramay, Prezidentimiz zudlik bilan tumanimizga yetib kelib, vaziyatni sinchiklab o'rgandi. Tumanimiz markazida faollar va aholi vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari bugun mamlakatimizning barcha hududlarida koronavirus pandemiyasiga qarshi kurash olib borilayotgani, qat'iy tartib-intizom o'rnatilgani tufayli yaxshi natijalarga erishilayotganini alohida ta'kidladi. Bu tabiiy ofat ham bir sinov ekani, sarosimaga tushmay, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilsak, qiyinchiliklarni yengib, yanada kuch-qudratga to'lishimiz haqida katta ishonch bilan gapirdi. Shuningdek, tabiiy ofatdan zarar ko'rgan har bir oilaga ko'mak berilishi, birorta xonadon, korxonona, fermer xo'jaligi e'tibordan chetda qolmasligi aytiladi. Uchrashuvda tabiiy ofat

oqibatlarini zudlik bilan bartaraf etish, turar joylar va infratuzilma obyektlarini ta'mirlash, aholiga har tomonlama ko'maklashish bo'yicha mutasaddilarga topshiriq berildi.

Bugun tumanimizda qirqqa yaqin mahalla fuqarolar yig'inida yuz mingga yaqin aholi, jumladan, yigirma olti mingdan ziyod oila yashaydi. Shu kunlarda bunyodkorlik ishlari bilan birga aholi orasiga, oilalarga kirib, xalqimiz bilan bevosita uchra-shuvlar o'tkazyapmiz. Suhbat va muloqotlarda xalqimiz hozirgi sinovli kunlarda Prezidentimiz va davlatimizning ko'magini har tomonlama his etayotganiga yaqqol guvoh bo'lmoqdamiz. Shuning uchun odamlarning ruhi baland, xavotir, sarosima, tashvish iztirobga o'rin yo'q.

Prezidentimiz tabiiy ofatning qishloq xo'jaligi va iqtisodiyot tarmoqlariga ta'sirini bartaraf etish bo'yicha ham aniq ko'rsatmalar berdi. Ayni paytda tumani-

mizda ikki yuzga yaqin fermer xo'jaligi bor. Fermerlarimizning fidokorona mehnati tufayli o'tgan yillarda paxta va g'alladan mo'l hosil oldik. Afsuski, tabiiy ofat bu yilgi g'alla va paxta hosiliga jiddiy talafot yetkazdi.

Aholi tomorqalari va issiqxonalar ham zarar ko'rdi. Hozir maxsus ishchi guruh qishloq xo'jaligiga oid yo'qotishlarni ham atroflicha o'rganmoqda. Ularning xulosasi asosida ziyon yetgan maydonlarga paxta ekish ishlarini boshlab yuboramiz. Bir so'z bilan aytganda, xalqimiz bilan hamjihatlikda, yaratib berilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib, tez kunlarda tabiiy ofat oqibatlarini hamda koronavirus pandemiyasini bartaraf etamiz.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bu sinovlarda sabr-bardoshimiz, o'zaro mehr-oqibatimiz va bir-damligimizni, yurtparvarligimizni namoyon etib, tinch va osoyishta hayotimizni, albatta, izga tushirishga erishamiz.

Nargiza NE'MATOVA,
Olot tumani hokimi.
2020-yil 30-aprel

ISHONCHNING QUDRATLI KUCHI

Davlatimiz rahbarining Buxoro viloyatida bo'lgan tabiiy ofatdan so'ng zudlik bilan ushbu hududlarga yetib borgani, holat bilan yaqindan tanishgani, talafotlarni bartaraf etish bo'yicha topshiriqlar bergani xalqqa ko'tarinki ruh, katta kuch bag'ishladi.

– Muhtaram Prezidentimiz bilan yuzma-yuz suhbat asnosida u kishining har bir so'zida, yuz-ko'zidagi har bir ifodada O'zbekistonimizga, shu ulkan oilamizning har bir a'zosiga bo'lgan cheksiz muhabbatni ko'rdim, – deydi “Nuroni” jamg'armasi Olot tumani bo'limi raisi Saidquli Oqqiyev. – Ayniqsa, “Diyorimizdagi har bitta mahalla, har bitta xonadon men uchun aziz” degan so'zlari hammamizni to'lqinlantirib, ruhlantirib yubordi. Albatta, nogahoniy ofat tufayli boshimizga tushgan tashvishlar bir to-

mon, davlatimiz rahbarining taskinbaxsh da'vatlari bir tomon bo'ldi. Biz, yosh-u keksalarning vazifasi karantin tartiblarini saqlagan holda hududlarimizda tiklash, yangilash ishlarini olib borish, aholining davlatimiz siyosatiga ishonchini mustahkamlash, odamlarni jipslashtirishdir. Prezidentimizning biz bilan shaxsan uchrashib, yo'l-yo'riq ko'rsatganlari hammamizga ulkan kuch-g'ayrat berdi.

Qorako'l tumanidagi “Kumush kalava” mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Asror Mansurov ham o'z mulohazalari bilan o'rtoqlashdi:

– Tabiiyki, katta talafot bo'ldi. Lekin, eng muhimi, elimiz tushkunlikka tushgani yo'q. Hayot doimgidek davom etyapti. Odamlarning kayfiyati a'lo. Barchaning ko'zida ishonch, xatti-harakatida dadillik. Prezidentimiz tashrifi

hammamiz uchun xayrli bo'ldi. U kishining yordami, bevosita rahnamoligida qisqa vaqt ichida Olot, Qorako'l va ziyon ko'rgan boshqa joylarda ahvolni o'nglashga kirishdik. Nafaqat o'nglaymiz, avvalgidan ham ziyoda qilib, obod etamiz. Bu ishlarda biz, tadbirkorlar ham kamarbastamiz.

– Ilohim, bunday falokatlar ortda qolgani rost bo'lsin, – deydi Qorako'l tumanidagi xalqaro matematika maktabi direktori Temirqul Ro'ziyev. – Yo'l boshchimizning boshimizga shunday katta tashvish tushganda hozir bo'lganlari, bunday g'amxo'rliklari, sa'y-harakatlari barcha uchun ibratlidir.

Ta'kidlash joizki, ofatdan so'ng tez orada Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida elektr, gaz ta'minoti bilan bog'liq uzi-

lishlar qayta tiklandi. Zarar ko'rgan binolarni, xonadonlarni ta'mirlashga, ko'chalarni tartibga keltirishga kirishildi.

Bugun talafot yetgan hududlarda ish qizg'in. Barcha bunyodkorlikka bel bog'lagan. Qudratli texnikalar ovozi bir dam tinmayapti. Uzoq-yaqindan madad kuchlari kelmoqda. Barcha birdam bo'lib, ofat talafotlarini bartaraf etyapti. Ularning yuz-u ko'zida ishonchni, ertangi kun umidini ko'rasiz.

Bularning tub zamirida – yuksak g'amxo'rlik va e'tibor mujassam. Xalqparvarlikning oliy namunasi odamlarni shunday bir lashtirdi, ularning vujudida o'zga cha g'ayrat va shijoat, qalbida chuqur ishonch uyg'otdi. Bu eng katta va qudratli kuchdir.

Rustam IBROHIMOV
2020-yil 4-may

YAKDILLIKDA HIKMAT KO'P

Buxoro viloyatiga jiddiy zarar keltirgan tabiiy ofat, davlatimiz rahbarining zudlik bilan voqea joyiga yetib kelishi, boshlab yuborilgan keng ko'lamdagi ishlar viloyat ahlini sinovli kunlarda yanada mustahkam ishonch va shijoat bilan yashashga undadi.

Ayni paytda tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish, turar joylar va infratuzilma obyektlarini ta'mirlash, aholiga har tomonlama ko'maklashish bo'yicha jaryon qizg'in kechmoqda.

Dastlab ko'p talafot ko'rgan hududlardagi 34 ming 423 xonadon holati o'rganildi. 23 ming 766 ta oilaga jiddiy ziyon yetgani aniqlandi. Ayni kunlarda ulkan qurilish maydoniga aylangan Olot va Qorako'l tumanlariga qurilish, oziq-ovqat va boshqa kundalik zarur mahsulotlar yetkazilmoqda.

– Bu ofat oqibatlarini bartaraf etish uchun biz – Samarqand

viloyati xalqi ham o'z yordamimizni ayamaymiz, – deydi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Samarqand viloyati boshqarmasi boshlig'i O'lmas Meliyev. – Birinchi bosqichda Samarqand viloyatidan Olot hamda Qorako'l tumaniga 20 tonna kartoshka, 4 tonna piyoz, 4 tonna sabzi, 2 tonna yog' hamda 2 ming dona shifer olib kelindi. Ikkinchi bosqichda ham qurilish materiallari, oziq-ovqat mahsulotlarini olib kelish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, qo'shni viloyatlardan hamda qo'mita va idoralardan insonparvarlik yordami sifatida Olot va Qorako'l tumanlari aholisiga 76 tonna sabzavot mahsulotlari, 34 tonna un va yog', shuningdek, 21,5 tonna shakar va guruch yetkazib berildi.

– Prezidentimizning o'zi kelib xalqimizga ofatni birgalikda, hamjihatlikda yengib o'tish yuza-



sidan katta kuch-quvvat, g'ayrat berdi, – deydi Qorako'l tumanini hokimi Sherali Salomov. – Shundan kelib chiqib biz ham o'zimizning ishchi guruhlarni tuzib 4–5 soha bo'yicha ishlarni tashkil qildik. Dastlab, tumanda elektr energiyasi tiklandi. 50 ta mahalladagi talafot ko'rgan xonadonlarni inventarizatsiya qilib chiqdik va ularga kerakli qurilish materiallarini yetkazish bo'yicha ishlar qilinmoqda.

Respublika shtabi Olot tumanida tuzilgan bo'lib, bu yerda har ikkala tumanda amalga oshirilayotgan qurilish-tozalash ishlari, ularga sarf qilinadigan qurilish materiallari, ishchi kuchiga bo'lgan talab hisob-kitob qilib borilmoqda. O'tgan 2 kunda viloyat-

ga "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tomonidan Olot, Qorako'l, Jondor, Peshku, Shofirkon va Romitan tumanlariga 50 mingta shifer yetkazib berilgan.

Sinovli damlarda oqibatli insonlar, qo'li ochiq hamyurtlarimiz elga qanot bo'ladi. Bunday yurtdoshlarimiz yonginamizda.

– Men Navoiy viloyatidan keldim, – deydi tadbirkor Sherbek Sharipov. – Shunaqa paytda yordam berish uchun ikkita yuk mashinasida shifer olib keldik. Ish qizg'in. Birdamlikda, hamjihatlikda harakat qilib, vaziyatdan chiqib ketishga o'z hissamizni qo'shamiz.

Tabiiy ofatni bartaraf etishga Mudofaa vazirligi tizimidagi ko'chma vositalar, xususan,



500 nafar harbiy xizmatchi jalb qilingan. Ular armiya va xalq yakdil ekanini amalda namoyon qilishyapti. Eng zarur birlamchi obyektlarni qurish va joylarni tozalash ishlarida jonbozlik ko'rsatmoqda.

Ha, yakdillikda hikmat ko'p. Xalqimiz buni yaxshi angalaydi va anglash barobarida uni amalda ko'rsata oladi. Bu kunlar ham bir sinov. Uni yengib o'tish uchun esa xalqimizda sabr-bardosh ham, oqibat ham yetarli.

Nurillo NASRIYEV
2020-yil 2-may

OLOT VA QORAKO'L YANGICHA CHIROY KASB ETMOQDA

Prezidentimizning Buxoro viloyatida tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan farmoyishiga asosan, davlat budjetidan 100 milliard so'm miqdorida mablag' ajratildi. Tabiiy ofatdan jabr ko'rgan xonadonlar o'z vaqtida qurilish materiallari va ustalar bilan ta'minlanyapti.

Ta'mirlash va tiklash uchun 11 yarim ming nafarga yaqin quruvchi jalb qilindi. Bugun qariyb 100 ming kishilik Olot tumanining har bir ko'chasida qurilish ishlari qizg'in ketmoqda. Bu yerda davlatimiz rahbarining ko'rsatmalari asosida barcha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Qurilish materiallari izma-iz yetkazilmoqda. Buning natijasida o'tgan qisqa vaqt ichida 4 ming 393 ta xonadon ta'mirdan chiqarildi. 41 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 105 ta maktab, 108 ta sog'liqni saqlash

obyektlarida ta'mirlash ishlari yakuniga yetkazildi.

Bugungi keng globallashuv va texnika asrida elektrsiz hayotni tasavvur qilish qiyin. Kuchli bo'ron nafaqat uylar, balki simyog'ochlar, yirik elektr minoralarini ham qulatgan edi.

– Tabiiy ofat oqibatida viloyatdagi 84 ta mahalla, 359 ming 131 nafar aholi to'liq elektr energiyasi ta'minotidan uzilib, 50 ming kilometrdan ortiq elektr tarmoqlari, 1 ming 816 ta transformator ishdan chiqqan edi, – deydi “Buxoro hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ bosh muhandisi Ruhullo Jabborov. – Ta'mirlash ishlariga 103 ta texnika va 600 dan ortiq ishchi jalb qilinib, 19 ta mahallada to'liq elektr energiya ta'minoti tiklandi, 286 ming 112 nafar aholi elektr energiyasiga qayta ulandi.

Shuningdek, aloqa tizimlari, tabiiy gaz, ichimlik suvi ta'minoti ham qariyb to'liq tiklandi.

Pandemiya sharoitida aksariyat sanoat korxonalari karantin sababli faoliyatini to'xtatgan bir davrda butun iqtisodiyotning umid nigohi qishloq xo'jaligiga qaratilgan edi. Ammo talafot ushbu soha boshida ham bor ekan. Tabiiy ofat tufayli viloyatdagi mavjud 97 ming 900 gektar paxta maydonidan 25 ming 344 gektari buzib qayta ekilmoqda. Talafot yetgan 12 ming 619 gektar g'alla maydonidan 680 gektarini tiklash imkoniyati yo'q. Eng katta zarar esa issiqxonachilarga yetdi. Mavjud 253 gektar issiqxonadan 194 gektari talafot ko'rdi. 9 ming 660 gektar bog'dan 2 ming 616 gektari yaroqsiz holga keldi.

– Hozirga qadar Olot tumanidagi 445 gektar g'alla maydoniga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha 35 ta fermer xo'jaligidan xabarnomalar kelib tushdi, – deydi “O'zagrosug'urta” AJ Buxoro viloyat filiali rahbari Anvar Adilov. – O'rganishlar davomida ko'rilgan zarar miqdori 1,4 mlrd. so'm ekanligi aniqlanib, o'zaro sug'urta shartnomasi talablari-ga muvofiq, 818 million so'm miqdorida sug'urta to'voni to'lab berildi. Xususan, 6,1 million so'm miqdorida sug'urta to'lo-

vini amalga oshirgan “Haydar-Ni-yoz zamini” fermer xo'jaligiga 128,8 million so'm, 4,8 million so'm to'lovni amalga oshirgan “Narzi-Oyim” fermer xo'jaligiga 121,7 million so'm sug'urta to'voni to'langan.

Shuningdek, filialga jismoniy shaxslarning zararlangan imorat va uy-anjom jihozlari bo'yicha 41 ta, yuridik shaxslarning issiqxonalar bo'yicha 6 ta, garovga qo'yilgan mol-mulkari bo'yicha 5 ta xabarnomalar kelib tushgan. Mazkur zararlar ham tez orada qoplab beriladi.

– Shu o'rinda qayd etish kerakki, “O'zagrosug'urta” AJ o'zi bilan sug'urta polisini imzolagan mijozlarning yetkazilgan zararlarini qoplab berishga tayyor, – deydi A. Adilov. – Jamiyat va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnoma talablari, unda ko'rsatilgan shartlar asosida tabiiy ofatdan ko'rilgan zararlar to'lanadi.

Bugun Buxoro viloyati, ayniqsa, Qorako'l va Olot tumanlari bo'ronidan so'ng yangicha chiroy kasb etmoqda. Uylar manzarasi o'zgarmoqda, shikast yetgan yo'l, aloqa, elektr, gaz – barcha tarmoqlar butkul yangilanmoqda. Zohiriy yangilanishlar esa odamlarning ham qalbida, ham botinida o'z aksini topmoqda.

Akbar RUSTAMOV
2020-yil 12-may



MADANIYAT MARKAZI











MAZKUR TURAR JOY
MAJMUASIGA
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIROMONOVICH
MIRZIYOYEV TOMONIDAN
2020-YIL 15-MAY KUNI
TAMAL TOSHI OO'YILIB,
2020-YIL 13-OKTYABR KUNI
FOYDALANISHGA TOPSHIRILGAN.

“ULUG‘ XALQ QUDRATI JO‘SH URGAN ZAMON”

*Sirdaryo viloyatida sodir bo‘lgan texnogen
ofat oqibatlarini bartaraf etishda
xalqimizning chinakam bunyodkorlik
fazilati namoyon bo‘ldi*

SUV TOSHQINI BIZ UCHUN ACHCHIQ SABOQ BO‘LDI



Hurmatli do‘stlar!

Bu yil insoniyat uchun, shu jumladan, biz uchun ham juda og‘ir keldi. Keyingi bir haftaning o‘zida xalqimiz ketma-ket kutilmagan sinovlarga duch keldi.

27-aprel kechasi Buxoro viloyatida, ayniqsa, Olot va Qorako‘l tumanlarida yuz bergan og‘ir tabiiy ofatdan yaxshi xabardorsizlar.

Afsuski, boshimizga kelgan sinovlar shu bilan tugagani yo‘q.



Xabaringiz bor, Sirdaryo viloyatidagi Sardoba suv omborida sodir bo'lgan favqulodda vaziyat tufayli Sardoba, Oqoltin, Mirzabod tumanlaridagi 24 ta mahalladan 90 mingga yaqin fuqaro zudlik bilan xavfsiz hududga evakuatsiya qilindi. Ularning barchasiga birinchi darajali zarur sharoitlar yaratilib, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa mahsulotlar yetkazilmoqda. Suv toshishi oqibatlarini bartaraf etish va sabablarini o'rganish bo'yicha Hukumat komissiyasi ishlatilmoqda.

Zarar yetgan uy-joylarni tiklash va ta'mirlash, aholini o'zining tiklangan uyiga qaytarish va ro'zg'origa yordam berish, infratuzilmani qaytadan tiklash,

aholi salomatligini himoya qilish bo'yicha barcha masalalar hal qilinmaguncha, Sirdaryoga birlashtirilgan har bir rahbar kuchaytirilgan safarbarlik rejimida ishlaydi.

Bu hududlardagi odamlarning hayotini nafaqat oldingi holatiga qaytarish, balki uni yanada yaxshilash kerak. Ularga yangi uy-joylar, ijtimoiy obyektlar, yangi ish o'rinlari barpo etib berishimiz shart, deb hisoblayman.

Bugungi kunda qator mahallalarda keng qamrovli tozalash-tiklash ishlari amalga oshirilib, natijada 53 mingdan ziyod aholi o'z uylariga qaytishi yoki yaqin qarindoshlari uyiga ko'chib o'tishi ta'minlandi. Takror aytaman, davlatimiz, jamiyatimiz



hech kimni bunday kutilmagan falokatlar qarshisida yolg'iz va e'tiborsiz qoldirmaydi.

Aholimiz hayotini saqlab qolish va evakuatsiya qilishda Favqulodda vaziyatlar, Ichki ishlar va Mudofaa vazirliklari, Milliy gvardiya xizmatchilari muhim rol o'ynadi. Bugungi kunda ular avariya va tiklash ishlariga keng jalb etilgan.

Afsuski, hozirgacha 4 nafar fuqarolarimizning tabiiy ofat oqibatida halok bo'lgani, 1 nafari bedarak yo'qolgani aniqlandi.

Jumladan, aholini xabardor qilish va qutqaruv ishlarini olib borish jarayonida Milliy gvardiyaning 2 nafar xodimini kuchli suv oqimi olib ketgan. Ular o'z jonini fido qilib, yuzlab-minglab insonlar hayotini saqlab qolish-

di. Halok bo'lganlarning yaqinlari va oila a'zolariga o'zimning chuqur hamdardligimni bildiram.

Yigitlarimizning jasorati barcha kasbdoshlari va yoshlar uchun Vatanga, xalqimizga sodiqlik va fidokorona xizmat qilishning namunasi bo'lib qoladi.

Albatta, Buxoro va Sirdaryodagi ofatlar Yaratganning bizga yuborgan sinovi. Bunga sabr qilishimiz, qattiq mehnat bilan, birligda yorug' yuz bilan o'tishimiz kerak.

Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, xalqimiz bu sinovlar oldida o'zini yo'qotib qo'ymaganini alohida ta'kidlamoqchiman.

Mana, "oynayi jahon" orqali ko'ryapsizlar, xalqimiz yanada birlashib, o'zining mehr-oqibati,



bag'rikengligi, buyuk saxovatini har kuni, har daqiqada namoyon etmoqda.

Buni Sardoba, Oqoltin, Mirzaobod tumanlaridan ko'chirilgan fuqarolarning 81 foizini Sirdaryo, Jizzax va Toshkent viloyatlari aholisi ixtiyoriy ravishda o'z xonadonlariga joylashtirgani ham yaqqol ko'rsatib turibdi.

Boshqa viloyatlar, vazirlik, kompaniya va uyushmalar, aholimiz tomonidan qisqa vaqtda Buxoro va Sirdaryoga yordam berish uchun katta miqdordagi homiylik mablag'lari o'tkazildi, qurilish materiallari, oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon va ro'zg'or buyumlari yuborildi.

Fursatdan foydalanib, jabr ko'rganlarga yordam ko'rsatayotgan bag'rikeng, saxovatpesha va hamdard xalqimizga yana bir bor o'zimning samimiy minnatdorchiligimni izhor etaman.

Xalqimiz bir narsadan ko'ngli to'q bo'lishi lozim, hech qanday ortiqcha gap-so'zlarga va mish-mishlarga o'rin bo'lmasligi kerak.

Mening topshirig'imga ko'ra, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan suv toshqini bilan bog'liq voqea yuzasidan obyektiv, xolis va keng qamrovli tergov harakatlari boshlangan.

Xalqimizni ishontirib aytaman, tergov yakunlari bo'yicha barcha aybdorlar kim bo'lishi va egallab

turgan lavozimidan qat'i nazar, qonun oldida javob beradi.

Bu suv toshqini biz uchun achchiq saboq bo'ldi. Shu sababli suv ombori masalasida biz xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda to'g'onning barcha dambalarini chuqur ekspertizadan o'tkazamiz. Faqat shundan keyingina yakuniy xulosaga kelamiz.

Shuningdek, mening topshirig'imga ko'ra, hozirgi kunda tegishli davlat organlari tomonidan kuchli yog'ingarchilik sababli eroziya yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha gidroinshootlar, to'g'onlar va GESlarda tekshiruv ishlari olib borilmoqda.

Afsuski, Sardobadagi ofat natijasida biz bilan chegaradosh bo'lgan yon qo'shnimiz – Qozog'iston Respublikasi Turkiston viloyati Maqtaral tumanining ayrim aholi punktlarini ham suv bosdi.

Biz Qozog'iston Prezidenti, hurmatli Qosim-Jo'mart To'qayev bilan telefon orqali bu masalani o'zaro tushunish va ochiqlik ruhida atroflicha muhokama qilib oldik. Kuni kecha Turkiston viloyati hokimi Umirzoq Shukejev boshchiligidagi delegatsiya voqea joyida bo'lib, vaziyatni har tomonlama chuqur o'rgandi.

Biz qardosh qozoq xalqi bilan azal-azaldan bir daryodan suv ichib, o'zaro quda-anda bo'lib, et bilan tirnoqdek yaqin bo'lib yasha-

ganmiz. Quvonchli kunlarda ham, sinovli damlarda ham hamisha bir-birimizga yelkadosh bo'lib, qo'llab-quvvatlab kelganmiz.

Ushbu kutilmagan texnogen ofat – nafaqat aholimizga, balki qo'shni qozoq birodarlarimizga ham ortiqcha tashvish va ziyon yetkazganidan judayam xijolatdamiz. Ularning aholi yashash joylari va ekin maydonlari zarar ko'rganidan, albatta, biz juda afsusdamiz.

Hukumatimiz, tegishli vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar,

boshqa mutasaddi va mutaxassislar qozog'istonlik hamkasblari bilan birgalikda tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha, albatta, yaqindan hamkorlik qiladi. Biz qozog'istonlik birodarlarimizga tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etishda kerakli yordam berishga ham tayyor ekanimizni bildirdik.

Ishonchim komil, biz boshimizga tushgan bu og'irliklarni ham xalqimiz bilan birgalikda, o'zaro hamjihatlikda bir tan-u bir jon bo'lib, albatta, yengib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida yuz bergan favqulodda hodisalarga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan.

2020-yil 5-may

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

“SARDOBA SUV OMBORI” TO‘G‘ONIDA YUZAGA KELGAN FAVQULODDA HODISA OQIBATIDA JABRLANGAN FUQAROLARNI MANZILLI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA INFRATUZILMANI TIKLASH CHORA-TADBIRLARINI MOLIYALASHTIRISH TO‘G‘RISIDA

Sirdaryo viloyatida joylashgan “Sardoba suv ombori” to‘g‘onida yuzaga kelgan favqulodda hodisa oqibatlarini bartaraf etishni zarur mablag‘lar bilan ta‘minlash maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining “Sardoba suv ombori” to‘g‘onida yuzaga kelgan favqulodda hodisa oqibatida zarar ko‘rgan fuqarolarni uy-joy bilan ta‘minlash va infratuzilmani tiklash uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan qaytarib bermaslik asosida Davlat budjetiga 100 mln dollar ekvivalentidagi mablag‘lar ajratish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin.

Belgilansinki, ushbu mablag‘lar quyidagi maqsadlarga yo‘naltiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligiga talafot ko‘rgan hududlarda suv toshqini oqibatida izdan chiqqan irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini tiklash, shu jumladan, kollektorlar, drenaj va drenaj quduqlarini, meliorativ nasos stansiyalarini ta‘mirlash va tozalash ishlari uchun;

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasiga talafot ko‘rgan hududlarda yo‘l-transport infratuzilmasini qurish, rekonstruksiya va ta‘mirlash ishlari uchun;

O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligiga talafot ko‘rgan hududlarda toza ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari uchun;

Sirdaryo viloyati mahalliy budjetiga Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlarida uy-joyi buzilgan yoki yashab bo‘lmaydigan ahvolga kelgan oilalarga 2020–2021-yillar davomida ko‘p qavatli uy-joylarni qurish hamda qurib bitkazilgan va sotilmagan ko‘p qavatli uy-joylardagi xonadonlarni egalikka berish uchun;

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligiga Sirdaryo viloyatining Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlarida ijtimoiy soha obyektlarini (maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, tibbiyot muassasalari va boshqalar) qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ishlari uchun.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'n kun muddatda:

a) Sirdaryo viloyatining Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlarida:

uy-joyi buzilgan yoki yashab bo'lmaydigan ahvolga kelgan oilalar uchun 2020–2021-yillar davomida ko'p qavatli uy-joylar qurish parametrlarini;

uy-joy massivlarida zarur ijtimoiy soha obyektlari va muhandislik-transport kommunikatsiyalarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarining manzilli dasturlarini tasdiqlasin;

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga Mudofaa va huquq tartibot organlarining tadbirlari hamda ularga O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturida ko'zda tutilgan jami 1,150 trln so'm miqdorigacha bo'lgan budjet mablag'larini maqbullashtirish bo'yicha taklif kiritsin.

3. Mazkur qarorning 2-bandi "b" kichik bandiga asosan maqbullashtiriladigan mablag'lar quyidagilarga yo'naltirilsin:

a) 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlariga muvofiq hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha xarajatlar hisobidan quyidagilarga ajratilgan mablag'lar o'rnini qoplash uchun:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi "Sirdaryo viloyatida joylashgan "Sardoba suv ombori" to'g'onida yuzaga kelgan favqulodda hodisa oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-5569-son farmoyishiga asosan Sirdaryo viloyati mahalliy budjetiga ajratilgan 100 mlrd so'm;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-yanvardagi "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4581-son qaroriga asosan 2019-yil 1-dekabr qadar xususiy sheriklar tomonidan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihozlash ishlari 25 foizdan kam bo'lmagan hajmda bajarilgan davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar bo'yicha kreditlarni moliyalashtirish uchun ajratilgan 182 mlrd so'm;

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 14-noyabrdagi 950-son farmoyishiga asosan Davlat va jamoat ehtiyojlari uchun, shuningdek, boshqa maqsadlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan yer uchastkalari olib qo'yilishi hamda ko'chmas mulk obyektlarining buzilishi oqibatida yetkazilgan zarar miqdori bo'yicha vujudga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun Jizzax, Toshkent, Qashqadaryo, Surxondaryo, Farg'ona viloyati hamda Toshkent shahar mahalliy budjetlariga ajratilgan 352,7 mlrd so'm;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" PF–5953-son Farmoni 9-bandiga asosan yangi tashkil etiladigan kichik sanoat zonalariga barcha zarur infratuzilmalarni yetkazib berish uchun kichik sanoat zonalarini boshqarish direksiyalariga ajratilgan 85,3 mlrd so'm;

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Buxoro viloyatida yuz bergan tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi F–5567-son farmoyishiga asosan Buxoro viloyati mahalliy budjetiga 130 mlrd so'm ajratish (shu jumladan, oldin ajratilgan 100 mlrd so'm o'rnini qoplash) uchun;

v) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi "Koronavirus pandemiyasi davrida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4700-son qarori 6-bandiga muvofiq yer maydonlarini foydalanishga kiritish maqsadida tuman budjetlariga ajratilgan 300 mlrd so'm.

4. Belgilansinki, Sirdaryo viloyatining Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlarida qurilayotgan ko'p qavatli uy-joylar hamda ijtimoiy soha obyektlariga elektr tarmoqlari, tabiiy gaz quvurlari va aloqa tarmoqlarini tortish ishlari tegishli "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "Hududgazta'minot" AJ, "O'zbektelekom" AK mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

Sh. MIRZIYOYEV

*Toshkent shahri,
2020-yil 21-may*

“BIRONTA XONADON, BIRONTA ODAM E'TIBORSIZ QOLMAYDI”

Yomg'ir yog'ib, kuchli shamol bo'lgani sababli 2020-yil 1-may kuni ertalab Sirdaryo viloyatidagi Sardoba suv ombori to'g'onining bir qismi o'pirildi.

Oqibatda suv oqimi aholi punktlari, kommunikatsiya tarmoqlari va qishloq xo'jaligi maydonlariga katta zarar yetkazdi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev zudlik bilan voqea joyiga yetib keldi. Hukumat komissiyasi tashkil etilib, favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etish, aholini xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish va ularga har tomonlama yordam berish bo'yicha barcha chora-tadbirlar ko'rildi.

Prezidentimiz Oqoltin tumanida aholi bilan uchrashib, ushbu tabiiy ofatdan jabrlangan har bir inson alohida e'tiborga olinishi, hamma uy-joy va oziq-ovqat bilan ta'minlanishini ta'kidladi.

– Bu hech kim kutmagan sinov. Birinchi harakatimiz odamlarni ehtiyot joylarga ko'chirish bo'ldi. Eng katta masala – o'lim bo'lmasligi. Oqsoqollar, mahalla raislari va nozirlaridan iltimos qilaman: odamlarni yig'ib, uylarga, palatkalarga joylashtirib, oziq-ovqat bilan ta'minlab, mahallama-mahalla saranjom qilib olishimiz kerak. Buning uchun hamma kuch va vositalarni safarbar qilamiz. Sharoit yaxshi bo'lmaguncha bironta rahbar ketmaydi. Sabr qilib, og'irlikni yelkamizga olib, chidashimiz kerak. Bironta xonadon, bironta odam e'tiborsiz qolmaydi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Tezkor chora-tadbirlarga Favqulodda vaziyatlar, Suv xo'jaligi vazirliklari, mahalliy hokimliklar, qurilish ta'mirlash tashkilotlari, huquq-tartibot idoralari va boshqa xizmatlar mutaxassislari safar-



bar etildi. Suv ombori yaqinidagi mahallalar aholisi xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilindi. Jumladan, tumanlarda tashkil etilgan maxsus shtablar tomonidan maktab, kollej, korxonalar va xonadonlarga joylashtirildi.

Shuningdek, Mudofaa vazirligi shaxsiy tarkibi va maxsus texnikalari aholini evakuatsiya qilish, tegishli xo'jalik obyektlarini jihozlash uchun safarbar qilindi. Ichki ishlar vazirligi va Milliy

gvardiyaning Sirdaryo hamda Jizzax viloyatlari hududiy boshqarmalari evakuatsiyaga ko'maklashish, tartibni saqlash ishlariga jalb etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Sardoba suv ombori to'g'oni ochilgan joyga borib, uni ko'zdan kechirdi. Hukumat komissiyasi va mutaxassislar bilan muhokama qilgan holda suv oqimini to'xtatish uchun zarur kuch va vositalar jalb qilindi.

O'zA.
2020-yil 2-may

FAVQULODDA HODISA OQIBATLARINI BARTARAF ETISH BO‘YICHA ZARUR CHORA-TADBIRLAR BELGILANDI

Sardoba suv ombori to‘g‘oni-ning ochilishi kutilmagan ofat, el boshiga tushgan yana bir sinov bo‘ldi. Davlatimiz rahbari boshchiligida xalqimiz birlashib, sarosimaga tushmay, sabr-matонат va mehnat bilan tez fursatlarda uning oqibatlarini bartaraf etishga kirishdi.

Yuzaga kelgan talafotni bartaraf etish ishlari izchil davom etmoqda. Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Mudofaa vazirligi, huquq-tartibot idoralari, qurilish-ta‘mir-lash tashkilotlari va mahalliy hokimliklar o‘zaro muvofiq harakat qilib, turmush sharoitlarini tiklash choralari ko‘rmoqda.

Ta‘kidlash joizki, bu yerda tiklash ishlari kun-u tun tashkil qilingan, yuzlab qurilish va boshqa maxsus texnika vositalari tinimsiz ishlamoqda. Suv inshootlariga ixtisoslashgan yuqori malakali muhandislar, boshqa

tutash soha va tarmoqlar ishchi va ekspertlari jalb etilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 2-may kuni Sardoba suv omboriga borib, to‘g‘onni tiklash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ko‘zdan kechirdi. Mutaxassislar bilan atroflicha muhokama qilgan holda, dambani mustahkamlash bo‘yicha qator ko‘rsatmalar berdi.

Davlatimiz rahbari suv toshqiniga birinchi bo‘lib duch kelgan Sardoba tumani Navoiy nomidagi mahallaga bordi.

Hukumat komissiyasi mutasaddilari amalga oshirilgan chora-tadbirlar yuzasidan axborot berdi.

Prezidentimiz mahalla bo‘ylab yurib, yuzaga kelgan ahvol bilan yaqindan tanishdi. Hududni puxta tozalab, dezinfeksiya qilish, qat‘iy sanitariya-epidemiologik nazoratni ta‘minlash, muhandislik-kommunikatsiya



tarmoqlarini tez fursatlarda, lekin sifatli tiklash bo'yicha topshiriqlar berdi. Shavkat Mirziyoyev suv chekinganidan keyin o'z mahallasiga qaytgan odamlar bilan muloqotda bo'lib, talafot ko'rgan joylarda turmush sharoitlari tez kunlarda tiklanishi, aholiga har tomonlama ko'mak berilishini ta'kidladi.

– Shunday og'ir paytda hammamiz sizlarning yoningizdamiz. Avvalo, har bir mahallaga kirib, o't o'chirish mashinalari yordamida suvni qochiramiz. Qurilish, ta'mirlash va yangi uylar barpo etish bo'yicha xalq bilan maslahatlashib ish tutamiz. Hamma-sini sekin-sekin joyiga qo'yamiz. Fermerlarning masalasi ham dalasiga chiqqan holda hal etiladi. Eng muhimi, o'zlaringiz sog'-salomat, bolalaringiz yoningizda ekan. Ko'ngilni to'q qilinglar. Xu-

doga iltijo qilamizki, bizga madadkor bo'lsin, oxirgi ko'rganimiz shu bo'lsin, – dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari Oqoltin tumanidagi Shodlik mahallasi va Mirzaobod tumanidagi Haqiqat mahallasi tutashgan hududda ham bo'ldi.

Guliston shahrida Prezidentimiz raisligida mutasaddi rahbarlar, huquq-tartibot idoralari mas'ullari, jamoatchilik vakillari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi.

Tadbirda Sardoba suv ombori to'g'onining kutilmaganda buzilishi va uning oqibatlarini atroflicha tahlil qilindi, tegishli xulosalar chiqarildi.

Aholi salomatligini saqlash, talafot ko'rganlarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish, ijtimoiy obyektlar va qishloq xo'jaligi maydonlarini tezroq tiklash bo'yicha dolzarb masalalar



muhokama qilinib, zarur chora-tadbirlar belgilandi.

Bugun butun mamlakatimiz e'tibori Sardoba tumanidagi tabiiy ofat asoratlarini bartaraf etishga, suv toshqinidan aziyat chekkan yurtdoshlarimizga moddiy yordam ko'rsatishga, ma'naviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Oliyjanob va mehr-oqibatli xalqimiz hamjihat bo'lib, Sirdaryoga oziq-ovqat, issiq kiyim-bosh va boshqa zarur mahsulotlar yuklangan ko'mak karvonlarini yubormoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Sardobadagi favqulodda hodisa sababli Guliston shahriga evakuatsiya qilingan odamlar bilan muloqot qilib, ulardan ko'ngil so'radi. Hech kim e'tibordan chetda qolmasligi, hammaga g'am-xo'rlik ko'rsatilishini ta'kidladi.

Hukumat komissiyasiga berilgan ko'rsatmalar asosida suv bosgan hududlarni tozalash, qurilish va ta'mirlash, turmush maromini yo'lga qo'yish bo'yicha ishlar uzluksiz davom etmoqda.

O'zA.
2020-yil 2-may

SIRDARYOLIKLAR HAYOTI YANA O‘Z MAROMIGA TUSHMOQDA

Oddiy hayot haqiqati bor. Bu dunyoda xursandchilik va tashvish, yutuq va qiyinchiliklar hamisha yonma-yon yuradi. Yurtimizning qadim tarixida bunday voqealar ko‘p bo‘lgan. Lekin ko‘pni ko‘rgan, azm-u shijoatli xalqimiz bunday vaziyatlarni hamisha aql-idrok, sabr-toqat va jasorat bilan yengib o‘tgan.

2020-yil 1-may kuni Sirdaryo viloyatida yuz bergan hodisa bu haqiqatni yana bir bor tasdiqladi. Iqtisodiy taraqqiyot va ravnaq yo‘lida shiddat bilan ilgarilab borayotgan mamlakatimiz jiddiy sinovga duch keldi. Ammo irodasi mustahkam, matonatli elimiz bu safar ham hamjihatlik va ahillik namunasini ko‘rsatmoqda.

Bu qat’iyat kun-u tun xalq manfaatini, yurtning tinchligi va osoyishtaligini o‘ylab yashayotgan davlatimiz rahbari boshchiligida qudratli to‘lqina aylandi.

Prezidentimiz hodisa yuz bergan dastlabki soatlardayoq bu yerga zudlik bilan yetib kelib, odamlarga hamdard va yelkadosh bo‘lgani, “talafot oqibatlarini qisqa vaqtda bartaraf etamiz, jabr ko‘rgan har bir inson, har bir xonadonga, albatta, yordam beramiz”, – degan so‘zlari Sirdaryo ahliga juda katta madad va dalda berdi.

Davlatimiz rahbari ikki kun davomida viloyatda qolib, vaziyatni barqarorlashtirish ishlariga shaxsan bosh-qosh bo‘ldi. Shu bois ham xalqimiz bu kutilmagan tabiiy ofat oldida o‘zini yo‘qotib qo‘ymadi. Hamma bir tan-u bir jon bo‘lib, hududda normal hayotni tiklash borasida faollik va fidoyilik ko‘rsatmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 3-may kuni ham Sirdaryo viloyatida bo‘lib, Sardoba suv ombori hududida amalga



oshirilayotgan tiklash-ta'mirlash ishlari bilan yaqindan tanishdi.

Ma'lumot o'rnida shuni aytish lozimki, mazkur suv inshooti Sirdaryo va Jizzax viloyatlaridagi 6 tuman ekin maydonlarini suv bilan ta'minlash maqsadida barpo etilgan. Hozirgi vaqtda toshqin yuz bergan joyda 2 ta brigada tashkil etilib, to'g'on yorig'ining chap va o'ng qirg'oqlarida jadal ish olib borilmoqda.

Bu jarayonga yuzlab malakali mutaxassislar, mingdan ortiq maxsus texnikalar jalb etilgan. Katta xarsang toshlar, beton bloklar va plitalar, boshqa tegishli qurilish materiallari keltirilib, to'g'on oldida yarim aylana shaklida to'siq devor barpo etilmoqda. Ishchi-muhandislar, haydovchi-

lar uchun barcha sharoit yaratilib, sa'y-harakatlar kecha-yu kunduz tashkil etilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev bajarilgan ishlarni sinchiklab ko'zdan kechirib, mutasaddi rahbarlar va mutaxassislarga zarur ko'rsatmalar berdi.

Ma'lumki, suv toshqini, asosan, Sirdaryo viloyatining Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlari aholi punktlari va ekinzorlariga zarar yetkazgan. Hukumat komissiyasi tomonidan amalga oshirilgan tezkor choratadbirlar natijasida ushbu tumanlardagi 22 qishloqdan jami 60 mingdan ziyod aholi evakuatsiya qilingan.

Davlatimiz rahbari suv toshqiniga duch kelgan qishloqlarda bo'lib, hududni tozalash,



infratuzilma obyektlarini tiklash, aholi uchun sharoit yaratish bo'yicha topshiriqlar bergan edi.

Favqulodda vaziyatlar, Mudofaa, Suv xo'jaligi vazirliklari, huquq-tartibot idoralari, qurilish-ta'mirlash tashkilotlari va mahalliy hokimliklarning o'zaro muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlari natijasida bu yo'nalishda jadal ishlar olib borilmoqda. Toshqin tufayli hosil bo'lgan chiqindilar yig'ishtirilib, hudud dezinfeksiya qilinmoqda. O't o'chirish mashinalari yordamida ko'lmaklardagi suv tortib olinmoqda.

Yo'llar ochilib, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari tiklanmoqda.

Natijada ayrim mahallalarda oilalar o'z uylariga qayta boshladi. Boshqa joylarda tozalash-ta'mirlash ishlari tezkor sur'atlarda

davom etmoqda. Yaqin vaqtlarda ularda ham zarur sharoitlar yaratilib, hayot yana o'z iziga tushadi.

Prezidentimiz Sardoba tumanidagi Qo'rg'ontepa mahallasini borib ko'rdi. Hukumat komissiyasi mutasaddilari amalga oshirilgan chora-tadbirlar yuzasidan axborot berdi.

Ushbu mahalla fuqarolar yig'ini 530 xonadon bo'lib, 4200 nafar aholi istiqomat qiladi. Hudud suv toshqiniga birinchi bo'lib duch kelgan, odamlar tezkor ravishda xavfsiz joylarga ko'chirilgan edi.

Katta kuch va texnika vositalari, askarlar, boshqa sohalar xodimlari jalb qilinib, amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar natijasida tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etilyapti, odamlar o'z uylariga qaytayapti.

Davlatimiz rahbari shunday uylardan biriga kirib, xonadon egalariidan hol-ahvol soʻradi. Barcha qatori ularga ham moddiy va maʼnaviy yordam koʻrsatilishi, hech kim eʼtibor va gʻamxoʻrlikdan chetda qolmasligini yana bir bor taʼkidladi.

Shavkat Mirziyoyev qadrdon makoniga qaytgan mahalla aholisi bilan muloqot qildi.

Prezidentimiz Oqoltin tumanida ham boʻldi. Mutasaddi xodimlar favqulodda hodisa yetkazgan zarar, ularni bartaraf etish boʻyicha koʻrilayotgan choralar haqida axborot berdi.

Suv toshqini tumanning Shodlik va Ahillik mahallalari hududini ham bosgan edi. Ularda yashayotgan 11 mingdan ziyod aholi Guliston shahri hamda Jizzax viloyatining Mirzachoʻl va Doʻstlik tumanlariga evakuatsiya qilindi. Ushbu noxush voqea oqibatida tumandagi jami 13 ming 397 gektar paxta, gʻalla va poliz ekinlariga zarar yetgan.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga har bir xonadon egalari bilan gaplashib, ularning uy-joylarini taʼmirlash, yashash sharoiti mavjud xonadonlarga aholini qaytarish boʻyicha koʻrsatmalar berdi.

Navbatdagi manzil – Mirzaobod tumani. Bu yerda nuroniy- lar, mahalla oqsoqollari va faollari, jamoatchilik vakillari bilan uchrashuv boʻldi.

Bu tuman ham suv toshqini katta taʼsir koʻrsatgan hududlardan biri. Navbahor, Haqiqat, Bahoriston hamda Yoʻldoshobod mahallalarida yashovchi qariyb 15 ming aholi tumanning Yangiobod mahallasi hamda Yangiyer shahriga joylashtirilgan. Jami 7084 gektar qishloq xoʻjaligi maydoniga zarar yetgan.

Prezidentimiz qurilish-taʼmirlash ishlarini xalq bilan maslahatlashib amalga oshirish, dehqon va fermerlar muammolarini joyiga chiqqan holda hal etish zarurligini taʼkidladi.

Aholi vakillari davlatimiz rahbariga shunday qiyin vaziyatda xalq bilan birga boʻlgani, qisqa vaqtda katta ishlar qilinib, hayot izga tushayotgani uchun minnatdorlik bildirdi.

Shu yerda hukumat aʼzolari, mutasaddi rahbarlar bilan qishloq xoʻjaligi maydonlarini qayta foydalanishga kiritish, shikast yetgan yoʻl va koʻpriklarni taʼmirlash masalalari muhokama qilinib, chora-tadbirlar belgilandi.

OʻZA.
2020-yil 3-may

XALQ O‘Z ADIBLARI SO‘ZIDAN KUCH OLADI



...O‘sha kuni kun peshinga og‘ayotib, telefonim asabiy jiringlab qoldi. Mirzacho‘lda safarda bo‘lib turgan do‘stimiz Muhammad Siddiq ekan. Telefonning yashil tugmachasini xotirjam bosdim:

– Allo! Assalomu alaykum, aka, bizga yurtdosh bo‘lib ketdingiz... El-yurtimiz omonmi?

– Vaalaykum assalom, – nafasi bo‘g‘zidan titrab chiqdi shoir do‘stimning. – Eshitmadingizmi?

– Nimani? – so‘radim ichimga vahima cho‘kib.

– Internetga kirmabsiz, chog‘i... Sardobada suv toshqini yuz beribdi. Biz turgan Mirzacho‘lga aholini yoppasiga ko‘chirib kelyapti... So‘rayotganim, opalaringiz qaysi tumanda yashaydi...

Ko‘p o‘tmay, Sardobadagi fojia haqidagi xabarlar o‘rgimchak to‘ridek internetdagi barcha tarmoqlarni qamrab oldi. Hadik bilan voqealarni kuzatib borar ekanman, bexos bolaligimdagi shumlig-u sho‘xliklarimizni esladim.



Qulog‘im tom bitgandek, boshqa so‘zga toqat qilolmadim. Xayolim jigarlarim tomon o‘qdek uchib ketdi... Muhammad aka bilan suhbatimiz qanday yakun topganini hozir ham eslolmayman. Darhol, qo‘lim titrab Gulistonga – opamga telefon qildim. Aksiga olib ko‘tara qolmadi... O‘ylarim potirlab, eng qo‘rqinchli tusga kira boshladi. Shoshib, jiyanimga chiqdim, go‘shakni oldi. Xayriyat, ulardan xavotirim o‘rinsiz ekan...

Bolaligimizda chumolilarning iniga suv quyib o‘ynardik. Toshqindan qochgan mitti jonivorlarning nochor, ojiz ahvolini ko‘rib zavq olardik. Bugun tong sahardan xavfsiz hududlarga ko‘chirilayotgan sirdaryoliklar yuzidagi hadik, xavotirni ko‘rib bolaligimizda qanchalar katta gunoh qilganimizni anglab yetdim.

Xalqimiz oyoqqa qalqdi, barcha hamjihatlikda jabrdiyda yurtdoshlarimizning dardini bo‘lishishga, yo‘qotganlarining o‘rnini

to'ldirishga, ko'ngliga yupanch bo'lishga oshiqdi. Sirdaryoliklarining g'am-u g'ussalariga sherik bo'lib, ko'ngillarini ko'tarish, butun millat ular bilan birga ekanliklarini bildirish maqsadida "Sirdaryoliklarga yordam" mehrsaxovat xayriyasi boshlanib ketdi.

Yozuvchilar uyushmasi hamda "Ijod" jamoat fondi jamoasi ham oziq-ovqat mahsulotlari, shaxsiy gigiyena vositalari hamda Uyushma tomonidan chop etilgan mingdan oshiq badiiy kitoblar, qolaversa, bolajonlar uchun daftar-qalam va boshqa o'quv qurollaridan iborat muruvvat yukini tayyorladi. Mazkur jo'natma mamlakatimizning barcha viloyatlaridan kelayotgan, turli tashkilot va idoralarga tegishli avtoulovlardan iborat bosh-u adog'i ko'rinmaydigan mehr karvoniga qo'shilib, izmaiz Sirdaryo tomon yo'l oldi...

To'g'risi, joni og'rib turgan odamga, bir so'z aytishning yuki og'ir bo'ladi. Safar oldi dilimizdan bu uysiz-joysiz qolgan odamlar ko'ngliga kitob sig'armikan, qanday qarshi olarkan, degan hadikli o'ylar o'tgan edi. Biroq hammasi aksincha bo'ldi. Olib borilgan kitoblar bir zumda qo'lma-qo'l bo'lib ketdi...

- ...menga To'ra Sulaymonning kitobini bering.

- ...Ozod Sharafiddinovning kitobini...

- ...Halima Xudoyberdiyeva-ning she'rlar to'plamini uzatib yuboring...

Demak, xalq o'z adiblari so'zidan taskin topadi, ovunadi, kuch oladi. Hamma zamonlarda ham, hamma balo-yu ofatlarda ham kitob o'z o'quvchisi uchun ahamiyatini yo'qotmagan. Gospitalda yarador yotgan askarni yana jangga, qahramonlikka undagan, sunamidan jon saqlab o'tirgan qizaloqqa yapon imperatorini ta'zim qildirgan ham mana shu - kitob!

Bir chetda qimtinib turgan qizchaga mehr bilan olib kelgan shirinliklarimizdan uzatdik.

- Men rasm chizishga qiziqaman. Qalamlarim, daftarlarim uyda qolib ketdi. Iltimos, menga rasm daftari bering...

Shoshib istagini bajo keltiramiz. Qizaloqning jovdirab turgan ko'zlariga quvonch qaytadi...

Mahalliy hamrohlarimizning aytishicha, har kuni aholi ko'chirilgan binolarning atrofi kiyimkechak, ko'rpa-to'shak va bolalar o'yinchoqlariga to'lib ketarkan. Har kim ehtiyoji va o'ziga to'g'ri kelganini oladi, deyishdi. Shu yaqin atrofda yashovchi ayollar esa turli-tuman ovqatlar tayyorlab, qozonlarda, katta-katta tovoqlarda taomlar keltirishar ekan.

Onasiga ergashib kelgan to'rt yo besh yoshlardagi bolakay qo'lidagi jondan ortiq ko'rgan o'yinchoq'ini o'zidan sal kichik qiza-

loqqa hadya qiladi. Iymanibgina qo'l cho'zadi qizaloq... Insonning jismiga ezgulik urug'i jon bilan birga ekilsa kerak, ota-onasi-ning bu ofatlar haqida kuyinib suhbatlashishi bolakayning miti qalbini ham uyg'otib yuborgan bo'lsa, ajabmas. U endi hech qachon qizg'anchilik qilmaydi. U shu bugun millatning bir kurtagi bo'lib ko'z ochdi...

Davlatimiz rahbari suv toshqinidan ziyon ko'rgan, turmush sharoiti vaqtincha og'irlashgan irodasi kuchli sirdaryoliklar bilan bir necha marotaba yuzma-yuz suhbatlashib, ularga dalda berdi. Voqea joyini ko'zdan kechirib, favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etish, aholini xavfsiz hududlarga ko'chirish va ularga har tomonlama yordam berish bo'yicha birinchi galda hal etilishi lozim bo'lgan muhim topshiriqlar bo'yicha tegishli rahbarlarga bir qator ko'rsatmalar berdi.

O'zbek xalqi boshidan ko'p sinovlarni kechirgan. Qanday og'ir sharoitga tushmasin, o'zining nechog'liq matonatli millat ekanligini aslo esidan chiqarmagan. Birlashib, jiplashib, hamjihatlikda, har qancha og'ir bo'lmasin, barcha sinovlarni ortda qol-

dirib, yorug' manzillarni, ulug' marralarni zabt etgan. Bu sinovli kunlardan ham, albatta, katta saboqlar bilan o'tib olmog'imiz muqarrar!

Shoir-yozuvchilarning Sirdaryoga safarini eshitgan bolalar shoirasi Kavsar Turdiyeva, qashqadaryolik yozuvchi Sharofat Ashurova va boshqa ijodkorlar ham o'z asarlari, kitoblarini sirdaryoliklar uchun xayriya sifatida yubordi. Bu kitoblarda xalqimizning suyukli ijodkorlarining qaynoq mehri, shirin so'zi, quyoshdek taskini mujassam.

Darvoqe, Yozuvchilar uyushmasi karantin kunlarida keksa yoshdagi adiblarimiz, kam ta'minlangan ijodkorlarimiz holidan xabar olish, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ishlariga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Xalqimizning tarixiy va ma'naviy qadriyatlarini, mehr-saxovat, oqibat va himmat kabi yuksak fazilatlarini o'zida mujassam etgan "Saxovat va ko'mak" aksiyasi doirasida "Ijod" jamoat fondi mablag'lari hisobidan ularga zarur oziq-ovqat mahsulotlari, shaxsiy gigiyena vositalari hamda turli badiiy kitoblar hadya qilinmoqda.

Muhiddin ABDUSAMATOV,

*O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi mas'ul xodimi.*

2020-yil 10-may

QALBAN SIZ BILAN BIRGAMIZ...

– Sardobada suv toshqini bo‘libdi...

Aslida bu xabarni hamma eshitgan, ommaviy axborot vositalaridan, internet sahifalaridan... Lekin do‘st-u dugonalar, yor-u birodarlar ham bir-biriga qo‘ng‘iroq qilib, bu tabiiy ofatdan bezovtaligini bildirishyapti.

– Har tugul jonga zarar yetmabdi, molning o‘rni to‘lib ketar...

– Ollohning asragani shu bo‘lsin, buyog‘iga ham o‘z panohida saqlasin!

Bu gaplarda chinakam hamdardlik bor. Daraxtning bir yaprog‘i to‘kilsa, ildizi zirqiraydi, degan qadim bir hikmatning hayotiy izohi bor. Oramizdan loqaydlik, bee‘tiborlik ko‘tarilayotgani, jonkuyarlik, mehr-oqibat kelayotganining ifodasi bu. Nafsilamrini aytganda, hech kim o‘z xalqining boshiga yomon kun tushishini istamaydi. Lekin har



qanday og‘ir kunning, har qanday sinovning talafoti qadar mukofoti ham bo‘ladi. Bu yil kechirayotgan sinovlarimizning mukofoti odamlarimiz qalbida hayotni qadrlash tuyg‘usini kuchaytirgani, “har daqiqa g‘animat, umringning har soniyasini yaxshilikka sarflab ulgur”, tarzidagi da‘vatni yuraklarga

jo etgani, undan ham yaxshirog'i, bir osmon ostida, bir zamin ustida yashayotgan insonlarni birlikka, jipslikka undaganidir.

Ko'ngilga o'rnashgan bunday hissiyotlar bu kunlarning o'zida qolib ketmaydi, nasib bo'lsa, millatimizga xos barcha yashovchan fazilatlar kabi biz bilan birga davrdan davrga o'tadi.

Men ham shu hissiyotlar bilan yashayotgan zamondoshlarimning biri sifatida darrov Sirdaryodagi tanish-bilishlarim, do'st-u dugonalarim bilan bog'landim. Biri Saodat aya. Saksondan oshib, to'qson bilan to'qnashay deb turibdi. Men aya bilan shifoxonada hamxona bo'lganman. U kishi maktabdan boshqa hech qayerda o'qimagan bo'lsa-da, ashaddiy kitobxonligi bilan meni hayratga solgan edi. Men olib borgan jurnal-u kitoblarni ko'rib yashnab ketgan edi.

– Xudoyim meni shunday hamxona bilan sherik etganiga shukr, – deya kitoblarni peshonasiga tekkizib, tavof qilib, o'qishga tutingandi.

– Xudoga shukr, tinchmiz. Prezidentimiz omon bo'lsin, haliyam shu yerda, hamma oyoqqa turgan, biz – qariyalar duodamiz, – deydi Saodat aya 6 farzandi, bir etak nabiralarining salomatlik xabarini yetkazar ekan.

Oynisa dugonamiz – senator.

– Hozir majlisdan keldim. Har soatda qilishimiz kerak bo'lgan

vazifalarimiz aniq. Nasib qilsa, sardobaliklar tez kunlar ichida hech narsa ko'rmagandek bo'lib ketadi. Andijon, Samarqand, Toshkent – chor tarafdin yordam karvonlari kelyapti.

Gavharoy – shaxsiy kutubxonana tashkil qilgan, “Yil ayoli” g'oliblaridan biri, Bahor, Noriniso, Mehriniso – qalamkash singillari-miz...

– Toshqindan aziyat chekkanlar boshpana bilan ta'minlandi. Baholi qudrat xabar olib turibmiz, – deyshdi ular.

Hammasining ko'nglida tabiiy ofat oqibatlarini zudlik bilan bartaraf etishga bo'lgan ishonch tayanch bo'layotgani sezilib turibdi. Hammasi Prezidentimizning Sirdaryoda ekanligi, “Sharoit yaxshi bo'lmaguncha, birorta rahbar, men boshchiligimda hech qayoqqa ketmaydi”, – degan qat'iy so'zidan kuch olib yashayapti.

Bizning dilimizga ham aynan shu tuyg'ular yorug'lik beryapti. Qalban siz bilan birgamiz, sardobaliklar, siz qush uchmas cho'lni gulistonga aylantirgan matonatli elning avlodisiz, demak, yana tik oyoqqa turishingizga, talafotlarning o'rnini to'ldirib, to'kis, butun yashashingizga o'zingiz ishon-gandek, biz ham ishonamiz!

Qutlibeka RAHIMBOYEVA,
*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi.*
2020-yil 5-may

“BU TABIIY OFATNI, ALBATTA, BIRGALIKDA YENGAMIZ”

“Falokat oyoq ostida”, – deydi xalqimiz. Kecha tongda kutilmaganida hokimlikdan telefon qilib, Sardoba suv omboridan suv sizib chiqqani, aholini tezda ogoh etish lozimligini aytishdi.

To‘g‘risi, avvaliga biroz shoshib qoldim. Keyin tezda ko‘chaboshilarga qo‘ng‘iroq qilib, vaziyatni tushuntirdim, mashinaga chiqib, hammaga shoshilinch ravishda, kerak bo‘lsa, uy-uy kirib xabar berish lozimligini ayt-dim.

Albatta, har xil odam bor. Lekin hech kim vahimaga, sarosimaga tushgani yo‘q. Oradan ko‘p o‘tmay, qishlog‘imizga Favqulodda vazi-

yatlar va Ichki ishlar vazirliklari, hokimlik vakillari yetib keldi. Sarosimaga tushishga asos yo‘qligini, tezda avtobuslar yetib kelishini aytdi. Oradan hech qancha vaqt o‘tmay, maxsus avtobuslar va yuk mashinalari yetib keldi va biz aholimizni yuz foiz hech qanday talafotsiz, eson-omon Yangiyer shahriga yetkazdik.

Xalqimiz o‘z tarixida boshidan ko‘plab balolarni, jafolarni o‘tkazgan. Suv toshqinlari, zilzila, yer ko‘chkisi kabi tabiiy ofatlar bizni ko‘p bora sinab ko‘rgan. Lekin hech qachon yengilmaganmiz, qiyinchiliklar oldida bosh egmaganmiz. Har qanday og‘irliklarni

Eng muhimi, xalqimiz yomon kunlarda, sinovli damlarda bir-birini tashlab qo‘ymagan. Qo‘shnisining dardini o‘zining dardi deb qabul qilgan. Men kecha bunga yana bir bor guvoh bo‘ldim.

matonat bilan yengganmiz. Eng muhimi, xalqimiz yomon kunlarda, sinovli damlarda bir-birini tashlab qoʻymagan. Qoʻshnisining dardini oʻzining dardi deb qabul qilgan. Men kecha bunga yana bir bor guvoh boʻldim.

Avtobuslar kelgunga qadar aholining bir qismi oʻzlarining yengil avtomobillarida qishloqni tark eta boshladi. Shu paytda Yangiyer shahridan, qoʻshni Xovos, Boyovut tumanlaridan ham koʻplab odamlar oʻzlarining yengil mashinalarida yetib kelib, odamlarimizni beminnat xavfsiz joylarga eltib qoʻydi.

Fuqarolar yigʻinimiz aholisining asosiy qismi Yangiyer shahriga joylashdi. Shaharliklar ularni oʻz yaqinlaridek kutib oldi. Kelgan aholining yarmidan koʻpini odamlar oʻz uylariga olib ketdi. Mana

shu holatni koʻrib, bagʻrikeng, mehr-oqibatli xalqimiz borligidan faxrlandim, koʻnglim yumshab, koʻzlarimga yosh keldi.

Aholimizning qolgan qismini maktablar, bogʻchalar, sanatoriy-larga joylashtirdik. Ularning vaqtincha yashab turishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Yetarli darajada oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan taʼminlangan. Shaharliklar uylaridan ovqat pishirib chiqyapti. Axir qiyinchilik yillarida ham xalqimiz topganini oʻrtaga qoʻyib, muhtojlar bilan baham koʻrgan-ku! Bir mayizni qirq kishi boʻlib yegan, degan gap bejiz aytilmagan.

Oradan koʻp oʻtmay, voqea joyiga Prezidentimiz yetib kelganini eshitganimizda, hammamizning ruhimiz koʻtarilib ketdi. Davlatimiz rahbarining: “Bu hech kim





kutmagan sinov. Birinchi harakati biz odamlarni ehtiyot joylarga ko'chirish bo'ldi. Eng katta masala – o'lim bo'lmasligi. Oqsoqollar, mahalla raislari va nozirlaridan iltimos qilaman: odamlarni yig'ib, uylarga, palatkalarga joylashtirib, oziq-ovqat bilan ta'minlab, mahallama-mahalla sarajom qilib olishimiz kerak. Buning uchun hamma kuch va vositalarni safarbar qilamiz. Sharoit yaxshi bo'lmaguncha bironta rahbar ketmaydi. Sabr qilib, og'irlikni yelkamizga olib, chidashimiz kerak.

Bironta xonadon, bironta odam e'tiborsiz qolmaydi", – degan so'zlarini eshitganimizda esa, Xudo xohlasa, bu jafoni tezda bartaraf etishimizga ishonchimiz yanada oshdi.

Albatta, uylarimiz, ekinlarimiz zarar ko'rdi, ishlarimiz bir-oz orqaga surildi. Lekin xalqimizning ruhi singani yo'q. Hech kim ertangi kunga ishonchini yo'qotmadi. Eng muhimi shu. Bu tabiiy ofatni, albatta, birgalikda yengamiz.

Hayitboy HAKIMOV,
Mirzaobod tumanidagi "Bahoriston"
qishloq fuqarolar yig'ini raisi.
2020-yil 5-may

BIRLASHGAN EL QUDRATLI BO‘LADI

Bismillahir Rohmanir Rohim!

Kuni kecha tongda Sirdaryo viloyatidagi Sardoba suv ombori to‘g‘onining bir qismi ochilib, yuzaga kelgan toshqin tufayli minglab yurtdoshlarimiz boshpanasiz qoldi. Bu favqulodda holat oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha tezkor choralar ko‘rildi.

Yurtimiz ulamolari ham suv omboridagi favqulodda holat oqibatlari bartaraf bo‘lishini Yaratgan Parvardigordan so‘rab, dinimizda tavsiya qilingan amallarni ado etdilar. Islom dini manbalarida har bir holat uchun – yaxshi-yomon kunlar, xursandchilik-musibatli damlarda o‘ziga xos amallar va duolarni qilish haqida ko‘p bayon etilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarining 36 ta mintaqasidagi tabarruk



ulamolarimiz va imom-domlarimiz tomonidan Alloh taboraka va taolodan mazkur noxush hodisaning salbiy oqibatlarini bartaraf etishini so‘rab, xatmi Qur‘onlar o‘qilib, muborak Ramazon kunlarida duo-yu tazarrular qilindi. Imom-xatiblar, imom noiblari va madrasalar talabalari tomonidan 420 ta xatmi Qur‘on qilindi. Shuningdek, xayriya tadbirlari doirasida 4 bosh qoramol, 85 ta qo‘y so‘yilib, kam ta‘minlangan oilalar, yordamga

muhtoj kishilar, yetim-yesirlar va duosi mustajob insonlarga tarqatildi.

Bugun O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Usmonxon Alimov hazratlari va Din ishlari bo'yicha qo'mita raisi Abdug'ofur Ahmedov Sirdaryo viloyatida yuzaga kelgan favqulodda holat oqibatida aziyat chekkan yurtdoshlarimizni qo'llab-quvvatlash maqsadida insonparvarlik yuklari orilgan ikkita yuk mashinasi bilan ushbu viloyatga yetib bordilar. Ular aholi vakillari bilan muloqot qilib, bunday sinovli kunlarda, eng asosiysi, sarosimaga tushmasdan, yelkama-yelka turib, sa'y-harakatlarni birlashtirish va boshga kelgan tashvishni sabr-matonat bilan yengish o'ta muhim ekanini ta'kidladilar.

El boshiga ish tushganda yordam qo'lini cho'zish chin mo'aminlik sifati, xalqimizga xos fazilatdir. Ushbu noxush voqea sodir bo'lganidanoq, mahalliy aholiga ko'mak berish tadbirlari uyushqoqlik bilan boshlanib ketgani mahzun qalblarga katta dalda bo'ldi. Ayni damda Sirdaryo viloyati ahliga O'zbekistonning barcha hududlaridan mehr-muruvvat yuklari yuborilmoqda.

Alloh taoloning bu sinovli kunlarida, Ramazon oyida mashaqqatda qolgan sirdaryolik yurtdoshlarimiz, keksalar, ayollar va yosh bolalarga yordam qo'lini cho'zayotgan barcha azizlarimizga samimiy minnatdorligimizni bildiramiz. Alloh taolo qilayotgan ehsonlarni o'z dargohida qabul qilsin, ajr-u savoblarini ziyodasi bilan ato etsin.

Ibrohimjon INOMOV,
O'zbekiston musulmonlari
idorasi raisi o'rinbosari.
2020-yil 5-may

MASHAQQATLAR OLDIDA CHEKINMAGAN EL

Irodali, matonatli, tanti, mard va oliyanob xalqimiz hech qachon turli qiyinchilik va mashaqqatlar oldida esankirab qolmagan. Tarix sahifalarini varaqlasak, bunga juda ko'plab misollar topishimiz mumkin.

Kuni kecha Sirdaryo viloyatining Sardoba suv omboridagi tabiiy ofat ham barcha yurtdoshlarimizni yana bir marta sinovdan o'tkazdi.

Sardobadagi suv toshqinidan ozor chekkan, talafot ko'rgan oilalarni qo'llab-quvvatlash, qishloqlar, ekin maydonlaridagi zarar oqibatini tugatishga qoraqalpog'istonliklar ham birinchilardan bo'lib yordam qo'lini cho'zdilar. Sirdaryoga uzoq qoraqalpoq elidan 30 bosh qoramol, 35 tonnadan ziyod guruch, 50 million so'mlik kiyim-kechak, dori-darmonlar, oziq-ovqat mahsulotlari jo'natildi. Shuningdek,



Sirdaryoga yordam hisob raqamiga 5 milliard so'm mablag' o'tkazildi.

Biz, qoraqalpog'istonliklar Sirdaryo viloyati xalqi bilan birgamiz, ularga hamdardmiz. Shifoxonadagi bemor ham, uysiz qolayotgan aholi ham, ekinlari nobud bo'lgan, bog'lari talafot



koʻrgan fermer, dehqon-u bogʻbon ham aslo yolgʻiz emas.

Butun xalqimiz mehridan, qoʻllab-quvvatlashidan bu ofatlar tezda bartaraf boʻlishiga ishonchimimiz komil.

Hayotimiz uchun ogʻir kelayotgan 2020-yilning barcha qi-

yinchiliklari, albatta, orqada qoladi. Yurtimizda olib borilayotgan odilona, oqilona ichki va tashqi siyosat vatanimizning ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqi, tinchlik-oso-yishtaligi, aholi turmush farovonligi, xalqimiz baxtli turmushining kafolatidir.

Guliston ANNAQILICHEVA,
Oliy Majlis Senati aʼzosi.
2020-yil 5-may





ISHONCHIMIZ MUSTAHKAM

Yoshim 65 ga yaqinlashib qoldi. Salkam 40 yildan buyon Mirzabod tumanining Navbahor qishloq fuqarolar yig'inigiga qarashli "Bobur" nomli mahallada yashab kelaman. Shu yerda 6 nafar farzandimni voyaga yetkazib, uyli-joyli qildim. Hozir bolalarim turli joylarda yurtimiz obodligi yo'lida xizmat qilib kelmoqda.

Mahallamiz Sardoba suv omboridan uncha uzoqda emas. Shu bois toshqin haqidagi xabarni eshitganimiz zahoti yo'lga otlandik. Shoshganimizdan, hatto hujjatlarimizni ham unutibmiz. Aslida hayot-mamot uchun kurash ketayotgan paytda hujjat esga kelarmidi. Xullas, shu hududda yashovchi o'g'lim, nevaralarim bilan eson-omon Yangiyer shahriga yetib oldik.

Suv oqimi pasaygandan so'ng surishtirsam, uyimiz 1,5 metr suv ostida qolibdi. Hozir Zomindagi o'g'limnikidan panoh topdik. Televizordan suv toshqini bo'yi-

cha xabarlarni muntazam kuzatib turibmiz. Prezidentimiz shoshilinch ravishda Sirdaryoga yetib kelgani va biz kabi jabr ko'rganlar bilan uchrashgani, ofat oqibatlarini tugatishga shaxsan o'zlari rahbarlik qilayotgani, shuningdek, aholini uy-joyiga qaytarish uchun tezlik bilan barcha choralar ko'rilishi haqidagi gaplar ko'nglimizni xotirjam qildi. Xudo xohlasa, yana o'z uyimizga qaytishimizga, yana o'sha qadrdon qo'ni-qo'shnilar bilan eson-omon diydorlashishimizga ishondim.

Inson hayotida nimalar bo'lmaydi. Bu ofat ham biz uchun bir sinov. Lekin aslo tushkunlikka tushganimiz yo'q. Chunki xalqimiz, mamlakatimiz rahbari bizlarni hech qachon tashlab qo'ymaydi. Men shunday Prezidentimiz borligi bilan faxrlanaman.

Donagul TURDIMURODOVA,

pensioner.

2020-yil 7-may

MEHR-OQIBAT ELNI BIRLASHTIRADI

– Oilada to‘rt kishimiz, ikki nafar farzandim bor. Shukrki, barchamiz sog‘-omonmiz. Boshqa mahallada yashayotgan qaynonam, barcha yaqinlarimiz, qo‘ni-qo‘shnilarimiz bugun yonimizda. Eng katta baxtimiz ham shu.

Aytishim kerak, bizni mana shunday xavfdan himoya qilishda o‘z vaqtida ko‘rilgan choralar katta omil bo‘ldi. Vaqtida ogohlantirib, zudlik bilan xavfli hududdan olib chiqish ta‘minlandi. Bunday damlarda oqibatli insonlar, qo‘li ochiq hamyurtlarimiz elga qanot bo‘ladi. Hozir joylashgan joyimizda barcha sharoit-

ning yaratib berilganligi, nimaga ehtiyojimiz bo‘lsa, barchasi muhayyo qilinganligidan bir xursand bo‘lsak, xalqimizning, tanimgan-bilmagan, uzoq-yaqindagi yurtdoshlarimizning saxovatidan, ko‘ngil so‘rab, mehr ulashayotganligidan o‘n chandon suyun-yapmiz.

Ha, insonning boshiga mushkulot tushganda bir og‘iz daldaning o‘ziyoq kishiga qanchalar kuch-qudrat, ertangi kunga ishonch baxsh etishini dildan his qilyapmiz. Xalqparvar Prezidentimiz, mehr-oqibatli xalqimiz borligiga shukronalar ayt-yapmiz.

Chehros ABDULLAYEVA,

*Oqoltin tumanidagi
Saxovat mahallasida
yashovchi uy bekasi.*

2020-yil 5-may

TURMUSHIMIZ BUNDANDA OBOD BO‘LADI

Ofat ro‘y bergan dastlabki lahzalardayoq Prezidentimiz yonimizda bo‘ldi, aholi bilan yuzma-yuz suhbatda bu ham bir ko‘rgulik, sinov ekanligini aytib, bu balo tezda bartaraf etilishini, turmushimiz bundan-da obod va farovon bo‘lishi uchun barcha choralar ko‘rilishini aytib dalda berdi.

O‘zimiz hozir Guliston shahridagi akademik litsey yotoqxonasida bo‘lsak-da, biz istiqomat qilayotgan joylarda juda katta tiklash ishlari olib borilayotganini muntazam kuzatib turibmiz va bundan ko‘nglimiz xotirjam. Ha, yana bir muhim gap. Prezidentimiz farzandlaringiz yonida bo‘ling, deb bolajonlarga

bo‘lgan cheksiz mehrini yo‘lladi. Beadad shukrki, farzandlarimiz bilan birgamiz. Qarangki, ularning nafaqat o‘ynab-kulishlari, balki ta‘lim olishlari ham e‘tibordan chetda qolgani yo‘q. O‘quvchilarga shu yerning o‘zida mashg‘ulotlar o‘tilmoqda. Mahallamiz ayollari niyat qildikki, davlat bizga shunchalik mehr ko‘rsatayotgan ekan, biz ham o‘g‘il-qizlarimizni ana shu yuksak e‘tiborga javoban shu aziz va jonajon O‘zbekistonimiz ravnaqi, xalqimiz baxt-u saodati uchun xizmat qiluvchi, vatanga, Prezidentimizga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalash uchun bor kuch-g‘ayratimizni ayamaymiz.

Nafisa UMAROVA,
*Sardoba shaharchasida
yashovchi fuqaro.
2020-yil 7-may*

XALQ UCHUN JONINI QURBON QILGAN QAHRAMON

*yoki Sardobadagi fojia oqibatida
qurbon bo'lgan Husniddin Suyarov haqida...*

2020-yil 1-mayda Sirdaryo viloyatidagi Sardoba suv omborida yuzaga kelgan toshqin ko'pchilikning hayotini xavf ostida qoldirdi.

Shunda aholini evakuatsiya qilish uchun yetib kelgan Milliy gvardiya shaxsiy tarkibi tezkorlik bilan qutqaruv ishlariga sho'ng'ib ketdi. Evakuatsiyaga barcha maxsus texnikalar, avtomashinalar, suv bosgan hududlarda qolib ketgan fuqarolarni qutqarish ishlari-ga esa vertolyotlar jalb etildi.

Yuzaga kelgan favqulodda vaziyatda 70 mingdan ortiq aholi evakuatsiya qilindi, 56 nafar fuqaro turli tan jarohatlari bilan shifoxonaga yotqizildi.

Ming afsuski, evakuatsiya ishlariga jalb qilingan Milliy gvardiya harbiy xizmatchilaridan biri 3-darajali serjant Husniddin Suyarov tabiiy ofatga qarshi kurashish jarayonida qahramonlarcha



halok bo'ldi. U o'z jonini fido qilib, yuzlab, minglab insonlar hayotini saqlab qoldi.

– Milliy gvardiya yigitlari hech narsaga qaramasdan, uy- ma-uy yurib, qolib ketan fuqarolarni qutqarib yurdi. Tomlar ustidan, derazalardan chiqishlariga

yordam berib, aholini xavfsiz hududga o'tkazishga katta hissa qo'shdilar. Harbiy yigitlar pastda turib, yordamga uchib kelgan vertolyotlarga odamlarning chiqishiga ko'maklashdi. Ular orasida yozda endigina 32 yoshni qarshilashi kerak bo'lgan serjant Husniddin Suyarov ham bor edi.

Qurbon bo'lgan serjantning ota-onasi uchun bu o'ta og'ir judolik bo'lsa-da, ularning o'g'li xalqimiz nazdida haqiqiy qahramon sanaladi.

2007-yildan beri O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilib kelayotgan, Sharqiy harbiy okrug serjantlar tayyorlash maktabi va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Samarqand serjantlar tayyorlash maktabini a'lo baholarga tamomlagan Husniddin xizmat davomida o'zining namunali harbiy intizomi, zimmasiga yuklatilgan vazifa hamda majburiyatlarga vijdonan yondashishi bilan alohida ajralib turgan.

Husniddin Suyarovning safdoshlari, ustozlari va do'stlari bilan suhbatlashar ekanman, u haqda faqat ijobiy fikrlar eshitdim.

Anchadan beri Andijon viloyatida xizmat olib borayotgan Husniddin o'z ona yurti Sirdaryoga yaqindagina kelgan ekan. Go'yoki u bu fojiani oldindan sezgan-u, eldoshlariga qalqon bo'lishga shoshilgan.

Boyovut tumanining Bo'z qishlog'ida tug'ilib o'sgan Husniddin bor-yo'g'i 31 yoshda edi. Uning onayizori Zulfiya opa o'g'lining tobuti orqasidan katta yo'lgacha chopib faryod qilgan bo'lsa ham, pahlavondek o'g'lini yo'qotganiga hali yuragini ishontira olmadi. Bu g'amdan otasi Zokir akaning 54 yoshida qaddi bukildi.

Husniddinning ikki farzandi bilan beva qolgan turmush o'rtog'ining holini tasvirlaydigan so'zlar lug'atimizda yo'q... Atakchek qilib yurgan uch va bir yoshli qizaloqlar o'lim nima, otasiz o'sish nima ekanini hali to'liq anglamaydi.

Suv toshqini oqibatida jabr ko'rganlarni qutqarish paytida Husniddinning yo'qolib qolgani haqida oilasiga 2-may kuni xabar kelgan. Ular o'g'lonining topilishi, yana bag'rilariga qaytishidan umidvor bo'ldi. Afsus, o'lim xabari dunyoni ostin-ustun qildi.

Faqatgina bir taskin bor. Ya'ni xalq, yurt uchun qahramonlarcha qurbon bo'lgan Husniddinning nomi vatan atalgan ulug' kosho-na peshtoqida boshqa qahramonlar bilan birga yozilib turadi.

Husniddinning do'stlari uni qat'iyatli bo'lish bilan birga samimiy inson edi, deb ta'riflashdi. Yaqinlariga, do'stlariga mehr ulashib, bundan o'zi ham shod yuradigan kamtar bir yigitning haqiga bugun butun el duo

qilmoqda. Ruhing shod bo'lsin, jigarim!

Nazarimda, nigohlaridan samimiyat balqib turgan bu yigit menga tanishdek. Bu yigitning shonli umr yo'li haqida qo'limda juda ko'p axborot bordek. Ammo ularni qog'ozga tushirishda so'zlar o'zini olib qochdi, ba'zan kompyuter klaviatura-sidagi harflarni topolmay qoldim...

Darvoqe, Husniddin Suyarov vafotidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farniga asosan "Jasorat" medali bilan mukofotlandi. Shuningdek, Milliy gvardiya qo'mondonligining "Namunali xizmatlari uchun" I darajali ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Xalqimiz o'z jonini qurbon qilgan qahramonini hech qachon unutmaydi.

Muattar BURHONOVA

VATAN O‘Z QAHRAMONLARINI UNUTMAYDI



Xabaringiz bor, Sardobadagi suv omborida falokat ro‘y berganida odamlarni qutqarish ishlarida qatnashgan ikki nafar Milliy gvardiya xodimi cho‘kib ketgan edi.

Ulardan biri sirdaryolik qahramon Husniddin Suyarov haqida ma‘lumot bergan edik.

Ikkinchi qahramon – Hazrat Suyunov bo‘lib, u Nurotadek pur-

viqor bir yurtida tug‘ilib o‘sgan. O‘zi ham Nurota tog‘laridek viqorga, qat‘iyatga ega yigit...

Uning otasi Navoiy viloyati Nurota tumani Chashma qishlog‘ida istiqomat qilayotgan Karomat Shirinov bilan muloqot qilar ekanman, ota ko‘zlarida mudom porlab turgan umid uchunini ko‘rdim. O‘g‘lining bedarak ketganiga ikki oy bo‘layotgan bo‘lsa ham otaxon uning qaytib kelishidan hamon umidvor.

Axir alpelbat, bolalikdan sport bilan shug‘ullanib chiniqqan, kuragi yerga tegmagan o‘g‘lonining yengilishi mumkinligini u tasavvur ham qila olmaydi.

Uch o‘g‘ilning kenjasi bo‘lgan Hazratjon juda intiluvchan bola edi, armiyada xizmat qilib yanda chiniqqandi. Shuning uchun ham u Milliy gvardiya safiga hech bir qiyinchiliksiz qabul qilingan.

– Uch kilometr masofaga yurgurish bo'yicha imtihonda o'nlab yigitlar ichida mening o'g'lim marraga birinchi bo'lib yetib kelgan, – deydi faxr bilan otaxon. – O'g'lim jiddiy, kamgap bo'lsa ham juda mehribon edi. Har kuni kamida ikki marta telefon-da suhbatlashardik. Sardobadagi voqea sodir bo'lganidan bir kun oldin gaplashgan edik. Ishda, navbatchilikda ekan. Ertalab esa o'zi qo'ng'iroq qilavermagach, o'zim qildim. Javob bo'lmaidi. Kelinimdan so'rasam uyiga bormagan ekan. Shu orada suv omboridagi voqea haqida eshitib qoldim. Xavotir ola boshladim. Shu taxlit ikki kun o'tdi. Uchinchi kuni Milliy gvardiyaning viloyatimizdagi mas'ullari uyimga kelib, vaziyatni tushuntirishdi. Yuragim qorong'i tortdi, biroq umid qilib qarindoshlar bilan Sardobaga yo'l oldik. Borib o'zimiz ham qidirdik, xizmatdoshlari jonini ayamay safdoshini qidirayotganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Bu mavhumlik oson emas, biroq ishonchimni yo'qotmayman. Onasi rahmatli

bo'lganida u bu holni ko'tara olmasdi.

(Hazrat Suyunovning onasi Feruza opa bundan to'rt yil muqaddam 49 yoshida xastalikdan vafot etgan.)

1992-yil 1-iyun kuni tug'ilgan Hazrat Suyunov Sirdaryo viloyati bo'yicha Milliy gvardiya boshqarmasi 86528-harbiy qism maxsus vazifalarni bajaruvchi otradi 3-maxsus vazifalarni bajaruvchi guruhi mutaxassisi (mergani) bo'lib ishlayotgan edi.

Uning turmush o'rtog'i Shohistaxon ham endigina olti oylik bo'lgan o'g'li Shavkatjonni bag'riga bosib, sabr va umid bilan hamon kutmoqda.

Hazratjon birinchi farzandiga Prezidentimizga havas qilib Shavkat deb ism qo'ygan ekan.

Eh, umidlar... Qani endi, ular so'nmasa...

P.S. Hazrat Suyunov 2020-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan "Jasorat" medali bilan mukofotlandi.

Norgul ABDURAIMOVA,
jurnalist

YANGI UYLARNING KALITI TOPSHIRILMOQDA

Joriy yil 1-may kuni Sirdaryo viloyatining Sardoba suv omborida yuz bergan texnogen hodisa oqibatida Sardoba, Mirzaobod va Oqoltin tumanlarida 4 ming 710 ta xonadon zarar ko'rdi.

Qisqa muddatda toshqindan zarar ko'rgan 1 ming 850 ta uy qayta ta'mirlanib, zamonaviy ko'rinishda o'z egalariga topshirildi. Uyi yaroqsiz holga kelgan fuqarolar uchun jami 52,5 gektar yer maydoni tanlanib, ko'p qavatli 2 ming 640 xonadonli — jami 86 ta zamonaviy turar joy qurib bitkazildi. Bugun mazkur uylar kalitini qo'lga olgan odamlar ko'zida quvonch, ertangi kunga ishonch va g'ururni ko'rib, chekilgan zahmatlar besamar ketmaganiga amin bo'lasiz.

Sir emaski, suv toshqini yuz bergan kunlarda sirdaryoliklarni chuqur qayg'u bosdi. Nafaqat ular, butun xalqimiz qayg'urdi.

Endi nima bo'ladi, degan savol barcha o'zbekistonliklarni tashvishga solgani ham rost.

Har ishda bir hikmat bor, degan naql bor, dono xalqimizda. Bir necha yillardan buyon e'tibordan chetda bo'lib kelgan tumanlar bugun shahar tusiga kirdi. Bu yerda nafaqat zamonaviy uylar, balki qator ta'lim maskanlari, ishlab chiqarish korxonalari bunyod etildi. Toshqindan oldin infratuzilmasi ancha eskirgan, gaz, elektr ta'minoti xarob holga kelgan, ichimlik suv muammo bo'lgan qishloqlar, ularga tutash hududlar obod go'shaga aylandi. Bir so'z bilan aytganda, suv ombori toshqinidan zarar ko'rgan hududlar butkul yangi qiyofa kasb etdi.

Zarar ko'rgan hududlarni qisqa muddatda ta'mirlab, aholiga qulay sharoit yaratish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan



yuzlab texnika, pudratchi korxonalar, minglab ishchilar jalb qilindi. Sirdaryoliklar ham ular bilan yelkadosh bo'ldi. Maqsad aniq edi — talafot oqibatlarini bartaraf etish, jabrdiyda aholiga avvalgidan ham yaxshi sharoit yaratish.

Ko'ngilli quruvchilar 2 mingga yaqin uyni tubdan ta'mirladi. Mirzaobod tumanida namunaviy loyiha asosida qurilgan "Navbahor" mahallasida 100 ta, "Yangi O'zbekiston" mahallasida 6 ta, Sardoba tumani "Yurtdosh" mahallasida 48 ta va yana 6 ta xizmat uyi deyarli qayta qurildi.

— O'sha kunning o'zidayoq Prezidentimiz hodisa joyiga yetib keldi, toshqindan jabrlangan, ko'ngli cho'kib qolgan aholi dardiga sherik bo'ldi, — deydi Mirzaobod tumanidagi "Yangi O'zbekiston" mahallasi raisi Baxtiyor Xolqo'ziyev. — "Sabr qilib, og'irlikni yelkamizga olib, chidashimiz kerak. Bironta xonadon, bironta odam e'tiborsiz qolmaydi", — degan edi Prezidentimiz o'shanda. Yaratganga shukr, shunday bo'ldi. Davlatimiz rahbari talafot ko'rgan hududlarga bir necha bor tashrif buyurdi. Biz u kishining har doim yonimizda, biz bilan birga ekanini his qilib turdik. Oradan ko'p o'tmadi. Mahallamiz butkul yangi qiyofa kasb etdi. Uni "Yangi O'zbekiston" deya nomladik. Mahallamizda ko'p qavatli, jami 800 xonadondan iborat

40 ta uy qad rostladi. Ulardagi xonadonlarga suv toshqini oqibatida uylari zarar ko'rgan Mirzaobod va Oqoltin tumanlaridagi 11 ta mahalladan ayni paytgacha 520 oila ko'chib keldi. Jarayon davom etmoqda. Mazkur uylar haqiqiy o'zbekona qilib qurilgani bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga, ushbu ko'p qavatli uylarning har qavatida hamda yerto'lasida aholining zarur uskunalarini saqlashi uchun maxsus xonalar tashkil etilgan.

— Bu yil oilamiz uchun qo'shaloq bayram bo'ldi. Qizim oliy o'quv yurtiga o'qishga kirdi, — deydi "Yangi O'zbekiston" mahallasida istiqomat qiluvchi Safar Bekbo'tayev. — To'rt farzandim bor. Bugun ularning yuzidagi quvonchni ko'rib yayrayman. Prezidentimizning e'tibori va g'amxo'rligi natijasida o'tgan davr mobaynida 40 million so'm moddiy yordam berildi. Qisqa vaqt ichida 3 xonali zamonaviy uyli bo'ldik. Yangi maishiy texnika vositalari sovg'a qilishdi. O'zim iqtisodchiman. Turmush o'rtog'im dalada mehnat qilar. Og'ir mehnat, yana ro'zg'or, bola-chaqa tashvishi. Na gaz bor, na suv. Bu yerga kelganimizdan keyin uy-joy kommunal servis xizmatiga ishga kirdi. Belgilangan vaqtda ishga borib kelib, bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanyapti. Bir so'z bilan aytganda, "Yangi O'zbekiston" da

hayotimizni yangidan boshladik.

Mahallada barcha zarur sharoitlar yaratilgan. Mahalla guzarida novvoyxona, sartaroshxona, kutubxona faoliyat ko'rsatmoqda. Yangi bog'cha bolajonlarni qabul qilishga shay. Shuningdek, bu yerda 6 ta bolalar maydonchasi va yo'l qoidasi o'quv maydonchasi kabi madaniy hordiq obyektlari ham aholi xizmatida.

Muhim masalalardan yana biri — aholi bandligini ta'minlash. Xotin-qizlarni ishli qilish maqsadida tikuvchilik sexi ochildi. Yaqin kunlarda bu yerda Sirdaryoning dunyoga mashhur qovun mahsulotlarini eksport qilish uchun qovunni qayta ishlash sexi qurilib, foydalanishga topshiriladi.

Sardoba tumani "Do'stlik" mahallasi hududida tumanning "Qo'rg'ontepa", "Yurtdosh" va "Do'stlik" mahallalarida yashagan, uylari yaroqsiz holga kelgan xonadon egalari uchun 1 ming 480 xonadonli 37 ta ko'p qavatli uy-joy qurildi. Bugun mazkur hududlardan aholi ko'p qavatli uylarga ko'chib kirmoqda. Bundan tashqari, yangi uy-joylar massivida maktabgacha ta'lim tashkiloti va 660 o'rinli umumta'lim maktabi binosi qurilishi yakuniga yetkazilmoqda.

— Sardobaliklar yangi hayotni boshladi. Bugun tuman qiyofasi ham tubdan o'zgargan. Qurilish, obodonchilik ishlari avji-

da, — deydi "Do'stlik" mahallasi raisi Alisher Kinbojev. — Shu kabi farovonlik ruhiga hamohang aholining ham kayfiyati ko'tarinki. Darhaqiqat, talafot ko'rgan hududlarning toshqindan oldingi ko'rinishini, infratuzilmasini bilgan, ko'rgan kishi hozir qilina-yotgan bunyodkorlik ishlarini, olib borilayotgan islohotlarni ko'rib, xalqimizning hamjihatligiga, bag'rikengligiga tan beradi. Bu manzara-yu o'zgarishlarni his etgan har bir insonda ertangi kunga bo'lgan ishonch ortib boraveradi.

"Do'stlik" mahallasidagi "Sardoba Oqsaroy tekstil" fabrikasi roppa-rosa 120 kun deganda qurib bitkazildi. Bu yerda 550 kishining ish bilan ta'minlanishi ko'zda tutilgan. Hozir 220 nafar xotin-qiz qisqa muddatli o'quv kursini bitirib, mehnat faoliyatini boshladi.

— Korxonamizda tayyor mato va kiyimlar ishlab chiqaramiz, mahsulotlarimiz, asosan, eksportga mo'ljallangan, — deydi "Sardoba Oqsaroy tekstil" korxonasi ishlab chiqarish bo'limi boshlig'i Asqar Haydarov. — Ayni paytda korxonamizda kattalar uchun qishki kiyim-kechaklar ishlab chiqarilayapti. Bu yerda, asosan, yangi uylarga ko'chib o'tgan xotin-qizlar mehnat qilmoqda. Ularning yuz-ko'zida kelajakka ishonch uchquni porlab turganini ko'rib, bizning ham

g'ayratimiz jo'shadi. Shu aziz opa-singillarimiz hayotini yanada yaxshilash yo'lida qo'limizdan kelgan barcha ishlarni amalga oshiramiz. Prezidentimiz korxonamizga tashrifi chog'ida bizga marrani kengroq olish bo'yicha aniq ko'rsatmalar bergan edi. Kelgusida mahsulotlarimiz turi va hajmini oshirish, eksport geografiyasini kengaytirishni maqsad qilganmiz. Demak, ish o'rinlarimiz soni ham ko'payib boradi. Buning uchun imkoniyatlarimiz yetarli.

— To'rt farzandim bor. Biz ham toshqindan zarar ko'rdik. Boshpanasiz qoldik, — deydi tikuvchi Umida Qarshiboyeva. — Mana, bugun yangi ko'p qavatli uydan 3 xonali xonadon berildi. Davlatimizga rahmat, bugun barchasi badastir. Uyimiz issiq. Bolalarimiz oldimizdagi ta'lim maskaniga boradi. O'zim tikuvchilik sexida ishlayapman. Tushlikda issiq ovqat beriladi. Zamonaviy dastgohlarda ishlash uchun korxonada o'quv markazida mutaxassislardan ish o'rgandik. Oyliklarimiz ishimizga qarab oshirib borilmoqda. Odamning uyida tinchi bo'lsa, ishida ham unum bo'lar ekan. Ish uncha og'ir emas. Bolalarimga ham vaqt ajratyapman.

Mirzaobod tumanining "Nurli kelajak" mahallasida ham 360 xonadondan iborat to'qqizta ko'p qavatli uya bugun 240 ta oila ko'chib kirdi.

— Talafotdan "Navbahor" mahallasi ham zarar ko'rgan edi. O'tgan davrda bu yerda juda katta qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Vodiy viloyatlari ko'magi bilan bunyod etilgan yangi mahallamizni "Nurli kelajak" deya atadik, — deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi O'ktam Kenjayev. — Bu yerda uch yarim ming nafardan ortiq aholi, 668 xonadon mavjud edi. Ayni paytgacha 11 ta ikki qavatli uy va 396 ta hovli uylar to'liq ta'mirlanib, egalariga topshirildi. Shuningdek, ikkita umumta'lim maktabi, bitta maktabgacha ta'lim muassasasi to'liq ta'mirlandi. Mahallaning yangi binosi qad rostladi. Yangi masjid binosi qurilishi esa davom etmoqda.

Quvonarlisi, bu yerda yangi, zamonaviy binolar qad rostlashi bilan birga, yangi ish o'rinlari yaratishga ham alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, "Nurli kelajak" mahallasi hududida "Bek klaster" MCHJ tomonidan 20 gektar maydonda issiqxonalar qurildi. Har biri 25 sotixdan iborat issiqxonalarda limon va qulupnay yetishtirilmoqda. Ularda yangi uylarga ko'chib o'tganlardan 200 nafardan ortig'ining bandligi ta'minlandi.

— Bu yerda sitrus, subtropik va tropik o'simliklar ilmiy-amaliy markazi faoliyati ham yo'lga qo'yilgan, — deydi "Bek klaster" MCHJ mas'ul xodimi To'lqin Norqulov. — Mazkur markazning



asosiy vazifasi issiqxonalar-da ishlash xohishini bildirgan fuqarolarni sohaga tayyorlashdan iborat. Ayni paytgacha mutaxassislar 100 dan ortiq ishchiga soha sir-asrorlarini o'rgatdi. Yana bir muhim jihat, "Aloqabank" krediti hisobiga amalga oshirilgan ushbu loyiha kredit qarzlari uzilgach, shu yerda ishlayotgan fuqarolarning o'zlariga qoladi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, yangi qurilgan ko'p qavatli uy-joylarning o'z egalariga topshirilishi, hech kim e'tibordan chetda qolmasligi, odamlarni rozi qilish, adolat, shaffoflikni ta'minlash juda muhim masala. Shuning uchun ham mazkur uy-joylarni adolat tamoyillari asosida tarqa-

tish Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, Adliya vazirligi va jamoatchilik vakillaridan iborat ishchi guruh nazoratida bo'lib turibdi.

— Uy-joylar taqsimotida adolat, shaffoflik juda muhim. Shuning uchun ham uylar qur'a tashlash yo'li bilan taqsimlan-yapti. Bundan tashqari, ko'p qavatli uylarni taqsimlashda barcha jihatlar e'tiborga olingan. Masalan, nogironligi bor shaxslar va qariyalar birinchi qavatga joylashtirilmogda, — dedi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Sherzod Qulmatov. — Bugungi kunga qadar ishchi guruh tomonidan 2 ming 932 oilaning uy-joy olish masalasida qilgan murojaati qabul qilingan bo'lib, ular

qariyb bir oy davomida o'rganib chiqildi. Mahalla faollari, qo'ni-qo'shnilarning fikr-mulohazalari inobatga olingan holda qur'a tashlash yo'li bilan Mirzabod, Sardoba va Oqoltin tumanlarida jami 1 ming 842 xonadon topshirildi. Bugungi kungacha 1 ming 753 ta oila yangi uyga ko'chib kirdi. Bundan tashqari, ayni paytda 53 ta muammoli hujjatimiz bor. Ya'ni bu hujjatlarda kamchiliklar bor. Shuning

uchun ham har biri jiddiy o'rganilib, keyin xalq deputatlari tuman kengashi sessiyasiga kiritilmoqda.

Xulosa o'rnida aytish joizki, toshqindan zarar ko'rgan aholiga barcha sharoitlar yaratish borasidagi ishlar bir zum ham to'xtagani yo'q. Mutasaddilarning ishontirishicha, hech kim e'tibordan chetda qolmaydi. Buning uchun mablag' ham, imkoniyatlar ham yetarli.

Lutfulla SUVONOV,
jurnalist.
2020-yil 3-dekabr



MAZKUR TURAR JOY
MAJMUASIGA
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SHAVKAT MIROMONOVICH
MIRZIYOYEV TOMONIDAN
2020-YIL 15-MAY KUNI
TAMAL TOSHI QO'YILIB,
2020-YIL 13-OKTYABR KUNI
FOYDALANISHGA TOPSHIRILGAN.







YANGILANAYOTGAN SIRDARYO:

*odamlarni rozi qilish yo'lidagi
amaliy ishlar*



Prezidentimiz o'tgan yili Sirdaryo viloyatiga tashrifi chog'ida Xovos tumanida ham bo'lib, zamonaviy shahar qurilishi bosh rejasi bilan tanishgan, uni yanada takomillashtirish borasida zarur ko'rsatmalar bergan edi. Ko'p

o'tmay 42 gektar hududda "Xovos siti" qurilishi jadal boshlab yuborildi.

— Keyingi 50-yilda shaharchada birorta ham ko'p qavatli uy qurilmagan edi. Mana, yaqinda 305 ta eski xonadon buzilib, aholi

yangi uylarga ko'chirildi, — deydi Xovos tumani hokimi o'rinbosari Sanjar Po'latov. — Aslida bu uylar mamlakatimizdagi eng arzon ko'p qavatli turar joy majmuasi hisoblanadi. Ularning 3 xonaligi 160 million so'm, 2 xonaligi 140 million so'm bo'lib, 20 yil muddatga kreditga olish ham mumkin.

Yangi shaharchada Mehnat va bandlikka ko'maklashish markazi, Xalq banki, kadastr xizmati, tuman elektr tarmoqlari korxonasi, tuman hokimligi binolari, aholi dam olish maskani, xotira maydoni majmuasi kabi qator obyektlar qurilib, foydalanishga topshirildi. 2020–2021 o'quv yili arafasida matematika fanini chuqur o'rgatishga ixtisoslashgan 350 o'rinli zamonaviy maktabning foydalanishga topshirilgani xovosliklarning dilidagi ish bo'ldi.

— Ilgari Eski Xovosdagi "Do'stlik" mahallasida yashardik. Uymiz buzilgach, "Xovos siti"dan 3 xonali xonadon berishdi. Sharoitlar yaxshi, issiq va sovuq suv bor, gaz, elektr ta'minotida uzilish yo'q. Rafiqam shaharchamizdagi 4-MTTda ishlayapti, o'zim Yoshlar ishlari agentligi Xovos tumani bo'limi xodimiman, — deydi Sulaymonbek Po'latov minnatdorlik ruhida.

Ko'p qavatli uylarga ko'chib kelgan aholi yangi ish boshlagan qandolatchilik sexi, tikuv fabrikasiga ishga joylashgan. Jum-

ladan, "Textile fashion" korxonasi 200 nafar xotin-qizni ish bilan ta'minladi. Bu yerda yana 100 ta ish o'rni yaratish rejalashtirilgan. Asosan, bolalar kiyimlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonalar mahsulotlari eksportga ham chiqariladi.

"Xovos siti"da kam ta'minlangan oilalar uchun arzon uy-joylar loyihasi asosida qurilgan 2 sotixli 50 ta uy ham o'z egalariga topshirilgan. Bu uylar viloyatning har bir tumanidan sharoiti o'ta og'ir va nogironligi bo'lgan oilalardan bittasiga berilgan.

— Uch farzandim bilan 5 yil dala shiyponida, 10 yil ijara uylarda yashadik, — deydi Safargul Ismoilova. — O'tgan yili Prezidentimiz Xovosga kelganida sharoitlarimizni o'rganib, uy, ish bilan ta'minlash haqida topshiriq bergan edi. Xudoga shukr, ko'p o'tmay hech qanday to'lovsiz 3 xonali uy ajratildi. Tikuv mashinasi sovg'a qilishdi. Hozir kasanachilik bilan shug'ullanyapman. Bu yil shartnoma asosida paxta terib, salkam olti million so'm daromad qildik. Shu pulga pomidor va bodring yetishtirish uchun hovlimizda issiqxonona qurdik. Issiqxonamizdan foydalanishni boshlasak, turmushimiz yanada yaxshilanadi.

— Yangi ko'chib kelgan oilalarga kirib sharoitlari, qiziqishlarini o'rganyapmiz. Kuni kecha 3 ta oilaga tikuv mashinasi berdik.

Ular uyda nogiron farzandi, turmush o'rtog'i borligi sababli biror korxonaga borib ishlay olmaydi. Shu bois, ular uyda kiyim-kechak tikish ishlari bilan shug'ullanib, oila xarajatlarini ta'minlashi uchun barcha sharoitlar yaratib berildi, — deydi "Bunyodkor" mahallasi raisi Bahodir Tolipov.

Shu mahallada ko'chma asfalt-beton zavodi qurilishi ham yakunlandi. Zamonaviy zavod 1 soatda 120 tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega, 12 kishi ish bilan ta'minlangan.

Ma'lum bo'lishicha, bugungi kunda Eski Xovos shaharchasida 78 ta ikki qavatli uy ta'mirlanib, atrofida obodonlashtirish ishlari bajarilgan. Tuman markazi ko'chalari, yangi qurilayotgan ko'p qavatli uylarning kirish va ichki yo'laklariga asfalt yotqizilgan. Bolalar maydonchasi barpo etishga, ichimlik suv ta'minotini

yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu kabi bunyodkorlik ishlari ni Mirzaobod tumanidagi "Yangi O'zbekiston" mahallasida ham ko'rishimiz mumkin. O'zgarishlar ko'zni quvnatadi.

"Yangi O'zbekiston" mahallasidagi 12 gektar maydonda besh qavatli, 800 xonadondan iborat 40 ta uy qurildi. Suv toshqinidan zarar ko'rgan xonadonlar, hovlilar saqlab qolindi. Har bir xonadonga 40 million so'm tovon puli, uy jihozlari uchun 10 million so'mdan mablag' ajratildi.

Mahallada yangi korxonalar ham tashkil etilmoqda, aholi ish bilan ta'minlanmoqda. Hozircha 184 kilometr yo'l, 19 ta ko'pri, 66 kilometr uzunlikda gaz quvurlari tortildi. 89 kilometrlik ichimlik suv, 7,9 kilometrlik oqova suv tarmog'i, 11 ta suv taqsimlash inshooti bunyod etildi.

Gulchiroy ISOQOVA
2020-yil 10-dekabr

“YANGI O‘ZBEKISTON” MAHALLASI UYLARI SHAHARNING ZAMONAVIY UYLARIDAN ASLO KAM EMAS

Sirdaryo viloyatining Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlarida “Sardoba” toshqinidan zarar ko‘rgan aholining hayotini yaxshilash borasida ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur hududlarda yangi uy-joylar, ijtimoiy soha obyektlari, ishlab chiqarish quvvatlari barpo etilib, yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda.

Kuni kecha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Sirdaryo viloyatiga tashrifi doirasida Mirzaobod tumanining “Haqiqat” mahalla fuqarolar yig‘inida qurilgan ko‘p qavatli uylarni ham borib ko‘rdi.

Haqiqat mahallasida 800 xonadondan iborat 40 ta 5 qavatli uy qurildi. Buning uchun mahalla hududidan qariyb 12 gektar yer maydoni ajratilib, ko‘p qavatli uylar “White city construction”

mas’uliyati cheklangan jamiyati quruvchilari tomonidan qisqa fursatlarda barpo etildi.

– Davlatimiz rahbarining topshirig‘iga muvofiq, vazirligimiz tomonidan tegishli tashkilotlar bilan birgalikda eng zamonaviy uylar loyihasi tayyorlandi, – deydi qurilish vazirining birinchi o‘rinbosari Sherzod Hidoyatov. – Bu borada eng sifatli va zamonaviy uy-joy quruvchi tashkilotlar bilan ham hamkorlik qilindi. Quruvchi tashkilotlar tomonidan Sardoba, Mirzaobod va Oqoltin tumanlarida ko‘p qavatli turar joylar qurish uchun bir yarim oy mobaynida yerni tayyorlash ishlari olib borildi. Yangi texnologiyalar asosida yer maydoni qattiqlashtirilib, 5 qavatli uylar qurildi. Binolarning tashqi qismi bazalt qoplamasi bilan qoplagan. Bu – uying qishda issiq, yozda salqin bo‘lishini ta‘minlaydi. Uylarni qisqa vaqtda



qurish uchun Turkiyaning tunnel qolip tizimida ish olib borildi. Binolarning yerto'lasida har bir oila uchun 15 kvadrat metrdan alohida xona tashkil etilgan bo'lib, undan xonadon egalari omborxonasi sifatida foydalanishi mumkin. Hududda kuzatuv kameralari o'rnatilgan.

Yurtboshimiz mazkur uy-joylarni ko'zdan kechirib, bu kabi uylarni boshqa viloyatlar qishloqlarida ham qurish va narxini arzonlashtirish zarurligini aytdilar. Buning natijasida ekin maydonlari egallanmaydi, qishloq aholisi ham yangi va zamonaviy ko'p qavatli uylarda istiqomat qiladi.

Binolarda elektr energiya, tabiiy gaz, ichimlik va oqova suv ta'minoti mavjud. Hududda mahalla guzari, "Yangi avlod" mak-

tabgacha ta'lim tashkiloti, 6 ta bolalar maydonchasi, yo'l qoidasi o'quv maydonchasi, novvoyxona, sartaroshxona va kutubxona bor.

– Kutubxonamizda o'zbek va jahon adabiyotining nodir asarlaridan iborat 1 ming 597 ta kitob bor, – deydi "Yangi O'zbekiston" MFY kutubxonachisi Hilola Bahodirova. – Ya'ni mahallamizdagi har ikki kishiga bitta kitob to'g'ri keladi. Badiiy kitoblar voqealari asosida teatrlashtirilgan sahna asarlari tayyorlab, kitobxonlar sonini oshirmoqchimiz. Kitobxonlar mutolaasi uchun bu yerda barcha sharoit bor. Kutubxonamiz haftasiga olti kun ishlaydi. Bundan tashqari, aholiga elektron kitoblar bilan ham xizmat ko'rsatamiz. Shuningdek, kitoblarni kitobxon uyiga ham beramiz.

Rahmatilla Hojimurodov ham talafotdan jabr ko'rganlardan. Bugungi kunda u "Yangi O'zbekiston" MFY raisining o'rinbosari sifatida faoliyat yuritmoqda.

– Toshqindan oldin katta yo'l bo'yida 350 million so'm mablag' evaziga turistlar uchun hammom qurgan edik, – deydi R. Hojimurodov. – Endi ishga tushiramiz deganda bu falokat bo'lib qoldi. Uymizni suv bosganidan so'ng sakiz jon o'sha yerda yashadik. Shu hududda qolgan aholi va hududni obodonlashtirayotgan hasharchilarga ovqat pishirib berdik. Bu orada uyimiz ta'mirlab berildi. 40 million so'mlik moddiy yordam, maishiy texnikalar berildi. Prezidentimiz o'sha paytlar aholi bilan uchrashib, hech kim e'tibor-

dan chetda qolmasligini, tez fursatlarda 5 qavatli zamonaviy va shinam uylar qurilishini va aholi u yerda bepul joylashtirilishini aytgan edilar. Mana, o'sha aytilgan uylar qurib bitkazildi. Tez orada o'z egalariga topshiriladi. Bu hudud bir vaqtlar yantoqzor, tashlandiq yer edi. Aynan shu joyda zamonaviy shaharcha quriladi, deb hech kim o'ylamagan edi. Yangi uylarga, birinchi navbatda, talafotdan jabr ko'rgan nogironlar, keksalar joylashtiriladi.

Hudud aholisining kayfiyati yaxshi, ular 1-may toshqinlari, undan keyingi uyqusiz tunlarni unutilib yuborishni istaydi. Ayni paytda ko'zida quvonch, qalbida shijoat, kelajakka ishonch bilan yashamoqda.

O'ZA.
2020-yil 15-dekabr

“UYIMIZ OLDINGIDAN HAM FAYZLI BO‘LDI...”



Joriy yilning 1-may kuni “Sardoba” suv omborida yuzaga kelgan toshqin oqibatida Sirdaryo viloyatining Sardoba, Mirzaobod va Oqoltin tumanlaridan 89 ming 450 nafar aholi xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilingan edi.

Bugungi kunga qadar ularning 80 ming 64 nafari, ya’ni 89,5 foizi uylariga qaytarildi. Qolgan 8 ming 199 nafar aholi evakuatsiya davrida ko‘chirilgan hududlarda vaqtincha yashamoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, ularga hududda qurilayotgan ko‘p qavatli



turar-joylardan xonadonlar ajratilgan.

Ishchi guruhlar tomonidan talafot ko'rgan hududlarda olib borilgan o'rganishda 4 ming 710 ta xonadonga zarar yetgani, jumladan, 2 ming 211 tasi yaroqsiz, 2 ming 499 tasi esa ta'mirlab holatda ekanligi aniqlangandi.

– Prezidentimiz tashabbusi bilan zarar ko'rgan hududlarni qisqa muddatda ta'mirlab, aholiga qulay sharoit yaratish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar tomonidan ta'mirlash ishlariga 170 ga yaqin texnika, 670 dan ortiq pudratchi korxonalar va 2 ming 500 nafarga yaqin quruvchi-mutaxassis jalb qilindi, – dedi Sirdaryo viloyati hokimligi axborot xizmati rahbari Zafar Mirrahimov.

– Sardoba tumanidagi “Yurtdosh” mahallasida namunaviy loyiha asosida qurilgan 48 ta uy, 6 ta xizmat uyi kapital ta'mirlandi. “Do'stlik” mahallasida 275 o'rinli maktabgacha ta'lim tashkiloti va 660 o'rinli umumta'lim maktabi binosi qurilmoqda. Shuningdek, har biri 500 o'ringa mo'ljallangan 3 ta masjid barpo etilmoqda. Zarar ko'rgan 7 ta qabristonda ta'mirlash-tiklash ishlari amalga oshirildi. Davlat xizmatlari agentligi tomonidan fuqarolarning yo'qolgan va zarar ko'rgan jami 8 ming 239 ta hujjati qayta tiklab berildi.

Ayni paytda Sardoba tumanida olib borilayotgan qurilish-obodonlashtirish ishlari bilan tanishdik. “Do'stlik” MFYning obod, ravon ko'chalari bizni 81 yoshli Javlon bobo Jo'rayev hovlisi tomon boshladi. Javlon bobo bizni



ta'mirdan chiqqan uyiga taklif qildi.

– Boshimizga tushgan bu sinov boshqalarni ham e'tiborsiz qoldirmadi, – deya xotirlaydi Javlon bobo. – Prezidentimiz yordami bilan qisqa vaqt ichida uyimiz qayta ta'mirlandi. 40 million so'mlik moddiy yordam, shuningdek, televizor, muzlatkich, kir yuvish mashinasi, elektr choynak va dazmol kabi maishiy texnikalar berildi. Mahallamizda yigirma yildan buyon tabiiy gaz yo'q edi. Uni ham ulab berishdi. Ishonavering, uyimiz oldingidan ham fayzli bo'ldi. Shundoqqina yonimizda, qishloqning qoq o'rtasida kattagina shaharcha qurildi.

“Do'stlik” mahallasida qisqa vaqt ichida 37 ta 5 qavatli uy-joy qad rostladi. 34 gektar maydon-da barpo etilgan ushbu shahar-

chadagi ko'p qavatli uylarda jami 1 ming 480 xonadon mavjud. Loyiha qiymati 479,5 milliard so'm bo'lib, to'liq davlat budjeti hisobidan moliyalashtirilgan.

– Bino asosan quyma temirbeton texnologiyasi asosida qurilgan bo'lib, bu zilzilaga o'ta bardoshli hisoblanadi, – deydi qurilish obyektining mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi boshlig'i Bobosher Baratov. – Energiya tejamkor panellardan foydalanilgan. Panellarning afzalligi shundaki, xonadonlar qishda issiq, yozda salqin bo'ladi. Binoning deyarli barcha mahsulotlari mahalliy hisoblanadi. Binoda elektr energiya, tabiiy gaz, ichimlik va oqova suv ta'minoti mavjud. Hudduda 1 ta mahalla guzari, 7 ta bolalar maydonchasi bor.

Mahallada istiqomat qilayotgan xotin-qizlar uzoq manzil-



lardan ish izlashiga hojat yo‘q. Shu yerda trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Sardoba Oqsaroy tekstil” MCHJ faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

– Hozirgi kunda korxonalarimizda 3 ming nafar aholini ish bilan ta‘minlaganmiz, – dedi “Oqsaroy group” MCHJ ta‘sischisi Davron Vahobov. – Qashqadaryo viloyatida paxta yetishtiramiz va o‘sha yerda paxta xomashyosi qayta ishlanib, ip-kalava holatiga keltiriladi. Toshkent shahrida ularga rang berilib, korxonaning boshqa filiallarida mato holatiga keltiriladi. “Sardoba Oqsaroy tekstil” MCHJda 650 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Ayni paytda ishchilarni qabul qilyapmiz.

Korxonada mahsulotlari Rossiya va Ukrainaga eksport qilinadi. Bino qishda issiq, yozda salqin bo‘lishi uchun barcha sharoit yaratilgan. 2020-yil yakuniga qadar to‘liq quvvatda ishlashi kutilayotgan korxonada tomonidan yiliga 1,4 million dona tayyor mahsulot ishlab chiqariladi.

Talafot ko‘rgan hududlarning toshqindan oldingi holatini, infratuzilmasini bilgan, ko‘rgan kishi hozirda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarini ko‘rib, xalqimizning hamjihatligi, bag‘rikengligiga tan berishi, shubhasiz. Bu o‘zgarishlarni his qilgan har bir insonda ertangi kunga bo‘lgan ishonch ortib boraveradi.

O‘ZA.
2020-yil 10-dekabr



“YANGI TOSHKENT” HAYOTI YANADA FAROVON BO‘LIB IZGA TUSHMOQDA



“Sardoba” suv ombori to‘g‘o-ni o‘pirilishi Oqoltin tumani-dagi “Yangi Toshkent” mahalla fuqarolar yig‘iniga ham katta zarar yetkazdi.

Mahalla aholisi ma‘lum vaqt o‘z uylaridan olis manzillarda yashashga majbur bo‘ldi.

Toshkent shahar hokimligi bu-yurtmasiga asosan Oqoltin tu-manidagi “Yangi Toshkent” ma-hallasida 130 ta beton-panelli uy-joyda ta‘mirlash-tiklash ish-lari bajarilib, 200 dan ziyod oila-ning yashash sharoiti yaxshilan-di. Mahallaning har bir ko‘chasiga



Toshkent shahrining tumanlari nomi berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 13 oktabr kuni tumanidagi “Yangi Toshkent” mahallasiga kelib, aholi bilan suhbatlashdi.

Bu yerda mahalla guzari, kutubxona, bolalar maydonchasi, sport kompleksi barpo etilgan. Ichki yo‘llar qurilib, elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi ta‘minoti tiklangan.

Avval bu hududda mahalla fuqarolar yig‘ini binosi bo‘lmagan. Mahalla xodimlari hududdagi 14-maktabning bir xonasida joylashgan edi. Bugungi kunda bir qavatli bino qurilib, foydalanishga topshirildi. Binoda davlatimiz rahbari ilgari surgan 5 ta

muhim tashabbus doirasida yoshlar uchun musiqa, kompyuter va boshqa xonalar ajratilgan. Shuningdek, hududdagi 130 o‘rinli maktabgacha ta‘lim tashkiloti, 150 o‘rinli maktab binosi ham qayta ta‘mirlandi.

– Texnogen falokat tufayli mahallamizdagi barcha uylarga talafot yetdi, – deydi “Yangi Toshkent” MFY raisi Abdurauf Shodmonov. – Ilgari barcha xonadonlar atrofiga qo‘shimcha binolar qurilgan va hovli devor bilan o‘ralgan edi. Hammasini toshqin yuvib ketdi.

Toshkent shahar hokimligi tomonidan olib borilgan keng ko‘lamli ishlar sabab mahallamiz yangi qiyofaga kirdi. Mahalla haqiqatan ham yangi Toshkent bo‘ldi. O‘ydim-chuqur ko‘chalar

tekis va ravon bo'ldi. Aholining o'ttiz foizi ko'rsatilgan moddiy yordamdan foydalanib avtomobil oldi, tom ma'noda ularning turmush sharoiti yaxshilandi. Bugungi kunda barcha aholi o'z uyiga ko'chib kelgan. Toshqin hodisasi ro'y bergan o'sha kun unutildi, to'ylar boshlandi.

Bu hududda ilgari kutubxona yo'q edi. Davlatimiz rahbari ilgari surgan 5 ta muhim tashabbus ijrosi doirasida zamonaviy kutubxona qurildi. Mazkur ma'rifat maskani o'tgan oy faoliyatini boshladi.

– Kutubxonamizda 1000 dona o'zbek va jahon adabiyoti dardonalari bor, – deydi “Yangi Toshkent” MFY kutubxonachisi Shoira Oripova. – 4 ta kompyuter internetga ulangan, kitobxonlar Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonaning elektron kitoblaridan to'g'ridan-to'g'ri foydalanishi mumkin. 15 kitobxon bir vaqtda kutubxonaga kelib mutolaa qilishi mumkin. Ularning talabidan kelib chiqib, kitoblar uyda o'qish uchun ham beriladi. Maqsadimiz, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilishdan iborat.

Mahalla aholisini ish bilan ta'minlash maqsadida Toshkent shahar hokimligi tashabbusi bilan 100 ta yangi ish o'rniga ega “Nafis liboslar” tikuvchilik korxonasi qurildi. Ilgari mahalla xotin-qizlarining ko'pchiligi ish-

siz edi. Endilikda ular mahalla hududida bunyod etilgan mazkur tikuv-trikotaj korxonasida ish boshlaydi.

– Tadbirkor sifatida gazoblok ishlab chiqarish bilan shug'ullanaman. Bundan tashqari, deraza va eshik tayyorlovchi korxonam bor. Birinchi marta tekstil sohasiga qo'l urib, tikuv-trikotaj korxonasini ochdik. Loyiha 500 million so'm o'z mablag'imiz va bankning 2 milliard so'm krediti asosida amalga oshirildi. Guliston shahridagi hamkorlarimiz xomashyo yetkazib beradi, biz tayyor mahsulot jo'natamiz.

Binoda qurilish ishlari yakunlangan. Elektr, tabiiy gaz va suv tarmoqlari tortilgan. Bugungi kunda Xitoydan olib kelingan tikuv dastgohlarini o'rnatyapmiz. Korxonamiz joriy yilning dekabr oyida ishga tushadi, 2021-yildan to'liq quvvatda ishlaydi va yiliga 500 ming dona tekstil mahsulotlari ishlab chiqariladi. Davlatimiz rahbarining topshirig'i bilan ishchilarning ko'pchiligi shu mahalla xotin-qizlaridan olinadi.

Keyingi yildan boshlab ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 60 foizi Rossiya, Tojikiston, Qozog'iston davlatlariga eksport qilinadi. Sirdaryo viloyatining yana ikki qishlog'ida shu kabi korxonalar qurib, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashni rejalashtiryapmiz, – deydi korxonalar rahbari Bahrom Toshtemirov.

Aholining ta'kidlashicha, mahallada tabiiy gaz quvurlari bo'lgan, lekin gaz berilmagan. Ayni paytda aholiga tabiiy gaz, shuningdek, elektr energiyasi va ichimlik suvi uzluksiz yetkazib berilmoqda.

Mahalla hududida 2004-yilda qurilgan oilaviy poliklinika ham qayta rekonstruksiya qilindi.

Mazkur loyiha qiymati 623 million so'mni tashkil etib, to'liq davlat budjetidan moliyalashtirilgan.

Poliklinikada yangi tibbiyot uskunalari, EKG, UZI o'rnatildi. Bolalar nevropatologi, UZI shifokori ish boshladi, dorixona tashkil etildi. Pirovardida, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati ham yaxshilandi.

**Xurshid QODIROV,
O'ZA.
2020-yil 15-dekabr**





YANGI TOSHIK



DUSHKENT MAHALLASI



















FIDOYILAR MEHNATI MUNOSIB QADR TOPDI

2020-yilda dunyo bo'ylab tarqalgan koronavirus pandemiyasi hamda Buxoro va Sirdaryoda yuz bergan talafotlar xalqimiz qalbida jasorat, mardlik, tantilik, yurtparvarlik, elparvarlik xislatlari qanchalik yuksak ekanini yana bir bor namoyon etdi.

Sinovli kunlarda xalqimiz birlashdi, yakdil va hamjihat bo'ldi, Yurtboshimiz tomonidan e'lon qilingan tashabbusga labbay deb javob berib, chinakam umumxalq harakatini amalda namoyon etdi. O'z navbatida, ona Vatani uchun fidoyilik ko'rsatishni o'zining insoniy burchi deb bilgan yurtdoshlarimizning mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib qadrlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-iyuldagi PF-6032-sonli hamda 2020-yil 27-avgustdagi PF-6052-sonli farmonlariga asosan, mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, koronavirus pandemiyasi keng tarqalishining oldini olish, aholi salomatligini muhofaza qilish ishlariga munosib hissa qo'shgan, o'z hayoti va sog'lig'ini xavf ostiga qo'yib, muqaddas burchini vijdonan ado etishda jasorat va fidoyilik namunalarini ko'rsatgan vatandoshlarimiz faxriy unvon, orden va medallar bilan mukofotlandi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

Koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashishda fidoyilik ko‘rsatgan yurtdoshlarimizdan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida

Koronavirus pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan murakkab va sinovli kunlarda hayoti va sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘yib, mavjud xatarlarga qarshi kurashish, infeksiya keng tarqalishining oldini olish, yurtimizda sanitar-epidemiologik osoyishtalikni ta‘minlash ishlariga qo‘shgan munosib hissasi, o‘zining matonati, bilim va salohiyati, professional mahoratini namoyon etib, aholi salomatligini muhofaza qilish, bemorlar hayotini asrash, ularga yuksak e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish borasidagi alohida xizmatlari, shuningdek, o‘z burchi va qasamyodiga sodiq qolib, zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish yo‘lidagi ulkan jasorati va fidoyiligi uchun bir guruh yurtdoshlarimiz faxriy unvon, orden va medallar bilan mukofotlansin:

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sog‘liqni saqlash xodimi” faxriy unvoni bilan

Axunov Olimjon	– Namangan viloyati Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik markazi bakteriolog shifokori
Alimov Anvar Valiyevich	– Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori
Barotova Vinera Djurayevna	– Toshkent shahar OITSGa qarshi kurash markazi bosh shifokori
Liverko Irina Vladimirovna	– Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari
Musabayev Erkin Isakovich	– Respublika virusologiya ilmiy tekshirish instituti direktori

“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan

- | | |
|---|---|
| Akilov Xabibulla
Ataullayevich | – Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi direktori |
| Atabekov Nurmat
Satiniyazovich | – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik nazorati davlat inspeksiyasi boshlig‘i – O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya inspektori |
| Djapparova Gulsim
Tanirbergenovna | – Konimex tumani tibbiyot birlashmasi yuqumli kasalliklar bo‘limi infeksionist shifokori, Navoiy viloyati |
| Imamkulov Abdukayum
Bazarovich | – Jarqo‘rg‘on tumani tibbiyot birlashmasining yuqumli kasalliklar bo‘limi infeksionist shifokori, Surxondaryo viloyati |
| Matnazarov Ismoil
Saidovich | – Hazorasp tumani tibbiyot birlashmasining yuqumli kasalliklar bo‘limi shifokori, Xorazm viloyati |
| Mengliyev Zulfitdin
Davronovich | – Romitan tumani markaziy shifoxonasining reanimatsiya bo‘limi anesteziolog-reanimatologi, Buxoro viloyati |
| Mustafayev Xayrulla | – Respublika virusologiya ilmiy tekshirish instituti bosh ilmiy xodimi |
| Novikova Natalya
Borisovna | – Mirobod tumani ko‘p tarmoqli poliklinikasi infeksionisti, Toshkent shahri |
| Ruziyev Murot
Samadovich | – G‘uzor tumani tibbiyot birlashmasi yuqumli kasalliklar shifoxonasi infeksionist shifokori, Qashqadaryo viloyati |
| Rustamova Dildora
Abdumalikovna | – Toshkent tibbiyot akademiyasining ko‘p tarmoqli klinikasi bosh shifokori |
| Tuychiyev Laziz
Nadirovich | – Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori |
| Xudaynazarov
Odilbay
Abdinaimovich | – Qoraqalpog‘iston Respublikasi bolalar yuqumli kasalliklari shifoxonasi shifokori |

I darajali “Salomatlik” ordeni bilan

- Azimov Abduvaxid Vaxabjanovich** — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining tibbiy ta‘minot boshqarmasi boshlig‘i
- Almardanov Shuxrat Qudratovich** — O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Davolash-profilaktika yordamini tashkillashtirish bosh boshqarmasining birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini tashkillashtirish boshqarmasi boshlig‘i
- Asilova Muxayyo Ubayevna** — Respublika virusologiya ilmiy tekshirish instituti klinikasi bosh shifokori
- Axmedjanova Umida Nizamovna** — Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Toshkent shahar tez tibbiy yordam stansiyasi katta shifokori
- G‘ofurova Umida Raximovna** — Farg‘ona viloyati yuqumli kasalliklar shifoxonasi infeksionist shifokori
- Dadabayev Fayzullojon Abdukaxarovich** — Namangan viloyati yuqumli kasalliklar shifoxonasi shifokor-bakteriologi
- Jumaniyazov Davronbek Xusainboyevich** — Samarqand viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i
- Qodirova Saïda Niyozovna** — Buxoro viloyati bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining reanimatsiya bo‘limi hamshirasi
- Mirkasimova Xolida Xafizovna** — Respublika virusologiya ilmiy tekshirish instituti laboratoriyasi virusologiya bo‘limi boshlig‘i
- Muminov Solijon Djalilovich** — Namangan viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i
- Parpiyeva Nargiza Nusratovna** — Respublika ixtisoslashtirilgan Ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori
- Saydaliyev Saydimurat Saydiganiyevich** — Respublika o‘lat, karantin va o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar muhofazasi markazi direktori
- Saidgaziyeva Xushnura Sidsaliyevna** — Respublika virusologiya ilmiy tekshirish instituti klinikasining bolalar o‘tkir hepatit kasalliklari bo‘limi mudiri

- Salixbayeva Umida Saidovna** – “Dori-darmon” aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvi raisi
- Sattarov Xasan Ilxamovich** – Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi kardioterapevtik reanimatsiyasi bo‘limi mudiri
- Tadjibayev Gafurdjan Xodjibayevich** – Respublika o‘lat, karantin va o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar muhofazasi markazining o‘lat, epidemiologiya va bakteriologiya laboratoriyasi shifokori
- Xashimova Xilola Nazrullayevna** – Epidemiologiya, mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar ilmiy tekshirish instituti klinikasi infeksiyalar shifokori
- Xusainov Baxtiyor Raxmatovich** – Kitob tumani yuqumli kasalliklar shifoxonasi shifokor-infeksiyalar shifokori, Qashqadaryo viloyati
- Sharipova Kalbike Jumagaliyevna** – Qoraqalpog‘iston Respublikasi bolalar yuqumli kasalliklar shifoxonasi shifokori
- Yuldasheva Zaripa Mirmaxmudovna** – Respublika virusologiya ilmiy tekshirish instituti laboratoriyasi shifokor-laboranti

II darajali “Salomatlik” ordeni bilan

- Akmirzoyeva Sayyora Toshtemirovna** – Samarqand viloyati yuqumli kasalliklar klinik shifoxonasi kichik tibbiy xodimi
- Alimov Saxibdjan Gapparovich** – Epidemiologiya, mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar ilmiy-tekshirish instituti klinikasi shifokor-reanimatologi
- Alimova Baxrinisa Axmatovna** – Epidemiologiya, mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar ilmiy tekshirish instituti klinikasi kichik tibbiy xodimi
- Axmedova Dilfuza Tajikulovna** – Sirdaryo viloyati Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik markazining virusologiya laboratoriyasi mudiri
- Axundadayeva Yokutxon Axmetovna** – Namangan viloyati yuqumli kasalliklar shifoxonasining jonlantirish bo‘limi hamshirasi
- Achilova Inobat Nutfilloyevna** – Kogon tumani tibbiyot birlashmasi neonatologi, Buxoro viloyati

Boymurzayev Abdisodik Islomovich	– Samarqand viloyati yuqumli kasalliklar klinik shifoxonasi infeksiyalar shifokori
Buvabekova Dilfuzaxon Madaminovna	– Andijon tumani tibbiyot birlashmasining tez tibbiy yordam bo'limi hamshirasi, Andijon viloyati
Valnazarova Zulfiya Qummijanovna	– Xorazm viloyati yuqumli kasalliklar shifoxonasining reanimatsiya bo'limi katta hamshirasi
Gafurdjanova Naiba Nigmatovna	– Sirdaryo viloyati OITSGa qarshi kurash markazi laboratoriyasining katta laboranti
Djumashev Alisher Nishanbayevich	– Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Toshkent shahar tez tibbiy yordam stansiyasining 1-bo'limi shifokori
Dugamatova Dinara Temir-Bulatovna	– M. M. Fedorovich nomidagi klinik sanatoriya-sining diagnostik laboratoriyasi mudiri
Yeshmurotova Ra'no Yendirbayevna	– U. Xalmuratov nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi ko'p tarmoqli tibbiyot markazining gematologiya bo'limi hamshirasi
Jumayeva Dilovar Turayevna	– Qashqadaryo viloyati Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik markazining virusologiya laboratoriyasi laboranti
Zaretdinova Gulayim Tilegenovna	– Nukus shahar tibbiyot birlashmasiga qarashli 8-oilaviy poliklinikasi otorinolaringolog shifokori, Qoraqalpog'iston Respublikasi
Zuxurova Shaxodat Jalilovna	– Zangiota tumani tibbiyot birlashmasi tez tibbiy yordam bo'limi shifokori, Toshkent viloyati
Ibragimxodjayeva Aliya Shavkatovna	– Respublika virusologiya ilmiy tekshirish instituti klinikasining biokimyoviy diagnostika laboratoriyasi shifokor-laboranti
Izimbetova Anargul Axmetovna	– Qoraqalpog'iston Respublikasi ko'p tarmoqli tibbiyot markazining reanimatsiya-anesteziologiya bo'limi shifokori
Inagamova Gulmira Nuritdinovna	– Toshkent shahridagi 1-klinik shifoxonasining allergologiya bo'limi katta hamshirasi
Iskandarov Abduxalil Muzafarovich	– Marhamat tumanidagi 31-qishloq oilaviy poliklinikasi shifokori, Andijon viloyati

- Kudasheva Lyudmila Vladimirovna** – O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi bosh mutaxassisi
- Kurbanov Botirjon Jurabayevich** – O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari
- Kuchkarova Sevar Abdukaxarovna** – Jizzax viloyati yuqumli kasalliklar shifoxonasi hamshirasi
- Qutlimuratov Bahadir Baqitbayevich** – Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik markazi bosh shifokori
- Mamatqulova Fotima Tashbayevna** – Surxondaryo viloyati Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik markazining virusologiya laboratoriyasi shifokori
- Masharipov Ilhambay Davlatbayevich** – Yangibozor tumani tibbiyot birlashmasining yuqumli kasalliklar bo‘limi shifokori, Xorazm viloyati
- Mirzayeva Fayzilaxon Ne‘matovna** – Andijon viloyati yuqumli kasalliklar shifoxonasining reanimatsiya bo‘limi hamshirasi
- Norbutayev Odiljon Mamadaliyevich** – Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Namangan filiali sanitariya havo yo‘llari va favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordamni tashkil etish bo‘limi mudiri
- Normamatova Feruza Karshibayevna** – Qashqadaryo viloyati Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik markazining bakteriolog shifokori
- Norova Malohat Mustafoyevna** – Qiziltepa tumani Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik markazining bakteriologiya bo‘limi laboranti, Navoiy viloyati
- Pulatov Abdurashid Qaxarjonovich** – O‘rta Chirchiq tumani O‘rtasaroy karantin zonasi davlat korxonasi oshpazi, Toshkent viloyati
- Pulatova Gulnora Batirovna** – 1-Markaziy konsultativ-diagnostik poliklinikasining maxsus bo‘limi otolaringolog shifokori
- Riskiye Baxtiyor** – Toshkent viloyati OITSga qarshi kurash markazi bosh shifokori

- Sagatova Adolat Pattoxovna** – Olmazor tumanidagi 17-oilaviy poliklinika shifokori, Toshkent shahri
- Saribayeva Zamira Juranovna** – Jizzax viloyati Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik markazi epidemiologik monitoring va profilaktik tadbirlarni tashkil etish bo‘limi epidemiolog vrachi
- Semina Yelena Aleksandrovna** – Sergeli tumani tibbiyot birlashmasi onkolog-shifokori, Toshkent shahri
- Sultonov Bozorboy Oltinovich** – Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg‘ona filialining bolalar reanimatsiya bo‘limi anesteziolog-reanimatologi
- O‘rolov Oybek Absalomovich** – Respublika virusologiya ilmiy tekshirish instituti klinikasi jonlantirish bo‘limi shifokori
- Xamrakulov Kodirjon Akramjonovich** – Paxtaobod tumani tibbiyot birlashmasining yuqumli kasalliklar bo‘limi shifokori, Andijon viloyati
- Xamraqulov Uktam Xolbutayevich** – Jizzax viloyati yuqumli kasalliklar shifoxonasining reanimatsiya bo‘limi mudiri
- Xashimova Saodat Sakidjonovna** – Epidemiologiya, mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar ilmiy tekshirish instituti klinikasi hamshirasi
- Xodjayeva Aziza Shabatovna** – Toshkent shahri “De-factum laboratories” klinikasi shifokori
- Xodjiyev Akmaljon Anvar o‘g‘li** – 1-Markaziy konsultativ-dagnostik poliklinikasining tez tibbiy yordam bo‘limi katta feldsheri
- Xomidov Faxriddin Mirzoumarovich** – Sirdaryo viloyati yuqumli kasalliklar shifoxonasining reanimatsiya bo‘limi reanimator-anesteziologi
- Xusanov Anvar Mirzakbarovich** – 1-Respublika klinik shifoxonasi bosh shifokori
- Hamroyeva Zebiniso Asrorovna** – Samarqand viloyati yuqumli kasalliklar klinik shifoxonasi hamshirasi
- Choriyeva Ramila Gaybullayevna** – Mirishkor tumani Jeynov shifoxonasi umumiy amaliyot shifokori, Qashqadaryo viloyati
